

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXUS TA’LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK

Дилафруз Файзуллаева

**Turkiston o‘lkasida davlat muassasalari tarixidan
(XIX asr oxiri-XX asr boshlari)**

**5A 220301 – Hujjatchilik, hujjatshunoslik va arxivshunoslik mutaxassisligi
bo‘yicha magistr ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: t.f.n. Z.Rahmankulova

TOSHKENT–2018

M U N D A R I J A

KIRISH	3-13
---------------------	------

I.BOB. Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va boshqaruv Nizomlarining qabul qilinishi.

I.1.Turkiston general-gubernatorligining dastlabki ma'muriy-hududiy bo'linishi.....	14-27
I.2. Turkiston o'lkasida Boshqaruv Nizomining qabul qilinishi va metropoliya nazoratining kuchaytirilishi.....	28-38

II.BOB. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi faoliyati

II.1. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasining tashkil etilishi.....	39-45
II.2. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasining tarkibiy tuzilishi va faoliyati.....	45-57

III. BOB. Turkiston general-gubernatorligi moliya-xo'jalik va sud tizimi muassasalari

III.1. Turkiston o'lkasi Nazorat va G'azna palatalarining faoliyati.....	58-69
III.2. Turkiston general-gubernatorligi sud tizimi.....	70-84

Xulosa	85-87
---------------------	-------

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati	88-94
---	-------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Milliy mustaqillikni qo‘lga kiritgan O‘zbekiston Respublikamiz porloq istiqbol sari bosqichma-bosqich qadam tashlamoqda. Bu odimlar xayrli bo‘lishi bilan birga juda mas’uliyatli va mashaqqatlidir. Shu mashaqqatli yo‘lda xalqimiz ma’naviy qadriyatlarimizga, xususan, o‘lkamiz tarixiga qiziqish, uni bilish, o‘tmishini to‘g‘ri tushunish, mustaqilligimizni qadriga etishga, kelajagi porloq mamlakatimizni to‘g‘ri yo‘lini belgilab olishga yordam beradi. Milliy madaniyat, milliy g‘oya, mustaqillikka erishgan xalqning o‘ziga xos ma’naviyatini yuksaltirish, tarixga munosabatni o‘zgartirish talablari asosida tiklash kabilarni taqazo etadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, biz bosib o‘tgan yulimizni tanqidiy baholash, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlarini, qadimiy merosimiz, ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an‘analarini yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog‘imiz kerak¹”, — degan so‘zlari fikrimizning yorqin isbotidir.

Mana necha yildirki Chorizm Turkistonni zabt etgach o‘lkani o‘zining mustamlakasiga, metropoliyaning xom-ashyo qo‘nog‘iga aylantirilgan edi. Bu esa Turkiston jamiyatining butun turmushini ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi, undagi xalqlarning milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, an‘analari, eng qadimgi davrlardan mustaqillikkacha bo‘lgan tariximiz soxtalashtirib, jamiyatning tabaqalashuvi kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “O‘zbekistonning o‘zbek xalqining bugun keng ommaga etkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi yo‘qmi? Tarixdan judo bo‘lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixdan judo bulish hayotdan judo bo‘lish demakdir”², — degan so‘zni ko‘p uqtirganlar. Zero, bu fikrlardan biz o‘z o‘tmishimizni juda yaxshi bilmog‘imiz, tariximizni

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий – ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. - Тошкент “Ўзбекистон” 1995. 9-бет.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент. 1999. 10-бет.

qadriga etmog‘imiz lozim. Biz yoshlar uchun tarixni bilish, oldimizda turgan vazifalarni bajarishda “eski xatolarga yo‘l qo‘ymaymiz degan” — umid bilan yashamog‘imiz kerak bo‘ladi.

Shularni hisobga olgan holda o‘z Vatanimiz tarixini to‘la-to‘kis tushungan holda uning o‘zi qanday bo‘lsa, huddi mana shunday holda kelajak avlodga yetkazish asosiy maqsadimizdir. Hozirgi kun nuqta’i-nazardan tarixiy voqea hodisalarni soxtalashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Uni oldini olmog‘imiz lozim. Tarixni aqidalar asosida talqin qilishdan voz kechish payti keldi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida hukmronlik qilgan Chorizm davrida zo‘rovonlikka asoslangan ma’muriy buyruqbozlik tizimi totalitar markaz o‘z qo‘lidagi cheksiz hokimiyatni ishga solib respublikalarning mustaqilligini, fuqarolarning eng oddiy haq-huquqlarini ham kamsitish, ularni xo‘rlash qul qilishdan iborat edi. Bizning kelajagi porloq buyuk davlatimiz O‘zbekiston o‘zining, o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlagan holda bu mustamlaka siyosatidan voz kechgan holda, tarixni manbalar asosida to‘g‘ri yoritishni yurtboshimiz o‘zlarining har bir chiqishlarida takror aytib o‘tgan edilar. Biz yoshlar o‘z oldimizga o‘z tariximizni o‘rganish bilan birga kelajakka yorug‘ ko‘z bilan qarashni maqsad qilib qo‘ymog‘imiz darkor. Bu esa bizning oldimizda kelajagimizni to‘g‘ri o‘rganish uchun o‘tmishimizni to‘g‘ri idrok etishimizni talab etadi.

Biz yoshlar har doim o‘z o‘tmishimizning o‘rganish bilan tarixiy haqiqatni ro‘y-rost ko‘rsatishimiz, uning qandayligini gavdalantirishdek ezgu va oliyjanob maqsadlarni ko‘rsatmog‘imiz biz tarixchilarning oldida turgan eng buyuk burch va vazifamizdir.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Biz o‘rganadigan mavzuga e’tibor berishda Turkiston o‘lkasining Chorizm mustamlakachiligi jarayonida kechgan hayoti va unga bag‘ishlangan tarixiy adabiyotni ilmiy tadqiq etish bilan birga tarixiy qo‘lyozma va arxiv hujjatlarini tadqiq, etgan holda ilmiy izlanish va bu materialni ilmiy jamoatchilikka yetkazishni taqozo etadi.

Mavzuni yoritib berishda XX asrning 20-30 yillarning boshlarida izlanish olib borgan tarixchi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlarida yaratildi. SHu davr tarixchilari u ilmiy tadqiqotlarida Turkiston o'lkasining CHorizm ta'siriga tushgani va uning oqibatlari hamda mustamlaka siyosatini tub mohiyatini o'z asarlarida ochib berganlar. Tarixchilardan G.I.Safarov, P.G.Galuza, A.Z.Validiylar o'z asarlarida bu mavzuni ham birmuncha yoritganlar.

G.I.Safarov³ daliliy misollar asosida Turkistonda mustamlaka idorasi kirdikorlarini va podshoh amaldorlarining o'lka boyliklarining ayovsiz talanganligini, xalqni asoratga solganligini faktlar asosda ko'rsatib bera olgan. U Turkistonda o'troqlashgan Evropa aholisini barcha qatlamini umumiy andoza bilan mustamlakachilar deb ataydi.

Markaz va SK VKP (b) ning 1934 yil 23 mayda qabul qilingan O'rta Osiyo tarixshunosligida "Burjuaziya — mustamlakachilik konsepsiyasi" ni tagtomiri bilan qo'parib tashlash haqidagi qarori natijasida bu mavzuni o'rganishg tadqiq etish sohasida yangicha yondashishni taqozo etadi. Endilikda mustamlakachilik tepasiga yondashish va Talqin etish xususiyati va uni mazmunini "to'g'ri tadqiq etish" va masalani qayta ko'rib chiqish haqidagi ko'rsatma katta munozaralarga sabab bo'lgan asarlar vujudga keldi⁴.

Ahmad Zakiy Validiyning "Turkiston masalasi" asarida Chor Rossiyasi yuritib kelgan mustamlakachilik siyosati fosh etilibgina qolmay, shu bilan birga yangi, Sho'ro Rossiyasining huddi o'sha oldingi Chor hukumati siyosatini o'zgacha niqobida davom ettirayotganini isbotlab berdi. Bu haqda u: "Turkiston uchun istiqlool barcha ishlarning boshidir" — deb yozadi Validiy. Rossiya siyosatini ro'y-rost va atroflicha tadqiq etar ekan. Rossiya Osiyoda uzoqni ko'zlovchi siyosat ketidan quvuvchi va bu keng qamrovli qarakatlari hech qanday chek-chegara bilmagan, xirs va ishtahasi esa kun sayin oshib

³ Сафаров Г.И. Колониальная революция (опыт Туркистана). – М., 1921.

⁴ Галузо П.Г. Туркестан колония. Очерк история Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 года -М. 1929.

boruvchi imperialistik davlatdir. Rus istilolari, yangi-yangi o'lkalarni zabt etmoq va erlardagi qavmlarni madaniy iqtisodiy sharoitlar vositasida assimilyasiya qilib, ular hisobiga kengayib, kuchayib bormoq g'oyasini ko'zda tutadi⁵”.

50-yillarning boshlaridan boshlab mustamlakachilik masalalari bilan shug'ullanayotgan tarixchilar “bo'ysundirish”, “mustamlaka” kabi atamalardan voz kechib, ularga tuzatish kiritib, ularni o'rniga “kirgizish”, “birlashtirish”, “ixtiyoriy birlashtirishning progressiv ahamiyati” kabi siyosatni qullab yangicha mavzuga yondashib tadqiqotlar qiladilar⁶.

XX asr 50-60 yillarida Toshkent tarixi va uning boshqaruv sistemasi va adliya masalalariga bag'ishlangan ayrim asarlar orasida M.E.Masson⁷, M.D.Vahobov⁸, V.A.Shishkin⁹lar asarlarida Toshkentning arxeologiyasi, o'tmish tarixiga oid faktlar keltirilgan.

XX asrning 60-yillarida yozilgan F.A. Ozodaev¹⁰, A.M. Aminov¹¹, Yu.A.Sokolov⁷larning asarlarida Toshkentda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi, shaharning XIX asr o'rtalarigacha tarixiy o'tmishi, uning 1865 yilda Chorizm tomonidan bosib olinishi o'z aksini topgan.

Tarixiy manbalar: Turkiston o'lkasining boy tarixi qadimdan muarrixlar (tarixchilar) e'tiborini jalb qilib kelgan. O'rta asr va yangi davr Sharq mualliflari asarlarida Turkiston o'lkasi tarixiga oid turli ma'lumotlar uchraydi.

⁶ Аминов А. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). – Ташкент., 1959.

⁸ Вахобов М.К. Ташкент в период трёх революций. – Тошкент, 1967.

⁹ Шишкин В.А. Города Узбекистана. – Ташкент, 1943.

¹⁰ Озадаев Ф. Тошкент тарихидан очерклар. – Тошкент., Фан. 1960.

¹¹ Аминов А.М. Торговые сношения Средней Азии с Россией в XVI-XIX вв. – Тошкент, 1952; А.Бабаходжаев Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Тошкент, 1966; Соколов Ю.А. Ташкент, ташкентцы и Россия. – Ташкент, 1965.

¹² Муҳаммад Юсуф Мунши. Тарихи Муқимхони [Муқимханская история]. Сўзбоши, таржима ва изоҳлар А.А.Семёновники. – Тошкент, “Фан”, 1956, С.58,87,100; Мирмуҳаммад Амин Бухори. Убайдулланом. Сўзбоши, таржима, кўрсаткичлар ва изоҳ А.А.Семёновники. – Тошкент, “Фан”, 1957, С.55,100; Захриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Сўзбоши, таржима, кўрсаткичлар ва изоҳ С.А.Азимжонов. – Тошкент, 1958; Муҳаммад Солиҳ Қорахўжа кўли Тошкандий. Тарихи жадидаи Тошканд. – Ўз ФА ШИ, кўлёмалар фонди, инв. №5732; Биноий. Шайбонинома. – ЎзР ФА ШИ, кўлёмалар фонли, инв. №844 ва ҳ.к.

¹³ Муҳаммад Солиҳ Қорахўжа Тошкандий. Тарих-и жадида-и Тошканд. – Ўз ФА ШИ, кўлёмалар фонди, инв. №5732.

Biroq bu ma'lumotlarning bironta jamlangan to'plami, tanqidiy tahlili tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilmagan. Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolari jamlagan ayrim topilmalar Turkiston o'lkasi tarixining ibtidosi to'g'risida aniq tasavvur qilish imkonini bera olmagan. Toshkentlik bir guruh o'lkashunoslar 1873 yil Sharq qo'lyozmalari asosida Toshkent tarixini tuzishga kirishganlar, ammo bu tashabbus ham chala qolgan. Faqat XVII-XIX asrlardagi rus va xorijiy sayyohlarning Turkiston o'lkasi to'g'risidagi ma'lumotlari va O'rta Osiyo Chorizm tomonidan bosib olingan (1865) dan keyingi tarixigina birmuncha batafsilroq o'rganila boshlangan. SHular asosida Toshkentning so'nggi o'rta asr davri, ayniqsa yangi davr tarixiga oid dastlabki asarlar paydo bo'lgan.

Toshkent o'zining boy, qadimiy tarixiga ega. Bu tarix bevosita O'rta Osiyo xalqlari tarixi bilan uzviy bog'liqdir. O'lkamiz tarixi va madaniyati, sharqu Fapbga mashhur shaharlarimiz qatorida Toshkentning o'rni betakror. SHarqu g'arbni bir-biriga bog'lovchi qadimiy Ipak yo'lida joylashgan shaharlardan biri bo'lgan Toshkent jahonning qator mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarda faol ishtirok etdi, shuningdek, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini yaratishda o'z hissasini qo'shdi. O'rta Osiyo tarixiga oid qo'lyozmalarda, o'tgan asrlarda yashab ijod etgan olimlarning asarlarida Turkiston o'lkasi tarixi ham o'z aksini topdi. Toshkent xaqida o'rta asr tarixnavislari qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Niyoz Muhammadning "Tarix-i Shohruhi" asarida XVIII asr boshida (1709 yilda) Qo'qon xonligini tashkil topishi, ming urug'ining XIX asr boshlarigacha Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'liga olish uchun olib borgan g'arbiy yurishlari, ularni qipchoqlar va qirg'izlar bilan hokimiyat talashuvlari, Qo'qon va Buxoro o'rtasidagi urushlar hamda Toshkent viloyatini Ko'qon xonligi tarkibiga kiritilishi xaqidagi ma'lumotlar, Toshkentni Rossiya tomonidan bosib olinishi va shaharni bosharilishi haqidagi tarixiy voqealar o'z bayonini topgan. Muxammad Solihning "Tarix-i jadidayn Toshkand" asari Toshkant tarixiga

maxsus bag‘ishlangan¹.

Toshkent haqida ayrim ma’lumotlar qo‘lyozma manbalarda ham uchraydi. Ularda O‘rta Osiyoda kechgan siyosiy voqealar, harbiy tuqnashuvlar va madaniy qurilishlarni tavsiflash asnosida uchrab turadi. Jumladan, Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” (XIV asr oxiri - XV asr boshi), Muxammad Haydarning “Tarix-i Rashidiy” (XVI asr), (XVI asr), Muxammad YUsuf Munshiyning “Tarix-i Muqmxoniy (XVII asr), Mir Muxammad Amin Buxoriyning “Ubaydulla-noma” (XVIII asr), Muxammad Xakimxonning “Muntaxib at-tavorix” (XIX asr), Muxammad Fozilbekning “Mukammal tarix-i Farg‘ona” (XIX asr), Niyoz Muhammadning “Tarx-i Shohruhiy” (XIX asr), Mirzo Olimning “Ansob as-salotin” (XIX asr) kabi asarlari¹² shular jumlasidandir. Bu yozma manbalar, asosan, Toshkentni ma’lum bir davrdagi tarixiga oid ayrim voqealardangina hikoya qiladi. Maxsus Toshkent shahriga bag‘ishlab yozilgan kitob esa, Muxammad Solihning “Tarix-i jadidayi Toshkand” nomli asaridir.

Bu asar Toshkent shahrining XIX asr tarixi va topografiyasi haqida hikoya qiluvchi yagona mahalliy va eng to‘liq manbadir. “Tarix-i jadidayi Toshkand” ikki jildidan iborat bo‘lib, unda tarixiy voqealar bayoni “Odam ato” davridan tortib, O‘rta Osiyodagi va qo‘shni mamlakatlar tarixiga bag‘ishlangan. (1^b— 297^a varaqlari). Asarning qolgan ikkinchi jildi (297^a—1040⁶ varaqlarni) o‘z ichiga oladi. Uning birinchi qismi “Jannat nishon Farg‘onaning oliy nasab sultonlari” qismida (297^a —360^b) vodiya XV asr oxiri va XVI asr birinchi choragidagi siyosiy voqealar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ikkinchi jildning ikkinchi qismida (361^a — 870^a) XV asrdan to muallif yashagan yillargacha bo‘lgan O‘rta Osiyo tarixi, Qo‘qon xonligi va Toshkent shahri tarixi yoritilgan. Bu ham asarning eng mukammal qismi deb hisoblash mumkin. Uchinchi qismida (873^b—1034⁶) bevosita Toshkent shahrining XVIII asr uchinchi

¹² Соколов Ю.А. Ташкент, ташкентцы и Россия. – Ташкент, 1965.

choragida joriy etilgan “chorhokimlik” davridagi ma’muriy bo‘linishi — to‘rt daha tushunchasiga asoslangan topografiyasi va shu ma’muriy birliklar doirasiga kiritilgan atrof yerlar geografiyasi tavsiflangan. Biz bu asar ma’lumotlarini rus sayyohlari, olimlari tomonidan yozilgan asarlardagi ma’lumotlar bilan solishtirishda foydalandik. Shahar tarixini, xususan boshqaruv usuli, sud tizimi tarixini qiyosiy o‘rgandik.

XIX asrda yashagan rus mualliflari o‘zlarining qator asarlarida Toshkent tarixiga oid ba’zi tomonlarini yoritganlar. Jumladan, A.M.Terentevning uch tomlik asari¹ AP.Subotin² ning XIX asr o‘rtalari va ikkinchi yarmida Toshkentning savdo aloqalariga oid asari,³ A.P.Demidev, 5 N.Pavlov, A.I.Dobrosmislov, P.A. Maev, AP.Xoroshxin, T.I.Geyer⁴ kabi tarixchi olimlarning asar va maqolalarida Toshkentning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining ayrim tamonlari yoritilgan. Jumladan, M.A. Terentevning asari juda ko‘p arxiv materiallari hamda bosilib chiqqan tarixiy asarlarga asoslanib yozilgan bo‘lib, bu Turkistonning yangi tarixiga oid asosiy asarlardan biridir. Muallif bunda Rossiyaning istilochilik siyosatini yoqlab chiqqan holda, o‘lka iqtisodi va ichki siyosati masalasini, voqealar jarayonini o‘zining mustamlakachi nuqtai nazaridan yoritib bergan. U asosiy e’tiborni Rossiya podshosining mustamlakasi sifatida O‘rta Osiyoning iqtisodiy ahamiyati haqidagi masalaga diqqatni jalb etgan. A.P.Subotin esa XIX asr o‘rtalaridan to 80-yillargacha Toshkentning savdo aloqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltirar ekan, bundan Rossiyalik savdo va sanoat korchallonlarining O‘rta Osiyo savdosidan ko‘radigan manfaatlarini yoqab chiqadi.

V.P. Nalivkinning “Qo‘qon xonliginin qisqacha tarixi” nomli asarida Qo‘qon xonligi, shu jumladan, Toshkent bekligining tarixi to‘g‘risida ancha qiziqarli ma’lumotlar keltiradi. Undagi materiallar Qo‘qon xonligi, shu jumladan, Toshkent bekligining tarixi to‘g‘risida ancha qiziqarlii ma’lumotlar keltiradi.

XIX asr oxirida va XX asr boshlarida yozilgan tarixiy asarlarda Qo‘qon xonligi

tarkibida bulgan Toshkent bekligidagi ma'muriy boshqaruv¹, Toshkent shahrida tarixiy ma'lumotnoma² lar va XIX asr oxirigacha bo'lgan tarixi mukammal yoritib berilgan.

Toshkent tarixini o'rganishda arxiv materiallari, ayniqsa, hujjatlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, N.A.Abdurayimovanning «XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Turkistonda mansablar tarixidan»³ nomli ishda O'zR MDA ning «Turkiston general-gubernatorligi mahkamasi» jamg'armasidagi 4, 7, 11, 16, 27, 31, 33 va 35 ro'yxatidagi, 13 ta ishlar to'plamidagi hujjatlar ochib berilgan. Hamda- XIX asr oxirida Rossiyada boshqaruv sohasida markazlashish tendensiyasining kuchayishi bilan Turkistonda hokimiyati mustaqilligi chegaralanib borishi masalasiga e'tibor qaratilgan. 90— yillardan boshlab, ya'ni mustaqillikka erishgan¹³ davrimizdan boshlab, bu davrni tarixiy nuqtai nazar bilan yorituvchi ko'plab adabiyotlar ilmiy maqola, monografiyalar yaratildi. Biz bu adabiyotlar asosida mustamlakachilik tizimining haqiqiy kurinishi, bu davrning shu paytgacha tadqiq qilinmagan xususiyat va jihatlari bilan tanishdik.

Bu davr tadqiqotlari Turkiston o'lkasini nafaqat bosib olinishi, shu bilan birga erli xalq ongi va shuuriga, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotga qilgan ta'sirdan tashqari, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida norozilik va milliy harakatning kuchayishi hamda Chor Rossiyasining siyosati va uning boshqaruv tizimiga qarshi ko'garilgan ozodlik xarakatlari manbalar asosida kurib tahlil etilishga harakat kilindi. Toshkent tarixi, uning ma'muriy idora boshqarish usuli, XIX asr ikkinchi yarmigacha va XX asr birinchi yarmi, ya'ni Toshkentni mustamlaka davrida,—Turkiston general — gubernatorligi tuzilgandan keyin shahardagi boshqaruv usuli, sud idora mahkamasi tarixini o'rganishda Toshkent shahri qozixonalarida tuzilgan vasiqalar, hukmlar, xatlar, tilxatlar, da'volar kabi hujjatlar asosiy manba bo'lib hisoblanali.

¹³ Абдуллаев Р.М.Из истории национального движения в Туркестане после февраля 1917 общественные науке в Узбекистане. 1993. №”3.

Tadqiqotda XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston general — gubernatorlarligi boshqaruv usulida ma'muriy idoralarida sud ishlari tizimida tarixi sud-tergov ishlarida yangicha yondashish va uning tashkil topishi, faoliyatlari, sudyalari, ularning ish tartibi, sud organlari, ularning tashkil qilinishi va boshqarish tartibi, mahalliy qozilarining vakolatlari, sudyalari saylash tartibi, viloyat va uezdlarda o'lkani Chorizm tomonidan bosib olingandan sung joriy etilgan mahalliy sudyalari — qozilar va biylar faoliyati, umuman sud ishlari tarixi haqida ma'lumotlar, ularning bir —biridan farqli jihatlari, ularga berilgan vakolat va hujjatlar, viloyat ue'zdlarida mahalliy sudlarning bir —biridan alohida ish ko'rinishlari, mahalliy sud mahkamalarida islom dini qonunlari va shariatga asoslangan holda aholini arzlarini hal qilish tarixini Toshkent shahri misolida tahlil etishni maqsad va vazifa qilib olindi. Ma'lumki, Toshkent shahri tarixi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayoti tomonlari tarixiy adabiyotlarda olimlar tomonidan yoritilgan. Yuqorida aytganimizdek, bu masalalar, Terentevning 3 tomlik asari A.P.Subbotinning XIX asr o'rtalarida va II yarmida Toshkentning savdo aloqalariga oid ilmiy asari² muhim ahamiyatga ega. A.P. Demidov³, V.N.Pavlov⁴, P.I.Pashino⁵ A.I.Dobromislev⁶, N.A.Maev⁷, Xoroshin⁸, I.I.Geyer⁹ kabi olimlarning asar va maqolalari, shular jumlasidandir. Toshkentda yashagan sharqshunos olim, tarixnavis Muhammad Solihning Toshkent tarixiga oid yozgan¹⁰ asari ham muhim ahamiyatga ega. Muhammad Solih o'zining mazkur asarida Toshkentning geografiyasi, tarixi, toponimikasi, mahalla, mavze, masjid, madrasalar maqbara va bozor hamda 12 darvozasi to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga Toshkent tarixga oid hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivini turli fondlarida saqlanmoqda .

Ushbu mavzuni yoritishda asosiy manba qilib O'zR MDAning turli jang'armalaridan foydalanildi va imkoni boricha yozma manbalardagi materiallar bilan solishtirildi.

Arxiv materiallarini qo'lyozma manbalar bilan nihoya qilinganda

Toshkentni XIX asr 80 yillaridan XX asr boshlariga qadar mahalliy qozilar tomonidan Toshkent shahar boshqarmasiga barcha qabul qilingan hukm va qarorlari junatilgani kuzatildi. Shu davr ichida sud mahkama ishidagi faqat Toshkent shahriga xos har bir yil uchun (yanvardan dekabr oxirigacha) ko'rib chiqilgan mahalliy sud idorasi chiqargan hukm va qaror ostida rus tilida ko'rilgan ishlarni qabul qilinganligi kuzatilgan.

Manbaviy asosi ko'rsatib o'tilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun K.K.Palen, A. Aminov va O'zR DMA fondlarida saqlanayotgan shu mavzuga oid arxiv hujjatlari bir tomondan, Turkiston general — gubernatorligi devonxonasidagi ishlar, Toshkent shahri Qozikalon mahkamasidagi hujjatlar, Toshkent viloyati, Toshkent shahar sud tizimini vujudga kelishi tarixiga oid sud organlarining faoliyati xususida yozilgan ma'lumotlarni o'rganib, tadqiq etib, shu manbalar asosida ushbu mavzuni ilmiy jamoatchilikka etkazish.

Tadqiqotning maqsadi: Ilmiy tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad Turkiston o'lkasida davlat muassasalari tarixini (XIX asr oxiri-XX asr boshlari) ilmiy tadqiqotlar asosida yoritib berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Tadqiqotning vazifalari:

1. Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy idoralarida Turkiston o'lkasining siyosiy ma'muriy markazi bo'lmish Toshkent shaharning o'ziga xos xususiyatlari;
2. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan Turkistonda generalqgubernatorlik idoralarining ish uslubida sud mahkamalari tizimining o'rni;
3. Toshkent shahrida yangicha sud mahkama idora tizimining tashkil topishi va uning faoliyati;
4. Turkiston o'lkasi Nazorat palatasining faoliyati
5. Toshkent shahar sudyalarning mahalliy qozilari mahkamasi ustidan nazoratining o'rnatilishi.

Ilmiy yangiliklar. Bu ilmiy ishlarimizning yangilik tomonlari shundan iboratki, bugungi kunda istiqlol davrida o'zining zamonaviyligi bilan konseptual uslubiy yo'nalishga ega bo'lgan huquq va adliya idoralarining ilk tarixini aniqlashda Turkiston general—gubernatorligi ma'muriy boshqaruv idoralarida sud ishlari tarixi, ya'ni Toshkent shahari misolida olib o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, hozirgacha tarix faniga, jalb etilmagan va kiritilmagan yozma manbalar va xujjatlar dissertatsiyaga asos qilib olindi. Ko'lyozma asarlar va tarixiy arxiv hujjatlari ma'lumotlariga tayanib chorizmning mustamlakachilik siyosatiga asoslangan sud tizimi idora usuliga o'rin ajratildi, hamda Turkiston xalqlariga keltirgan mustamlakachilikning og'ir oqibatlari ko'rsatib berildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ushbu dissertatsiyaga jalb etilgan hujjat va manabalar Turkistondagi mustamlaka siyosatiga asoslangan sud idora usullarini tadqiq etishda mavjud bo'lgan noaniqlik va oraliq joylarni to'ldirish, hamda tariximiz sahifalarini oq dog'larini aniqlashda yozma manbalarning o'rni aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari universitet, kollej va maktab o'quvchilarini o'qitishda foydalanish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan manba va tarixiy adabiyotlar ruyxatini tashkil etadi.

I.BOB. Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va boshqaruv Nizomlarining qabul qilinishi.

I.1.Turkiston general-gubernatorligining dastlabki ma'muriy-hududiy bo'linishi

1865 – 1867 yillarda Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoda egallangan hududlar Orenburg general-gubernatorligiga bo'ysinuvchi Turkiston viloyati tarkibiga kiritilgan edi. 1867 yili aprelda Rossiya imperiyasi imperatori Aleksandr II Maxsus komitetning Turkiston general-gubernatorligi – Turkiston o'lkasini tashkil etilishi haqidagi loyihasini tasdiqlaydi. 23 iyulda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilganligi haqida imperator farmoni chiqadi. Imperiyaning yangi siyosiy-ma'muriy birligining vujudga kelishi O'rta Osiyo hududi bosib olinishining dastlabki bosqichi tugashini anglatar edi. Bu esa o'z navbatida imperiyaning hududiy jihatdan kengayishi va yangi hududlarni iqtisodiy o'zlashtirishni talab qilardi. Qolaversa, yangi ma'muriy birlik Rossiyaning mintaqaga yanada kengroq kirib borishida platsdarm rolini o'ynashi kerak edi. Buning uchun avvalo o'lkaning ma'muriy tuzilishi va boshqaruvi masalasini xal etish lozim edi.

SHuning uchun 1867 yili 11 iyulda “Ettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish haqida nizom loyihasi” joriy etiladi.¹⁴ Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida “harbiy vaziyat” omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan yuzaga kelgan va qoida tarzida “muvaqqat” xususiyatga ega edi. CHunonchi, “Sirdaryo va Ettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom” 1867 yili “tajriba tarzida uch yilga” joriy qilindi. Undan tashqari, 1868

¹⁴ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. -34 б.

yilning iyunida “Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidolari”, “Farg‘ona viloyatini boshqarish bo‘yicha 1873 yil muvaqqat nizom”, “Amudaryo bo‘limini boshqarish bo‘yicha 1874 yil 21 may nizomi” ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi. Ammo ularning barchasi 1886 yilgi Nizom qabul qilingunga qadar amalda bo‘ldi.

Turli vaqtinchalik nizomlarning mavjudligi va yagona normativ hujjatning yo‘qligi boshqaruvda ma’lum bir qiyinchiliklarga olib kelar edi. Ushbu holatni bartaraf etish choralari metropoliya tomonidan turli tadbirlar, xususan, taftishlar orqali amalga oshiriladi. 1882 yil o‘lkada taftish ishlarini olib borgan F.K.Girs o‘z hisobotida: “Harbiy-xalq boshqaruvi, o‘z davrini yashab bo‘lgan va o‘lkaning hozirgi ehtiyojlariga javob bera olmayotganligi tufayli, mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda umumiy asosdagi boshqaruvni joriy qilish lozim”, – deydi.¹⁵ Aynan F.K.Girsning taftish ishlari natijasiga ko‘ra, 1886 yilga kelib o‘lka ma’muriy tuzilishini o‘rganish va isloh qilish boshlandi. Buning natijasida “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilindi. 1886 yilgi Nizom yuridik jihatdan uzoq vaqt aniq reglamentatsiyaga ega bo‘lmagan turli vazirliklarning o‘lkadagi muassasalari va Turkiston general-gubernatorligi munosabatlarini rasmiylashtirar edi. Turkiston general-gubernatori qo‘l ostidan sudlov, moliya, nazorat, o‘quv va pochta-telegraf muassasalari chiqariladi. Viloyatlarda ularning bevosita vazirlik va o‘lkadagi bo‘limlarga bo‘ysunadigan bo‘linmalari paydo bo‘ldi. Turkiston o‘lkasi 1917 yili Rossiya imperiyasining halokatga yuz tutguniga qadar ushbu Nizom asosida boshqariladi.

O‘lkani boshqarishni yanada engillashtirish maqsadida Turkiston general-gubernatorligi 1867 – 1886 yillarda viloyat va uezlarga bo‘lingan edi. O‘rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh joylarda uezdlar o‘rniga ularga mos ravishdagi harbiy-hududiy birliklar – okruglar, bo‘limlar va rayonlar tashkil qilingandi.

¹⁵ Тухтаметов Ф.Т. Правовое положение Туркестана в Российской империи (вторая половина XIX века). Монография. Уфа, БашГУ, 1999.-67 с.

Dastlab Turkiston general-gubernatorligi ikki viloyat: markazi Toshkentda bulgan Sirdaryo hamda markazi Verniy shahrida bo'lgan Ettisuv viloyatiga bo'linardi. Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobiga qo'shimcha tarzda quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar tashkil qilindi: 1868 yilda markazi Samarqandda bo'lgan Zarafshon okrugi; 1874 yilda markazi Petroaleksandrovsk (To'rtko'l)da bo'lgan Amudaryo bo'limi; 1876 yilda Qo'qon xonligining tugatilishi hisobiga – markazi YAngi Marg'ilon (Farg'ona) shahrida bo'lgan Farg'ona viloyati.

Ettisuv viloyatida jami beshta – Sergiopolsk, Ko'pal, Verniy, Issiqko'l va To'qmoq uezdlariga bo'linar edi. 1882 yili u Turkiston general-gubernatorligi tarkibidan chidarildi.

Sirdaryo viloyati tarkibida jami ettita – Avliyo-ota, Kazala, Qurama (markazi – Qo'yliq qishlog'i), Perovsk, Turkiston, Xo'jand va CHimkent uezdlari tashkil qilindi. Toshkent shahri mustaqil ma'muriy birlikni tashkil etdi. Amudaryo bo'limi ham Sirdaryo tarkibida bo'lgan.

Zarafshon okrugi hududi dastlab Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'linar edi. 1871 yilda ularga yangi ma'muriy-hududiy birlik –tog'li tumanlar qo'shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan mayda beklıklardan tuzildi. Samarqand bo'limi uchta, Kattaqurg'on bo'limi esa bitta tumandan iborat edi¹⁶.

1873 yili Xiva xonligidan ajratib olingan hududning bir qismida tashkil qilingan Amudaryo bo'limi CHimboy va SHuraxon uchastkalariga bo'linar edi.

Farg'ona viloyati hududida jami ettita – Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, O'sh va CHust uezdlari bo'lib, ular bilan bir vaqtda CHimyon (1879 yildan boshlab – Isfara) uezdi tuzilgan edi, uning hududi 1881 yilda Qo'qon va Marg'lon uezdlariga bo'lib yuborildi.

¹⁶ Тухтаметов Ф.Т. Правовое положение Туркестана в Российской империи (вторая половина XIX века). Монография. Уфа, БашГУ, 1999. 56 с

Ushbu tizimning boshlig'i podsho tomonidan tayinlanib, xizmat yuzasidan Rossiya Harbiy vazirligiga bo'ysunuvchi general-gubernator hisoblanardi. U ham fuqaroviy ma'muriyat boshlig'i, ham Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni edi. Umumimperiya qonunlariga ko'ra, general-gubernator "samoderjavie hududlari, davlat manfaatlari daxlsizligi, qonunlar aniq bajarilishining bosh posboni"ga aylantirilgan edi.

General-gubernator o'zining yuridik jihatdan chegaralanmagan hokimiyatiga ko'ra, Turkistonning besh millionlik xalqini boshqarish huquqiga ega edi. Ushbu boshqaruv Rossiya amaldorlar tomonidan harakatlantiriluvchi bir qancha murakkab byurokratik mashina yordamida amalga oshirilardi. Boshqaruvning ma'muriy organlarini mustamlaka hokimiyati tizimidagi o'rniga ko'ra quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin edi: o'lka, viloyat, uezd va bo'lis boshqaruvi.

Turkiston general-gubernatorligi viloyatlari boshqaruvidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo o'lkadagi boshqaruv tizimi o'ta harbiylashganligini ta'kidlash lozim. General-gubernatorlik tarkibiga kiruvchi viloyatlar dastlab har biri uchun alohida ishlab chiqilgan vaqtinchalik Nizomlar asosida boshqarildi. 1867 yili "Sirdaryo va Ettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom", 1868 yili "Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari", 1873 yili "Farg'ona viloyatini boshqarish bo'yicha muvaqqat nizom", 1874 yili "Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha nizomi" ishlab chiqilib, qabul qilingan edi.¹⁷ Ularning barchasi o'z mohiyatiga ko'ra "harbiy va ma'muriy hokimiyatning birdamligi va uning bitta qo'lda birlashtirilishini" tasdiqladi. Shu bilan birga, yukorida qayd etilgan harbiy vaziyat omili va mahalliy jamiyatning an'anaviy ijtimoiy-huquqiy va madaniy me'yorlarini bilmasligi chorizmni xalq tomonidan saylangan vakillarga siyosiy husiyatga ega bo'lmagan barcha ishlarni ichki boshqarish huquqini berish hamda "imperiyaning boshqa qismlarida mavjud

¹⁷ Қаранг: Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида. – Т., 2014; Тиллабоев. С. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан, 2008.

bo‘lgan, imkon qadar, sharoitga to‘g‘ri keluvchi oliy muassasalarni joriy etish”ga ruxsat berishga majbur qildi. Huquqiy munosabatlar sohasida shariat va mahalliy udumlarni... “ular rus qonuni bilan belgilanadigan” davrga qadar qoldirish; “mahalliy boshqaruvda davlat manfaatlari uchun zararli bo‘lgan barcha narsalarni bekor qilish; hokimiyat organlarini mahalliy boshqaruv talablarining yuzaga kelishi va murakkablashuviga qarab sekin-asta rivojlantirish”ga qaror qilindi; “mahalliy vaziyatga ko‘ra sudning ma‘muriyatsidan to‘liq ajratilishi mumkinligi” ko‘rsatib o‘tildi.

Ushbu umumiy tamoyillar mazkur davrda Turkiston xalqlarining butun turmushiga tadbiq etilib, tartibga solgan ko‘p sonli farmon, yo‘riqnoma va direktivalarda rivojlantirildi va batafsil ifodalandi. Chorizm tomonidan yaratilgan harbiy-byurokratik boshqaruv tizimi asosiga mahalliy turmushning barcha bo‘g‘inlari bo‘ysundirilgan edi.

Viloyat boshqaruvlari muhim mahalliy davlat muassasalari hisoblanar edi. Ular kollegial organ bo‘lib, ma‘muriy va xo‘jalik boshqaruvini amalga oshirishda “1867 yilgi nizom loyihasi” hamda general-gubernatorning maxsus ko‘rsatmalariga amal qilardi.

Viloyat boshqaruvi raisi vazifasini harbiy gubernator yordamchisi bajarar edi. Viloyat boshqaruvlari ma‘muriy, sudlov, politsiya, moliya va xo‘jalik yuritish funksiyalarini bajarar edi. Mohiyatan ular guberniya boshqaruvini takrorlar edi, biroq ularga nisbatan hiyla keng vakolatlarga ega edi, chunki Rossiyaning ichki rayonlarida mavjud bo‘lgan barcha guberniya alohida muassasalari vazifalarini bir o‘zi bajarar edi.

Viloyat boshqaruvlari tuzilishiga ko‘ra bo‘linmalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning soni mustamlaka tuzumi qaror topishi va kuchayishi bilan ortib bordi. Chunonchi, agar 1867 yili Sirdaryo va Ettisuv viloyat boshqaruvlarida atigi uchta – taqsimot, xo‘jalik va sudlov bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 80-yillarning o‘rtalariga kelib oraliq chegara, qurilish, qishloq-davolash, veterinariya va hisob-

kitob ishlari bo‘linmalari ochildi. Bundan tashqari, har bir viloyat boshqaruvi qoshida bosmaxona va statistika komitetlari tashkil qilindi.¹⁸

Viloyat boshqaruvi bo‘linmalari o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash bilan harbiy gubernator shug‘ullanar edi. Ilmiy, texnik, tibbiy hamda u yoki bu viloyat uchun muhim sanalgan boshqa masalalarni hal qilish uchun viloyat boshqaruvlari qoshida hozirlik kengashlari tashkil qilindi. Ushbu kengashlarda maslaxatchi va ekspertlar sifatida ish olib borish uchun mutaxassislar taklif etilar edi.

Taqsimot bo‘limi xodimlarining majburiyatlariga quyidagilar kirar edi: viloyat hududiy bo‘linishi va qurilishi, general-gubernator, harbiy gubernatorlar va hukumat farmonlari, buyruqlari, farmoyishlarini tanlash, saralash va e‘lon qilish; qonunchilikni yuritish va ma‘lumot xususiyatiga ega hujjatlarni berish; viloyat amaldorlar apparatining xizmat va ta‘til ishlari bilan shug‘ullanish va h.k.

Viloyat boshqaruvida bosh rolni o‘ynovchi xo‘jalik bo‘linmasiga quyidagi muhim vazifalar yuklangan edi: o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida er taqsimoti, vaqflar bilan bog‘liq ishlarni yuritish, suvdan foydalanish va tub aholiga soliq solish ishlarni boshqarish; mahalliy pul majburiyatlari smetasini tuzish va mahalliy sarf-xarajatlarni boshqarish, boj yig‘imlarining nazorati va nizoli ishlarni hal qilish; turli shartnomalarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash, yakka shaxslarning iltimosiga ko‘ra viloyat xomashyo manbalari bilan ish olib borish, sanoat korxonalari va firmalar ochishga litsenziyalarni rasmiylashtirish; savdo bitimlari va pudratlarini rasmiylashtirish va h.k.

Ko‘rsatilgan masalalarni hal qilishda amaldorlar ma‘muriy faoliyat me‘yorlari, qonuniylik va huquqiy himoya tamoyillariga kam rioya qilar edilar. Ularning shaxsiy istagi ko‘p holda har qanday ko‘rsatma va qonundan ustun kelar edi.

Umuman olganda, o‘lkadagi biron-bir jamoat tuzilmasi 1867 yil qonunlariga ko‘ra, maxsus tashkil qilingan organlar va ularda ishlovchi amaldorlarning boshqaruvi,

¹⁸ Тухтаметов Ф.Т. Правовое положение Туркестана в Российской империи (вторая половина XIX века). Монография. Уфа, БашГУ, 1999. 54 с.

kuzatuvi yoki nazoratisiz faoliyat yurita olmasdi. Mustamlakachilik hokimiyatining tub axolining turmush sohalariga “tumshuq suqishi”, uni tartibga solishga urinishi quyi hokimiyat organlari tuzilipsh va funksiyalarida yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi.

Hududni tashkillashtirish tizimidagi eng quyi bo‘g‘in – bo‘lis (volost) hisoblanardi. Biroq, bo‘lis boshqaruvi izchil ravishda faqat Farg‘ona viloyati hamda Zarafshon okrugida joriy qilindi.

Boshqa joylarda esa ko‘chmanchi aholi sonining ko‘pligi tufayli, bo‘lislar bilan bir qatorda, aholi o‘troq yashovchi rayonlarda oqsoqolliklar ham tashkil qilindi. Xo‘jand uezdi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, uning hududi uchta – Xo‘jand, O‘ratepa va Jizzax rayonlariga bo‘linardi.

Umuman olganda, chorizm tomonidan Turkistonda amalga oshirilgan ma‘muriy-hududiy bo‘linishda o‘lkaning tabiiy, tarixiy, iqtisodiy va milliy xususiyatlari hisobga olinmadi.

Ma‘muriy vazifalar bilan bir qatorda, harbiy gubernatorlarga politsiya va sudlov vazifalari ham berilgan edi. Ular tub aholi vakillariga 100 sumgacha jarima solish va ularni bir oylik muddatga qamoq jazosi bilan jazolash huquqiga ega edilar.

Ularning vakolatiga sud mahkamalari va turmalarning faoliyatini nazorat qilish, jinoiy ishlar bo‘yicha chiqarilgan hukmlarni tasdiqlash kirar edi.

Harbiy gubernator qoshida uning yordamchisi ham bo‘lib, u harbiy gubernator tobi qochgan, yo‘q bo‘lgan yoki bo‘shatilgan hollarda uning xizmat vazifasini bajarar edi.

Zarafshon okrugi va Amudaryo bo‘limi boshliqlariga ham xuddi shunday keng vakolalar berilgan edi. Shu bilan bir qatorda, Zarafshon va Amudaryo ma‘muriyatlariga diplomatik vazifalar ham berilgandi. Zarafshon okrugi boshlig‘ining vakolatiga qo‘shni Buxoro amirligining beklilari bilan “chegara

munosabatlarini olib borish” ham kirardi, Amudaryo bo‘limi boshlig‘i esa Rossiyaning Xiva xonligidagi diplomatik vakili hisoblanar edi.

Uezd ma‘muriyatini uezd boshlig‘i boshqarib, unga uездda joylashgan qo‘shinlar ham bo‘ysunar edi. Uezd boshliqlari viloyat harbiy gubernatorlarining taqdimnomasiga ko‘ra general-gubernator tomonidan tayinlanib, ishdan olinardi. Uezd boshlig‘i bir vaqtning o‘zida ispravnik – politsiya kapitani, politsmeyster, zemstvo boshlig‘i, shahar hokimi, er soliq xizmati raisi ham edi. Uezd boshqaruvining shaxsiy tarkibiga uezd boshlig‘idan tashqari uning yordamchilari va kanselyariya xodimlari ham kirardi. Uezd boshlig‘i betob yoki yo‘q bo‘lgan hollarda uning vazifasini yordamchilari bajarardi. Ma‘muriy ishlar bo‘yicha yordamchi odatda, uezd kanselyariyasini boshqarar edi.¹⁹

Uezd ma‘muriyati joylardagi barcha ishlarni rejalashtirib, muvofiqlashtirar edi. Tizimning bu bo‘g‘iniga g‘azna-obrok ishlarini nazorat qilish, soliqlarni hisoblash, ichki tartibni kuzatish, er-suv tufayli kelib chiqqan nizolarni hal qilish, uездning bo‘lis va qishloq ma‘muriyatlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi ko‘p sonli ishlarning asosiy og‘irligi tushar edi. Aytish mumkinki, uезд boshlig‘i jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy hayotining deyarli barcha sohalarida monopoliyachi hisoblanib, chorizm mustamlakachilik siyosatining mohiyati va ruhini uезд miqyosida hayotga tatbiq etar edi. Amalda u g‘arazli maqsadlarini ko‘zlovchi, mutlaqo malakasiz ma‘muriyatchilik bo‘g‘ini ekanligini namoyish qildi, uni kuchaytirish va kengaytirish borasida ko‘p urinishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keldi.

Turkistonning Toshkentdan boshda shaharlarida o‘z-o‘zini boshqarish organlari tashkil qilinmagan edi. “1867 yil Nizomi”ga ko‘ra, jamoat- xo‘jalik ishlari shaharlarda saylanuvchi mahalliy ma‘muriyat tomonidan amalga oshirilardi.

¹⁹ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. 67 б; Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида. – Т., 2014. 89 б.

SHaharlar qismlar (shahar rayonlari)ga bo‘linib, ularni oqsoqollar boshqarargan. Ular mahallalarda tayinlangan saylovchilar qurultoyi tomonidan saylanar edi.

Shahar oqsoqollari soliq yig‘ish va majburiyatlarni taqsimlash bilan shug‘ullanardi. Ular harbiy gubernator tomonidan tayinlanuvchi va shahar doirasida politsiya xizmatini boshqaruvchi katta oqsoqolga bo‘ysunardi. Katta oqsoqolga barcha quyi politsiya amaldorlari – mirshablar, miroblar va qozilar bo‘ysunardilar. Ularning barchasiga shahar aholisidan yig‘iluvchi mablag‘ hisobidan maosh to‘lanardi.

Turkiston o‘lkasining ayrim shahar markazlarida “1867 yil nizom loyihasi”ga muvofiq ayrim munitsipal funksiyalarga ega bo‘lgan hamda turli soliq va savdo poshlinalarini taqsimlash va yig‘ish bilan shug‘ullangan jamoat xo‘jalik muassasalari tashkil qilindi.

1876 yili K.P.Kaufman farmoyishi bilan shahar xo‘jalik boshqarmalari bekor qilindi va shahar xo‘jaliga rus uezd ma‘muriyati nazoratiga olindi. Faqat Samarqand va YAngi Marg‘ilon shaharlarida bunday boshqarmalar saqlab qolindi. Ular harbiy gubernatorlar tomonidan tayinlangan rus harbiy amaldorlari va mahalliy savdogarlar vakillaridan tashkil topgan edi.

Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining siyosiy va ma‘muriy markazi hisoblanib, o‘ziga xos ma‘muriyat tizimiga ega edi.

Bu erda shahar ma‘muriyatini shaharning maxsus boshlig‘i boshqarardi. Shaharning “eski” va “yangi” qismlarida alohida jamoat-xo‘jalik boshqaruvlari tashkil qilingan edi, “Eski” Toshkentda boshqaruv a‘zolari shaharning oliy tabaqa vakillari tomonidan saylanardi, “Evropa” qismida esa rahbarlar Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori tomonidan tayinlanardi.

Toshkentdagi jamoat-xo‘jalik boshqaruvlarining faoliyati, boshqa shaharlarda bo‘lgani kabi, shahar boshlig‘ining farmoyishlarini bajarishdan iborat edi.

1877 yili Toshkentda 1870 yil 16 iyulda chiqarilgan “Shahar nizomi” joriy qilindi. Unga muvofiq, shahar xo‘jaligi boshqaruvi shahar Dumasi qo‘liga o‘tdi.

Saylovlarda qatnashish huquqi 25 yoshga to'lgan, rus fuqarosi bo'lgan, ko'chmas mulkka ega, soliqlarni to'lovchi, ishi sud yoki tergov ostida bo'lmagan toshkentliklarga berilgan edi.

Biroq "teng huquqli o'z-o'zini boshqarish" mustamlaka hokimiyatining rejasida yo'q edi. SHahar islohoti natijasida mohiyatan ham shakliy belgilariga ko'ra o'z-o'zini boshqarishni eslatmaydigan yana bir byurokratik boshqaruv mexanizmi yuzaga kelardi. Soliq yig'ish va shahardagi tartibni kuzatib borish – Dumaga berilgan huquqlar shular edi xolos. Toshkent shahar Dumasining ijroiya organi shahar upravasi bo'lib, undagi a'zolarining 2/3 qismini shaharning rus aholisi vakillari tashkil etardi. Toshkent shahrining hokimi ma'muriyat tomonidan tayinlanardi. Uni lavozimga general-gubernatorning taqdimnomasiga ko'ra harbiy vazir tasdiqlardi. XIX asrning 70-yillari – 80-yillar boshlarida bu lavozimni qoida tarzida, Toshkent shahrining boshlig'i egallar edi. Ushbu tartibni taklif qilgan birinchi general-gubernator K.P.Kaufman buni: "Ushbu lavozimga talabga javob bermaydigan shaxsning tasodifan saylanib qolishini istisno etish maqsadida, eng asosiysi – aksar aholisi yaqinda bo'ysundirilgan musulmonlardan iborat bo'lgan shahardagi siyosiy vaziyat tufayli", – deb izohlaydi. Amalda esa bu shahar o'z-o'zini boshqarish tartibida bo'lsada, lekin mustamlaka ma'muriyatiga to'liq bo'ysunishini anglatib, aniq belgilangan, izchil davlat siyosatining natijasi edi.

1867 yildagi muvaqqat "Nizomga" va hukumat dekretlariga muvofiq Turkistonning ko'chmanchi va o'troq xalqlari ustidan yagona boshqaruv prinsipi e'lon qilingan bo'lib, u turli shaklda amalga oshirilgan edi. Ko'chmanchi aholi har bir uezdda volost – bo'lislarga, bo'lislar esa ovullarga bo'linardi. Ma'muriy va politsiya hokimiyati bo'lis boshqaruvchilari va ovul oqsoqollari qo'lida bo'lib, ular uch yil muddatga saylanar, ularni lavozimga viloyat gubernatori tasdiqlardi.

Viloyatlarning o'troq aholisi uchun ma'muriy va politsiya hokimiyati aholi tomonidan uch yilga saylanuvchi oqsoqollarga topshirilgan edi. Mahaliy

boylar hukmini susaytirish maqsadida bo'lis va ovullar urug'doshlik emas, balki hududiy belgilarga qo'ra tashkil qilinardi. Chunonchi, qishloq yoki ovul 200 ta hovli yoki o'tovdan, bo'lis esa 1 mingdan 2 mingtagacha hovli yoki o'tovdan iborat bo'lishi belgilab qo'yilgan edi. Bunday bo'lish aksar yirik boylar va urug' sardorlarining noroziligi va qarshiligiga sabab bo'ldi, ular hukumat joriy etgan bu yangi tartibni haqli ravishda qirg'izlarning urug'doshlik alomati bo'yicha bo'linishining yuridik jihatdan bekor qilinishi sifatida qabul qildilar. Mustamlaka ma'muriyati bo'lis va ovullarni hududiy belgilarga ko'ra bo'lishni "ma'muriy boshqaruv borasidagi noqulayliklar"ni bartaraf etish zarurati bilan izohladi. K.K.Palen esa "ko'p sonli urug'ning bir urug' oqsoqoli hokimiyati ostita birlashtirilishi cho'lda osoyishtalikni saqlash ishini og'irlashtirishi mumkin", deb ochiq-oydin tan oladi.

"Osoyishtalikni saqlash" maqsadida urug' oqsoqollari boshqaruvi bekor qilinib, bo'lis va qishloq boshliqlari lavozimlariga chor ma'muriyatiga xayrihox bo'lgan yangi kishilarni qo'yish imkoniyatini beruvchi saylov tizimi joriy etildi. Odatda, bu kishilar boy tabaqalarning vakillari edi.

Saylangan ma'muriyatning asosiy vazifasi soliq va yig'implarning muvaffaqiyatli va o'z vaqtida to'planishini ta'minlashdan iborat edi. Kaufmanning o'lkadagi 14 yillik boshqaruv natijalarini sarhisob qiluvchi hisobotida bu yangi organlarning chorizm oldidagi muhim roli qayd etiladi: "Mahalliy-xalq boshqaruvisiz, – deb yozadi Kaufman, – na yig'implarning kelib tushishiga, na yangi ochilgan muassasalarning to'g'ri faoliyat yuritishiga umid qilib bo'lardi".

Bo'lisdagi (Volost) boshqaruv – bo'lis boshqaruvi va saylanganlarning bo'lis qurultoyidan iborat edi. Bo'lis boshqaruvchisi saylovlari ikki darajali bo'lib, dastlab qishloq yig'ini to'planardi va unda 50 uy nomidan bitta vakil saylanardi. So'ng qishloq yig'inlaridan saylangan vakillar rus ma'murlari ishtirokida o'tuvchi bo'lis qurultoyiga to'planardilar. Odatda bular uезд

boshlig'i yoki uning yordamchisi bo'lib, ular qurultoy ishiga aralashmay, tartibni nazorat qilardilar. Qurultoy ish boshlashi oldidan ellikboshilarning bor-yo'qligi tekshirilardi. Qurultoyda saylangan vakillar sonining 2/3 qismidan kami to'plangan taqdirda, bo'lis qurultoyi bekor qilinardi.

Bo'lis qurultoyiga bo'lis boshqaruvchisi, xalq sudyalari va ularga nomzodlarni saylash; quyi ma'muriyatlarning mansabdor shaxslariga maosh belgilash; ko'riklar, yo'llar, xo'jalik qurilmalarining holatini nazorat qilish; suvdan foydalanish va suv ta'minoti ishlarini boshqarish huquqi berilgan edi.

Bo'lis boshqaruvchisi xo'jalik ishlaridan tashqari politsiya funksiyalarini ham bajarardi: bo'lisning ichki osoyishtaligini nazorat qilar, xalq sudida ko'riladigan jinoyatlar bo'yicha surishtiruv ishlarini olib borar, aholi e'tiboriga mustamlaka ma'muriyatining barcha qonun va farmoyishlarini etkazardi.

Jamoat ishlari bo'yicha bo'lis boshqaruvchisi uezd boshlig'i bilan kelishgan holda bo'lis qurultoyini chaqirishi va tarqatishi, unda tartibni qo'riqlashi, ovul va qishloq oqsoqollarining harakatlarini kuzatib borishi mumkin edi.

Agar bo'lis boshqaruvchisining shaxsi biron-bir sababga kura rus ma'muriyatini qanoatlantirmasa, viloyat harbiy gubernatori yangi saylov tayinlashi yoki boshqaruvini o'z ixtiyoriga ko'ra boshqa odam bilan almashtirishi mumkin edi.

Chor ma'muriyati o'zining bu huquqidan xiyla keng foydalanardi. Jumladan, F.K.Girs o'zining bo'lis va qishloq ma'muriyati faoliyati ustidan o'tkazilgan taftish bo'yicha hisobotida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Sirdaryo viloyatidagi 109 bo'lis boshqaruvchisidan uch yil ichida 38 kishi bo'shatilgan bo'lib, bu 35%ni yoki yiliga 13 taga yaqin holatni tashkil qiladi". Bunday ma'lumotlarni Turkistonning boshqa viloyatlari bo'yicha ham keltirish mumkin.

Quyi ma'muriyatlarda ishlovchi amaldorlar ko'pincha o'z xizmat mavqelarini suiiste'mol qilardilar. Ularning poraxo'rlik, qonunga xilof yig'mlar

olish, aholidan yig'ilgan soliqlarni o'zlashtirish, o'ziga yoqmagan kishilardan o'ch olish bilan shug'ullanganidan dalolat beruvchi juda ko'p faktlar ma'lum. Bo'lis boshqaruvchisi va oqsoqollik lavozimlari ko'pda qo'li egri kishilarni o'ziga tortardi. Bo'lis va qishloq ma'muriyatiga saylovlar ko'pincha, ularga o'z nomzodlarini o'tkazishga urinuvchi turli guruhlar o'rtasida keskin kurash bilan o'tardi.

“Bo'lis boshqaruvchisi kursisini egallashga urinish, – deb yozadi F.K.Girs o'zining hisobotida, – bir tomondan xiyla yirik bo'lgan maosh miqdori, ikkinchi tomondan esa unga butun bo'lisda soliq yig'ish huquqi berilganligi bilan izohlanib, u noqonuniy yig'implarni juda oson yig'ib olishi, to'plangan pullarni g'aznaga kech topshirishi va hatto ba'zan ularni yashirib qolishi ham mumkin. Bundan tashqari, bo'lis boshqaruvchisi o'ziga berilgan huquqqa ko'ra (1867 yilgi “Nizom” ning 112§) 3 so'mgacha miqdorda jarima solishi mumkin. Uning bu boradagi faoliyatini, ayniqsa, ko'chmanchi aholi yashovchi joylarda nazorat qilishning mutlaqo iloji yo'q”.²⁰

1867 yilgi “Nizom”ga ko'ra, soliq undirishning yangi tizimi joriy qilingan bo'lib, u aholining mashg'ulot turlari, daromadlari hisob-kitobiga asoslanardi. Ko'chmanchi aholi uchun umumiy o'tov yig'imi joriy qilinib, har bir o'tov uchun 2 rubl 75 tiyin miqdorida belgilandi. O'troq aholi xosilning 1/10 qismiga teng bo'lgan er solig'i – xiroj, savdo solig'i – zakot hamda sug'orish kanallari, yo'llar, ko'priklar, bozorlar va boshqalarni saqlab turish uchun soliq to'lardi. Qishloq jamoalari o'rtasida soliqlarni bo'lis qurultoyi taqsimlardi. Soliqlarning asosiy miqdori yo'qsillar zimmasiga tushardi. Bo'lis boshqaruvchilari va qishloqlardagi soliq yig'uvchilar mohiyat e'tibori bilan soliq to'lashdan ozod etilgan edi.

SHunday qilib, XIX asrning 60-yillari – 80-yillar o'rtalarida boshqaruv apparati chorizm va uning mustamlakachilik siyosati manfaatlarida harakat

²⁰ Тухтаметов Ф.Т. Правовое положение Туркестана в Российской империи (вторая половина XIX века). Монография. Уфа, БашГУ, 1999.

qiluvchi ma'muriy mexanizm va ularga xos bo'lgan organlarning bir-biri bilan yaqin bog'langan asosiy unsurlari tizimidan iborat edi.²¹ Ushbu apparatning o'ziga xos jihati uning haddan ortiq byurokratik markazlashtirilganligi bo'lib, bu uning qo'lida qonun yaratish, farmoyish berish, ijro etish va nazorat qilish funksiyalari jamlanganligida ifodalanadi. SHu bilan birga, boshqaruv apparati funksiyalarining bir qismi rus ma'murlari nazorati ostida faoliyat yuritgan mahalliy hokimiyat institutlari – oqsoqolliklar va bo'lis boshqaruvlariga berilgan edi. Mustamlaka hokimiyati tizimidagi bunday “murosasozlik”ka harbiy vaziyat, barqarorlikka erishish va mustamlakachilik vazifalarini bajarish “yuki”ni engillashtirish zarurati sabab bo'ldi. Turkistonni boshqarish muammosiga bunday taktik yondashuvni imperiyaning boshqa mintaqalarida to'plangan tajriba hamda mintaqani o'z koloniyasiga aylantirish borasidagi maqsadlariga tezroq va muvaffaqiyatliroq erishishga bo'lgan urinish ham taqozo etardi.

²¹ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихи (энг қадимги даврлардан ҳозиргача) // Коллектив монография. Масъул муҳаррир: Д.Зияева. Тошкент, 2012. 79 б.

1.2. Turkiston o'lkasida Boshqaruv Nizomining qabul qilinishi va metropoliya nazoratining kuchaytirilishi.

1886 yilda Turkiston o'lkasini boshqarish haqida Nizom qabul qilindi. "Nizom"ga muvofiq, Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi o'zgartirildi. Jumladan, Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Sirdaryo viloyatining Xo'jand uezdi Samarqand viloyatining tarkibiga kiritildi. Keyinchalik Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand va Xo'jand uездlaridan tashkil topdi.

Farg'ona viloyati hududlarining ichki tuzilishi o'zgarishlarsiz qoldirildi. Sirdaryo viloyatida muqaddam tuzilgan uездlar qatoriga Amudaryo bo'limi qo'shildi. Qurama uezdi Toshkent uezdi deb o'zgartirildi. Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlari "tub" viloyatlar deb ataladigan bo'ldi.

1881 yilda imperiya qo'shinlari tomonidan Axalteka vohasi bosib olinganidan keyin bu erda Kaspiybo'yi harbiy bo'limi tashkil etildi. 1882 yilda bo'lim viloyatga aylantirilib, Kavkaz noibligi tarkibiga kiritildi. Markazi Ashxobod shahri bo'lgan bu viloyat 1899 yili Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga o'tkazildi.²² Kaspiyorti viloyati tarkibiga Ashxobod, Krasnovodsk, Mang'ishloq, Marv va Tejen uездlari kirar edi.²³

SHu tariqa, XIX asrning oxirlariga kelib, Turkiston general-gubernatorligi 5 ta viloyat – Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Kaspiyorti va Ettisuv viloyatlariga bo'lib boshqariladigan yirik mustamlaka o'lka edi.

Hokimiyatning mustamlakachilik tizimining eng yuqori pog'onasida imperator tomonidan tayinlanadigan general-gubernator turar edi. U tashqi siyosiy, ma'muriy, harbiy, sud, xo'jalik ishlarini o'z qo'lida birlashtirgan,

²² Аминов А.М. Торговые сношения Средней Азии с Россией в XVI-XIX вв. – Тошкент, 1952; А.Бабаходжаев Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Тошкент, 1966; Соколов Ю.А. Ташкент, ташкентцы и Россия. – Ташкент, 1965.

²³ Тиллабоев. С. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан, 2008. 59 б.

Turkiston aholisidan soliq yig‘ish miqdorlarini belgilagan, chet elliklarga rus fuqaroligini bergan, siyosiy sabablar bilan xohlagan kishini 5-yil muddatga o‘lkadan chiqarib yuborish, ishlarni ko‘rib chiqish uchun harbiy va harbiy-dala sudlariga oshirish, nafaqat rus sudlari, balki qozilar va biylar sudlari tomonidan chiqarilgan o‘lim jazosi berish to‘g‘risidagi hukmni tasdiqlash huquqiga ega bo‘lgan. U Turkiston xalqlarini harbiy va amaldorlardan iborat byurokratik apparat – Turkiston general-gubernatorligi devoni yordamida boshqargan.

O‘lka boshqaruv tizimining keyingi bo‘g‘ini viloyat harbiy gubernatorlari edi. Ular bir vaqtning o‘zida u yoki bu viloyatga joylashtirilgan qo‘shinning miqdoriga bog‘liq holda komandirlar korpusi yoki diviziya huquqida qo‘shin qo‘mondoni ham hisoblangan. Harbiy gubernatorlarga nafaqat ma‘muriy, balki politsiya va sudga xos vazifalar ham yuklatilgan edi. Ularga mahalliy millatga mansub shaxslarga 100 so‘mdan ortiq bo‘lmagan miqdordagi jarima solish va ularni ma‘muriy tartibda bir oygacha qamab qo‘yish huquqi berilgan. SHuningdek, barcha sud va jazo muassasalari ustidan nazorat o‘rnatish, siyosiy va jinoiy ishlar bo‘yicha hukmlarni tasdiqlash, mustamlaka ma‘muriyatining quyi bo‘g‘inlardagi qonunbuzarliklar ustidan mahalliy aholining ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish vakolati berilgan.

Viloyatlardagi muhim ma‘muriy muassasa harbiy gubernatorlar huzuridagi mahkama hisoblangan. Mahkamalar bo‘limlarni o‘z ichiga olib, ularning soni mustamlaka tartibini o‘rnatish va mustahkamlash darajasiga qarab oshib borgan. Masalan, dastlabki davrlarda boshqaruv, xo‘jalik, sud va hisob-kitob sho‘balaridan iborat 3-4 ta bo‘lim faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, XIX asrning 80-yillariga kelib qurilish, chegaralarni belgilash, qishloq-vrachlik, veterinariya, davlat mulkini boshqarishi, er va soliq ishlari, o‘rmon sho‘balar, shuningdek, har bir viloyat mahkamasi huzurida bosmaxona va statistika qo‘mitalari ochiladi.

Viloyat mahkamalarida xo‘jalik bo‘limlari asosiy rol o‘ynab, ular zimmasiga quyidagi muhim vazifalar yuklangan: o‘troq va ko‘chmanchi

aholining er ishlarini “tartibga solish”, vaqf ishlari, mahalliy aholining suvdan foydalanish va soliq to‘lash ishlarini boshqarish, davlat muassasalarini pul majburiyatlari va ularni idora qilish sarf-xarajatlari smetasini tuzish, bojxona to‘lovlarini yig‘ish va o‘lkaning xomashyo resurslarini qazib olish uchun ruxsatnomalar berish, savdo bitimlari va pudratlarini rasmiylashtirish.

Mustamlaka hukumatining mahalliy aholi hayotining barcha sohalariga o‘zboshimchalik bilan aralashuvi va har tomonlama bo‘ysundirish tamoyili boshqaruvning quyi organlari tuzilishi va vazifalarini ko‘rib chiqish jarayonida yanada aniq-ravshan namoyon bo‘ladi. Bu, birinchi navbatda, uezd boshliqlari rahbarligidagi uezd ma‘muriyatiga tegishli. Uezd boshliqlari, odatda shahar oqsoqoli, davlat muassasasi boshlig‘i, er-soliq xizmati raisi, politsiya boshlig‘i, uездda joylashtirilgan qo‘shin qo‘mondoni kabi bir qancha lavozimlarni egallagan.

Tizimning bu tarmog‘i zimmasiga volostlar va qishloqlardagi tartib-intizomni nazorat qilish, soliqlarni hisob-kitob qilish, er va suv haqidagi doimiy janjallarni hal etish, mahalliy ma‘muriy va sud organlariga saylovlar o‘tkazish ishlarining asosiy og‘irligi yuklatilgan edi.

Amalda bu tarmoq eng layoqatsiz, shaxsiy g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi bo‘lib chiqdi. Ularning faoliyatini kuchaytirish, qayta tashkil etish kun tartibiga qayta-qayta qo‘yilib turar edi. Bunda asosiy e‘tibor uezd ma‘muriyatini politsiya va jazo vakolatlari bilan kuchaytirish, xalq qahru g‘azabiga uchragan amaldorlarni o‘z vaqtida qo‘shni uездlar va viloyatlarga o‘tkazish, ularning juda haddan oshganlarini javobgarlikka tortish kabi choralar qo‘llashga qaratilgan. Manbalarda qayd etilishicha, birgina 1883 yilda Farg‘ona viloyatida mustamlaka amaldorlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan 238 marta tergov olib borilgan, 106 holat bo‘yicha tekshirish o‘tkazilgan, lavozimdan foydalanib, jinoyat sodir etgani uchun 18 kishi sudga berilgan, qolgan ishlar harbiy gubernator buyrug‘i bilan to‘xtatib qo‘yilgan.

Mahalliy aholiga qonunga xilof ravishda og‘ir soliqlar solish amaldorlar axloqi nuqtayi nazaridan odatiy hodisa edi. Yo‘llar, ko‘priklar va boshqa inshootlarni qurish va ta‘mirlash uchun aholidan yig‘ilgan mablag‘larni talon-taroj qilish, tamagirlik hamda volost va qishloqlar oqsoqollari lavozimini sotish, vaqf erlari va mulklari bilan bog‘liq turli qing‘ir ishlar va boshqalar juda avj olgan edi.

Shaharlar dahalarga bo‘linib, uy sohiblarining yig‘inlari saylagan saylovchilarning qurultoyida saylangan oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Shahar daxalarining oqsoqollari harbiy gubernator tomonidan tayinlanadigan bosh oqsoqolga bo‘ysunganlar. Bosh oqsoqolga quyi politsiya xizmatchilari – mirshablar, shahar sug‘orish tizimining boshliqlari – miroblar hamda sudyalari – qozilar va biylar ham tobe bo‘lganlar. Ularning barchasiga alohida to‘plangan mablag‘ hisobidan maosh to‘langan. Shaharlarning evropalik aholi yashaydigan qismlarida ma‘muriyat harbiy gubernatorlar tomonidan tayinlangan.

Turkiston general-gubernatorligining siyosiy va ma‘muriy markazi bo‘lgan Toshkent o‘ziga xos boshqaruv tizimiga ega edi. 1868 yil fevralda eski shaharni boshqarish uchun maxsus idora – shahar boshqarmasi tuziladi va unga Toshkentdagi xar bir daxadan 1 tadan 4 ta oqsoqol, 4 ta qozi, 4 ta arik oqsoqol kiritiladi.²⁴ Toshkentni eski shahar qismini boshqarish uchun ijtimoiy-xo‘jalik boshqarmasi tuzilib, unga 18 ta a‘zo kiritiladi. Lekin mahalliy aholining shahar boshqarmasi ustidan tez-tez norozilik bildirib turishlari uning faoliyati qoniqarli bo‘lmaganligidan dalolat beradi. Chunonchi, 1869 yil avgust oyida o‘lka general-gubernatorining uyi oldida to‘plangan katta olomon boshqarma tomonidan g‘ayri-qonuniy soliqlar ko‘payib ketganligidan arz qilgan. Mazkur shikoyatni o‘rganish uchun tuzilgan komissiya uning asosli ekanligini tasdiqlash bilan birga, eng asosiy aybdor shahar boshlig‘i ekanligini aniqlagan.

1870 yilda shaharning ruslar yashaydigan yangi qismi uchun ham 9 kishidan iborat alohida ijtimoiy-xo‘jalik boshqarmasi tuziladi. Bu boshqarmaga

²⁴ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. 99 б

shahar boshlig'i rais edi. Boshqarma rus aholisi o'rtasida soliq va yig'implarni taqsimlash hamda to'plash bilan shug'ullangan. Toshkentning eski va yangi shahar boshqarmalaridagi barcha ishlar shahar boshlig'i va ma'muriyatning farmoyishi hamda ruxsati bilangina bajarilar, ular mustaqil ravishda biror qaror yoki tadbirni amalga oshira olmas edilar.

Eski shahar boshqarmasiga kiritilgan mahalliy vakillar xo'jalik ishlarini olib borish bo'yicha yangi tartib-qoidalar rus tilida bo'lganligi sababli ulardan mutlaqo bexabar edilar. Yangi shahar xo'jalik boshqarmasi a'zolari esa fakat ruslardan iborat bo'lib, ular ham mahalliy tartiblar va aholining urf-odatlaridan umuman bexabar bo'lganlar. Eski shahardagi boshqarma a'zolari, xususan, oqsoqollar, qozilar maosh bilan ta'minlanmaganligi, ularga mahalliy aholi tomonidan tushgan to'lovlarning ma'lum qismi berilishi birinchidan xalqqa og'ir yuk bo'lsa, ikkinchidan turli suiste'molliklarga olib kelar edi. Aholisi va hududi yil sayin ortib, ehtiyojlari ham o'sib borgan Toshkent shahrida ijtimoiy-xo'jalik masalalarini xalq etilish darajasi talabga mutlaqo javob bermas edi.

Toshkent shahar hokimi ma'muriyat tomonidan tayinlangan va u, odatda Toshkent shahri boshlig'i hisoblangan. Bu xalq shahardagi o'z-o'zini boshqaruv amalda mustamlaka ma'muriyatiga bo'ysunganligi va uning to'liq nazoratida bo'lishini ta'minlab, aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosatining mohiyatini yaqqol ko'rsatib turar edi.

Rossiya imperiyasining markaziy hududlarida shaharlarni boshqarish bo'yicha yangi tartiblar kiritilishi munosabati bilan 1877 yil iyunda Toshkentda ham shunday harakatlar boshlanib, shahar dumasi tashkil etiladi. Yangi "Shahar nizomi"ga muvofiq, 1877 yilda butun shahar xo'jaligini boshqarish Toshkentning har ikkala qismini yalpi aholisi tomonidan saylanadigan shahar Dumasi qo'liga o'tdi.

Duma a'zolariga saylovlarda ishtirok etish huquqidan ko'chmas mulk (shahar foydasiga soliq yig'iladigan vaqflar ham bunga kirgan) sohibi bo'lgan,

25 yoshdan oshgan, Rossiya fuqaroligiga ega aholigina foydalangan. Bu talablarga javob bermagan aholi toifasi saylovlarga qo'yilmagan.

Saylovchilar mulkiy holatiga ko'ra tabaqalarga bo'lingan. Har bir tabaqa uni tashkil etgan kishilar soni qanchaligidan qat'iy nazar bir xil miqdordagi a'zolari – 24 kishini saylagan. Masalan, birinchi chaqiriq Duma tarkibiga birinchi toifali a'zo sifatida 24 kishi saylangan. Ulardan faqat 6 nafari mahalliy aholi vakillari edi. Ikkinchi toifali a'zo sifatida – 8, uchinchi toifali a'zo qilib – 7 nafar mahalliy millat kishilari saylangan. SHunday qilib, 80 ming kishidan iborat bo'lgan mahalliy aholi 21 nomzodni saylash huquqiga ega bo'lgan. 1877 yildagi ma'lumotlarga ko'ra 3921 kishini tashkil etgan rus aholisi esa Duma a'zolariga 48 nomzodni saylagan. SHu tariqa Toshkent Dumasi a'zolarining $\frac{1}{3}$ qismi shaharning “eski” qismida yashovchi mahalliy aholi vakillaridan, $\frac{2}{3}$ qismi “yangi” qismda yashovchi ruslardan saylangan. YA'ni, Dumaning 72 ta a'zosidan $\frac{1}{3}$ kismigina mahalliy aholi vakillari edi.²⁵

Dumaning ijroiya organi – shahar Mahkamasiga vakillar saylashda ham huddi shunday tengsizlikka yo'l qo'yilgan. Mahkamaning 6 ta a'zosidan faqat 1 kishigina mahalliy aholi vakili edi. Duma – shahar boshqarmasining farmoyish beruvchi organi, mahkama esa ijroiya organi edi.

Shahar dumasining mablag'i uncha katta emas edi. Chunki shahar daromadi to'g'ridan-to'g'ri o'lka byudjetiga qo'shilib ketgan edi, shu sababli дума mablag'lari asosan ko'chmas mulkdan kelgan tushumlar, do'konlar, karvonsaroylar, foytun xaydovchilaridan tushadigan soliqlardan, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanish huquqini olish uchun to'lanadigan to'lovlardan iborat edi. Duma o'lka ma'muriyati nazorati ostida ish olib borar, uning qarorlari o'lka general-gubernatori tasdiqlagandan keyingina kuchga kirar edi.

²⁵ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихи (энг қадимги даврлардан ҳозиргача) // Коллектив монография. Масъул муҳаррир: Д.Зияева. Тошкент, 2012. 45 б.

1877 – 1914 yillarda davrida shahar dumasining 1280 majlisi bo‘lib o‘tgan. Duma faoliyati davomida shahar byudjeti, shahardagi suv quvurlari (vodoprovod), elektr tarmog‘i, tramvay, bog‘dorchilik va taftish kabi masalalar ko‘rilgan va muhokama qilingan. Shahar byudjetida defitsit, ya‘ni taqchillik yil sayin o‘tib borgan va 1909 yilda 287 ming rublga etgan.

Byudjetning asosiy qismi shahar boshqarmasi va politsiyasini saqlashga, mustamlakachilar yashovchi yangi shahar obodonchiligi, maorifi va sog‘likni saqlash sohalariga sarflangan. Mahalliy aholi yashaydigan eski shaharga esa byudjetning 1/3 kismini sarflash belgilangan, xolos. Ammo amalda shu ham sarflanmagan.

Duma faoliyati mahalliy aholi vakillarini qoniqtirmaganligi sababli ular doimiy o‘z noroziliklarini bildirib kelganlar. Chunonchi, 1905 – 1906 yillarda tub aholi vakillari “eski”shahar daromadi “yangi” shahar daromadidan ko‘pligini, bu daromaddan mahalliy aholi hech qanday foyda ko‘rmayotganligi va uni faqatgina “yangi” shahar obodonchiligi uchun sarf qilinayotganligini ta‘kidlab, Duma tarkibiga mahalliy millat vakillari bilan “yangi” shahar vakillari a‘zolarini teng miqdorda saylanishini talab qilganlar.

Darhaqiqat, evropaliklar yashaydigan yangi shaharda suv ta‘minoti, ko‘kalamzorlashtirish, yoritish tarmog‘i yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, faqatgina yoritkichlar uchun bir yilda 30-40 ming rubl sarflangan. 1908 yilda Toshkentda ilk elektrostansiya qurilgach, yoritish vositalari asta-sekin elektr tarmog‘i bilan almashtirila boshlangan, eski, kerosinli yoritkichlar eski shaharga berilgan. Elektrostansiya yangi shaharning markaziy ko‘chalari hamda o‘lka ma‘muriyati xonadonini yoritishga xizmat qilgan.

Boshqaruvning eng quyi darajasi – volost va qishloq boshqaruvi mahalliy aholi vakillariga topshirilgan. Volostlar oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. Oqsoqol volostning tinchligini nazorat qilgan; xalq sudi qaramog‘idagi jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni o‘tkazgan, 3 so‘mgacha jarima solgan. Agar volost oqsoqoli rus ma‘muriyatini qoniqtirmasa, viloyat harbiy

gubernatori yangidan saylovlar o'tkazish yoki uning o'rniga vaqtincha boshqa kishini tayinlashi mumkin edi. O'lka ma'muriyati bu huquqdan juda keng foydalangan.

O'lkada 1882 yilda taftish ishlarini olib borgan F.K.Girsning hisobotida qayd etilishicha, uch yil mobaynida Sirdaryo viloyatidagi volost oqsoqollaridan 38 kishi (oqsoqollarning 35%) o'z vazifasidan ozod qilingan. Bunday hodisalar boshqa viloyatlarda ham sodir bo'lib turar edi.²⁶

Volost boshqaruvchisini saylash ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Dastlab har ellik xonadon egalari ichidan bir nafar kishi saylab olingan. Keyin saylangan kishilar rus ma'muriyati ishtirokidagi volost yig'inida ishtirok etganlar. Volost yig'ini vakolatiga volost boshqarmasi mudirini, qozilik va biylik an'anaviy sudyalarini saylash, quyi ma'muriyat mansabdor shaxslarining pullik ta'minotini aniqlash, suvdan foydalanish va suv ta'minoti masalalari, yo'llar, ko'priklar, xo'jalik qurilishlari va boshqalar ustidan nazorat o'rnatish masalalari bilan shug'ullanish kirgan.

Volost boshqaruvchisi xo'jalik faoliyatidan tashqari volostdagi osoyishtalikni nazorat qilgan, dastlabki jinoiy tergovlarni amalga oshirgan, rus ma'muriyatining barcha ko'rsatmalari va farmoyishlarini xalqqa etkazish kabi alohida mirshablik ishlari bilan shug'ullangan. Agar volost boshqaruvchisining shaxsi ma'lum bir sabablar yuzasidan rus ma'muriyati vakillarini qoniqtirmasa, viloyat harbiy gubernatori Turkiston general-gubernatorining roziligi bilan yangi saylovlarni belgilash yoki o'zining xohishiga ko'ra uni boshqa nomzodga vaqtincha almashtirish huquqiga ega bo'lgan.

O'lkada mahalliy aholi bilan bir qatorda imperiya hukumati ruxsati bilan Rossiyaning markaziy guberniyalaridan ko'chib kelgan rus aholisining soni yil sayin ortib borgan. Ularning ko'chib kelishi va joylashishi hamda hayotini tashkil etishda Ko'chirish boshqarmasi (Pereselencheskoe upravlenie) katta rol

²⁶ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. 45 б.

o‘ynadi. Ushbu boshqarma Rossiyaning markaziy hududlaridan aholini ko‘chirib keltirish, ular bilan bog‘liq ma‘lumotlarni to‘plab borish, ko‘chib kelganlarni mahalliy aholiga tegishli erlarga joylashtirish vazifalarini bajargan. Rus aholisi uchun shaharlarda alohida ma‘muriyat tashkil etilgan. Ular uchun shahar hududida yangi qismlar, shahardan tashqarida esa alohida qishloqlar – rus manzilgohlari tashkil qilingan.

Boshqaruv Nizomlari va metropoliya nazoratining kuchaytirilishi. O‘lkani boshqarish bo‘yicha ilk Nizomlarni ishlab chiqishda “harbiy vaziyat” xolati asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Nizomlar xonliklarning yangidan-yangi hududlarini bosib olinishi jarayonida ishlab chiqilganligi bois “muvaqqat” xarakterga ega edi. Masalan, “Sirdaryo va Ettisuv viloyatlarini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” (1867) “tajriba tariqasida” uch yil muddatga joriy qilingan bo‘lib, 20 yil davomida amal qildi. 1886 yilgacha har bir viloyat uchun alohida Nizom – “Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidolari” (1868), “Amudaryo bo‘limini boshqarishning vaqtinchalik qoidolari” (1874) va “Farg‘ona viloyatini boshqarish bo‘yicha vaqtinchalik Nizom” (1876) amal qilib keldi.²⁷

Mazkur Nizomlarda “harbiy va ma‘muriy hokimiyatning ajralmasligi va ularning bir erda birlashtirilishi”, “xalqni harbiy yo‘l bilan” itoatda saqlab turish eng muhim mezon edi.

1886 yil 12 iyunda rasman tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom” Turkiston general-gubernatorligi hududini boshqarish uchun yagona qonuniy hujjat vazifasini bajarib, ayrim o‘zgarishlar bilan 1917 yilgacha amalda bo‘ldi.

Ushbu “Nizom” to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, Turkiston general-gubernatorligidagi ma‘muriy, sud, erga egalik munosabatlari va soliq tizimini belgilab bergan. Bu hujjat o‘lkadagi Rossiya boshqaruvini sezilarli darajada

²⁷ Қаранг: Аминов А.М. Торговые сношения Средней Азии с Россией в XVI-XIX вв. – Тошкент, 1952; А.Бабаходжаев Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Тошкент, 1966; Соколов Ю.А. Ташкент, ташкентцы и Россия. – Ташкент, 1965.

o'zgartirish bilan birga, uzoq vaqtlargacha Turkistonning imperiya tarkibidagi holatini belgilab bergan edi.

1886 yilgi "Nizom"da o'lka boshqaruvi bilan bog'liq qator o'zgarishlar aks etgan bo'lsa-da, unda xarbiylashtirilgan boshqaruvining asosiy tamoyillari saqlanib qolindi. Shu bilan birga, mahalliy ma'muriyatning mahkama yo'nalishi, sudlov tizimidagi huquqlarini chegaralanib, hokimiyatning politsiya va jazoga tortish funksiyalari kengaytirildi.

Yangi hujjatga binoan o'lka boshqaruvida yangi organ – Turkiston general-gubernatori Kengashi tashkil etildi. Unga viloyatlarning xarbiy gubernatorlari, Devonxona boshqaruvchisi, Turkiston xarbiy Okrug (THO) shtabining boshlig'i, G'azna va Nazorat palatalarining boshqaruvchilari majburiy a'zo edilar. Kengashga dastlab general-gubernator, 1900 yildan boshlab uning yordamchisi raislik qildi.

Kengashga boshqaruv amaliyoti bilan bog'liq masalalar yuzasidan qonunlar taklif etish huquqi berildi. Shu bilan birga, u er-soliq qurilishi, fuqarolarning majburiyatlari bilan bog'liq masalalarni ham ko'rib chiqar edi.

General-gubernatorlar huzurida boshqaruv Kengashining tuzilganligi general-gubernatorning yakka hokim sifatidagi vakolatlarini ancha chekladi.

1886 yilda qabul qilingan "Nizom" ga asosan Turkiston general-gubernatorining tashqi siyosat masalalaridagi vakolatlari ham cheklandi. Buxoroda Tashqi ishlar vazirligiga tegishli Rossiya imperatorining siyosiy agentligi ochildi. Siyosiy agent Rossiya imperiyasining Buxorodagi rasmiy vakili sifatida faoliyat yuritib, unga qator vakolatlar berildi.

1899 yildan boshlab Turkistondagi barcha siyosiy masalalar Tashqi ishlar vazirligining nazorati ostiga olindi. SHunday bo'lsa-da, Kaspiyorti viloyati boshlig'i Eron bilan chegara munosabatlarini mustaqil hal qilish huquqini, Amudaryo bo'limi boshlig'i esa Xiva xoni huzuridagi diplomatik vakil huquqini saqlab qoldi.

General-gubernatorlik o'zida markaziy hukumat tashkiloti va mintaqaviy ma'muriyat faoliyati doirasini birlashtirgan, tashqi aloqalar, siyosiy, harbiy-tashkiliy, sud, moliyaviy, iqtisodiy masalalarni boshqarishga oid vazifalarni bajaruvchi anchagina murakkab ma'muriy tuzilma edi. 1886 yilgi "Nizom"ning joriy qilinishi bilan mustamlaka ma'muriyatining iqtisod sohasidagi vakolatlarining asta-sekin cheklandi va juda masalalar o'lka ma'muriyati tasarrufidan chiqarilib, imperiyaning tegishli vazirliklari va boshqarmalari ixtiyoriga o'tkazildi. Jumladan, yangi Nizomga ko'ra, sud, moliya, ta'lim, pochta-telegraf kabi qator sohalar to'g'ridan-to'g'ri imperiya boshqaruvining markaziy bo'g'inlariga bo'ysundirildi. Qolgan tashkilotlar markaziy boshqaruv organlariga general-gubernator vositachiligida bog'landi. 1886 yildan keyin tuzilgan muassasalar esa, bevosita imperiya poytaxtidagi vazirliklarga bo'ysundirildi. Bu esa, o'z navbatida, general-gubernator vakolatlarining cheklanishiga, natijada o'z tashkilotining manfaatlarini ko'zlagan ba'zi bir muassasalarning general-gubernatorlik ma'muriyati nuqtai nazarini e'tiborga olmasdan ish tutishlariga sabab bo'ldi.

1916 yil avgustda general-gubernator A.N.Kuropatkin (1916 – 1917) boshchiligida Turkiston boshqaruvi Nizomiga oid islohotlarning oxirgi loyihasi ishlab chiqishga kirishildi. Tayyorlanayotgan yangi "Nizom"da asosiy diqqat-e'tibor ma'muriy masalalarga, shuningdek, viloyat, uezd va ayniqsa, qishloq boshqaruvini qayta tashkil etishga qaratilgan edi. Yangi Nizom loyihasida hokimiyatni markazlashtirish, ayniqsa, viloyat miqyosida boshqaruvni markazlashtirish, mahalliy aholi nazarida o'lka ma'muriyati nufuzini oshirish nazarda tutilgan edi. Mahalliy boshqaruv organlarida politsiya xizmatini kuchaytirish, har bir uezdda otliq politsiya xizmatchisini tayinlash, uezd boshlig'ining politsiya xizmati bo'yicha yordamchisi lavozimini ta'sis etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, quyi boshqaruv lavozimlariga mahalliy aholi birga, rus aholisi orasidan ham amaldorlar saylanishi ko'zda tutilgan. Uzoq munozaralardan keyin mahalliy

ma'muriyatning saylanish tamoyilini saqlab qolgan holda "boshqaruv ishiga mahalliy millat vakillari"ning aralashuvini keskin cheklash haqida qat'iy kelishib olindi.

Mazkur Nizom loyihasi mohiyatan inqiroz arafasida turgan imperiya hukumatining Turkiston aholisi ustidan nazoratini kuchaytirishga qaratilgan edi.

SHu tariqa, Turkiston general-gubernatorligida o'rnatilgan harbiylashtirilgan mustamlaka boshqaruv tizimi o'lka aholisining Rossiya imperiyasiga to'liq qaramligini ta'minladi. Asrlar davomida shakllanib kelgan mustaqil davlatchilik barham topdi, mahalliy aholi vakillari boshqaruvning eng quyi tizimida soliq to'plash, ma'muriyat farmonlarini xalqqa etkazish kabi vazifalar bilan cheklandi, xolos. Ammo mustabid hukumat bu bilan qanoatlanmas, mahalliy aholi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish, uning huquqlarini yanada cheklash, mustamlakachilik iskanjasini yanada qattiqroq tortish mustamlakachilar uchun doimo kun tartibidagi muhim masala bo'lib turar edi.

II.BOB. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi faoliyati

II.1. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasining tashkil etilishi

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi natijasida o'lkada, metropoliyaning davlat andozasidagi kolonial boshqaruv tizimi o'rnatildi. Natijada, Imperiyaning chekka hududi va tashqi siyosiy vaziyat degan bahonada Turkiston o'lkasida boshqaruv to'raligicha harbiy ma'murlar tomonidan olib boriladigan bo'ldi. Turkiston general-gubernatorligi deb atalgan boshqaruv usuli imperiyaning ichki hududlari (guberniyalari)dagi boshqaruv usuli kabi joriy etilgan va amalda bo'lgan huquqiy me'yorlarga asoslangan edi.

1866 yilda Sirdaryo chizig'ining bosib olingan hududlar bilan qo'shilishi natijasida tashkil etilgan Turkiston viloyatida boshqaruv ikki yo'nalishda: 1. Xarbiy. 2. Xalq boshqaruvi tizimida olib borilishi belgilanganligi sababli tarixda Xarbiy xalq boshqaruvi deb atala boshlangan. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga 1867 – 1917 yillar oralig'idagi hukmronlik qilgan yillarida boshqaruvning shunday nom bilan atalishi tarixiy manbalarda aniq ko'rsatib o'tilgan. YOzma manbalarning guvohlik berishicha, imperiya ma'murlari rejalariga binoan bosib olingan hududlarda mahalliy aholini boshqarish vazifasi tajriba sinov asosida Turkiston viloyat gubernatorining devonxonasi (kanselyariyasi) zimmasiga yuklatilgan edi.

Devonxonaning mahalliy aholini itoatda saqlab turish borasidagi asosiy majburiyati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etilishida viloyatda asosiy ijro organi vazifasini bajarish bo'lib, uning (viloyat harbiy gubernatorining mahalliy aholini boshqarishga oid olib boradigan har qanday yozishmalarining devonxona tomonidan rasmiylashtirish jarayonlarini devonxona leksikonida ishlab chiqarish – deloproizvodstvo deb ataladi) boshqaruv jarayonlari to'raligicha umumimperiya kanselyariyalari uchun belgilangan huquqiy me'yorlarga tayangan holda nizomlar asosida olib borilishi belgilab qo'yilgan. Qonuniy hujjatlarning talablariga binoan

devonxona tomonidan ro'yxatga olingan har qanday kirish va chiqish hujjatlari rasmiy maqom (status)ga ega bo'lgan.

Turkiston Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olingach kanselyariya, ya'ni lotincha (cancellarius – xat bilan ish yurituvchi), (cancellorum – to'siq, reshlyotka) so'zlaridan kelib chiqib to'siq ortida yozma ish yuritiladigan joy degan ma'noni anglatadigan idora 1867 yilning 15 iyulidan o'z faoliyatini olib bora boshladi.²⁸ Rossiya davlatchiligi tarixini o'rganish asosida aniqlanishicha, general-gubernatorlik boshqaruv tizimi Rossiyada XVIII asrdan joriy etilgan. Turkiston general-gubernatorligi esa imperiyada tashkil etilgan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan ma'muriy byurokratik amaldorlar uyushmasi hisoblangan. Barcha guberniyalarda general-gubernatorlarga kanselyariyalar birkirilgan bo'lib, manbalarda kanselyariyalarning qaysi general-gubernatorga tegishli ekanligi ko'rsatilgan.

Nizomlarda kanselyariyalarga general-gubernatorlarning rasmiy yozishmalarini olib boradigan ma'muriy idora, deb izoh berilgan. Rossiya boshqaruv idoralarining tarixiga oid mavjud manbalarning guvohlik berishicha, devonxonalar (kanselyariyalar) biror bir rasmiy hukmdorga tegishli bo'lgani uchun ular rasmiy davlat idorasi deb hisoblanmagan. Imperiya yuqori davlat idoralari bu qoidadan alohida ajralib turadi, ularning devonxonalari davlat idorasi maqomida ish yuritir va ularning e'lon qilgan buyruq va hujjatlari quyi bosqichdagi idora devonxonalari uchun majburiy sanalgan.

Umumiy joriy etilgan tartiblarga asosan devonxonalar hukmdorning faqatgina yuqori boshqaruv organlaridan kelgan yo'riqnoma – buyruqlariga javob xatlarini tayyorlangan va hukmdorning ichki boshqaruvga oid bo'lgan hujjatlari – yozuv ishlarini olib borgan.

²⁸ Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Т., Электро-печатная А.О. Порцева, 1912. 49 с.

Rossiyada devonxonalarning ish yuritish tarixi imperiya davlat idoralari, xususan, Rossiya imperatorlari devonxonasi (kanselyariya)ning bo'limlar va stollarga ajratilgan holdagi faoliyati, shuningdek, o'sha davrda parallel faoliyat olib borgan Hukumat Senati va Davlat Kengashi Kanselyariyalarining, Geraldia departamenti va boshqa davlat tashkilotlari devonxonalarning ish yuritish va yozishmalar olib borish tajribasiga tayangan holda olib borganligi namoyon bo'ladi.

Turkiston general-gubernatori devonxonasi (kanselyariya) o'zining ish yuritish faoliyatini Rossiya hukumati senatining qarorlariga asoslanib olib borgan.

Shuningdek, 1810 – 1917 yillar davomida faoliyat olib borgan Rossiya imperiyasi Davlat Kengashi huzuridagi davlat devonxonasi (kanselyariya)ning bo'limlariga, xususan, qonun yaratuvchilik, harbiy, fuqarolik ishi, davlat iqtisodiyoti, qonunlar to'plamini yaratish, yangilab borish kabi bo'limlari davlat kengashining to'rt bo'limi faoliyatiga mos kelganligi va Turkiston general-gubernatorligi devonxonasida ham xuddi shunday tartibdagi bo'limlar tashkil etilishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Rossiya imperiyasi markaziy davlat idoralari Turkiston o'lkasining o'ziga xos xususiyatlari bilan mutlaqo hisoblashmasdan markazdagi boshqaruv tartiblarini to'g'ridan-to'g'ri joriy etishi o'lkadagi boshqaruvning kolonial xarakterda ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi (kanselyariya) arxiv hujjatlarining o'rganilishi natijasida devonxona ish yuritish jarayonlarida quyidagi:

- 1) bo'limlarga bo'linish tartibi Rossiya imperatorlarining devonxonalari (kanselyariya)dan;
 - 2) bo'limlarning stollarga ajratilishi – hukumat senati devonxonasi (kanselyariya)dan;
-

3) ish yuritish hujjatlarini tayyorlashning stollardan bo‘limlarga o‘tkazilishi va ularning maxsus komissiyalardan eshitilib qonun holatiga keltirish tartibi Davlat Kengashi devonxonasining ish yuritish usullaridan keng foydalanilganligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Devonxonaning asosiy faoliyati general-gubernatorlik boshqaruv tizimining Rossiya imperiyasi devonxonalar faoliyatiga taalluqli bo‘lgan qonuniy hujjatlar orqali boshqarish tartibini olib borishdan iborat bo‘lgan. Devonxona hujjatlari soni – tarkibi jihatdan o‘lkadagi boshqa ma’muriy idoralarning hujjatlaridan ko‘p va ular O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining “I-1” fondida saqlanmoqda.

Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi ish yuritish hujjatlarini o‘rganish natijasida ularni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- ✓ eslatma (pamyatka) – devonxona bo‘limlari o‘zaro yozishmalari, viloyat harbiy gubernatorlari devonxonalari bilan yozishmalarida hujjatlarning yozishmalar uchun umumlashtirilgan eslatmalari;
- ✓ reskript – davlat hukmdorining mansabdorlarga ijro uchun bergan hujjat;
- ✓ ko‘rsatma (predpisanie) – yuqori rahbar tashkilot va rahbarlarning quyi ijrochilarga ko‘rsatmalari;
- ✓ promemoriya – teng darajada bo‘lgan tashkilot va rahbarlar o‘rtasidagi yozishmalar;
- ✓ bildirishnoma (raport va bildirgi) – aniq masala yuzasidan quyi tashkilot va shaxslarning yuqori tashkilotlar va rahbarlarga taqdim etilgan ma’lumotlari;
- ✓ memoriya – yuqori tashkilot yoki rahbarga ko‘rib chiqish, tasdiqlash uchun taqdim etilayotgan hujjatlardan ko‘chirma yoki yozma ma’lumoti.

Yuqorida qayd etilgan ish yuritish turlari general-gubernatorlik devonxonasi tomonidan tarixiy manba sifatida saqlangan yozma hujjatlarni quyidagi uch guruhga mansub deb hisoblashga imkoniyat beradi: Ular

1. Devonxonaning yuqori imperiya tashkilotlari: Rossiya imperiyasining harbiy vazirligi Osiyo qismi; hukumat senati va Geraldia departamenti, ichki ishlar vazirligi devonxonasi (kanselyariya); er egaligi, davlat mulklari va h.k. tashkilotlar bilan yozishmalari.

2. Ichki-ish yuritish hujjatlari: alohida masalalar yuzasidan ma'ruzalar tayyorlash, viloyat harbiy general-gubernatorlari nomiga so'rovnoma va javoblar; mazmuni jihatdan hujjatlarning boshqa bo'limlarga berilishi; o'lkaning boshqa ma'muriy idoralari bilan yozishmalari, dala amaliyoti devonxonasi (putevaya kanselyariya) va h.k.;

3. Turkiston general-gubernatori va devonxona boshlig'i nomiga yuborilgan shikoyat va iltimosnomalar.

Ish yuritish hujjatlarini o'rganish asosida ichki hujjatlar yuritish usulini quyidagi uch bosqichda amalga oshirilgan deb belgilab olish mumkin:

1) hujjatlar devonxonaga taqdim etilganidan so'ng ular ro'yxatga olingan va mazmuni jihatidan qaysi stol – bo'limga taqdim etishi raqamlangan;

2) ularga ish yuritish boshlanganligi sanasi qo'yilgan (ish yuritish tugatilgach tugallanish sanasi ham yozib qo'yilgan);

3) maxsus jurnalda hujjatlarning nomi va ijro uchun qaysi ish yurituvchiga berilganligi yozma qayd etilgan.

Turkiston general-gubernatori devonxonasi (kanselyariya) qachondano'z faoliyatini boshlaganligiga aniqlik kiritish uchun arxiv ma'lumotlariga murojaat qilish mumkin. 1867 yilning 15 iyulida Rossiya imperatorining № 44844 raqamli buyrug'iga asosan Turkiston general-gubernatori lavozimiga tayinlangan general-ad'yutant K.P. fon Kaufman shu kunning o'zida "Harbiy vazirlik" vakili polkovnik A.K. Geynsni Turkiston general-gubernatori devonxonasi (kanselyariya) boshqaruvchisi lavozimiga tayinlagan va undan devonxona ish yuritish jarayonlarini boshlab yuborishini talab qilgan. ²⁹Ushbu farmoyish Turkiston general-gubernatorligining rasmiy №1 buyrug'i hisoblanadi. SHuni

²⁹ Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Т.: Академия, 2002. 36 б.

ta'kidlash kerakki, Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman 1862 – 1865 yillarda Rossiya imperiyasi Harbiy vazirligi devonxonasi (kanselyariya) boshlig'i lavozimida ishlaganligi sababli devonxona faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi "I-1" fondining №33 ro'yxatida devonxona (kanselyariya) xizmatchilari bo'lish uchun quyidagicha xizmat so'rovnomasi taqdim etilishi va unga binoan:

- 1) qanday lavozimda bo'lishi, ismi sharifi, diniy e'tiqodi, xizmat belgilari va maoshi to'g'risidagi ma'lumoti;
- 2) tabaqaviy kelib chiqishi (qanday mulk egasi, unvoniga egaligi);
- 3) qanday mulk egasi ekani to'g'risidagi ma'lumot;
- 4) qaerda, qanday tarbiya, bilim olgan, qanday lavozimlarda ishlagan, qanday rag'batlantirishlar yoki ogohlantirishlarga ega ekanligi;
- 5) qaysi harbiy yurishlarda ishtirok etgan;
- 6) qanday jazoga tortilgan;
- 7) fuqarolik ishi va mansablarga loyiqligi;
- 8) oilaviy ahvoli, oila tarkibi kabi ma'lumotlarni maxsus anketa-so'rovnomada berishlari shart bo'lgan.

Turkiston viloyatini boshqarish bo'yicha Nizomga binoan devonxona (kanselyariya) besh bo'limdan: 1) Harbiy – Xalq boshqaruvining shaxsiy tarkibi; 2) Xo'jalik ishlari; 3) Soliq va tushumlar; 4) Statistika; 5) Sud ishlari bo'limlaridan iborat dastlabki tarkibda tuzilgan. Keyinchalik 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi bo'limlar tarkibiga o'zgartirishlar kiritildi.

Mazkur Nizomda kolonial boshqaruvga xos bo'lgan barcha talablar devonxona (kanselyariya) tomonidan oshirilishi bo'lgan vazifalar aniq ko'rsatilgan. Masalan: 1) devonxona harbiy xalq boshqaruvidagi barcha tashkilot va mansabdorlarning moddiy ta'minoti; 2) mahalliy aholini ichki boshqaruv siyosati – er va politsiya boshqaruvi tizimi nazorati; 3) maktablarga rahbarlik va ularda evropacha madaniyatni – ta'limni rivojlantirish; 4) mahalliy aholining

sudga va harbiy gubernatorga murojaatlari ustidan nazorat oʻrnatish va ularni itoatda tutib turishga qaratilgan qismlardan iborat boʻlgan. Nizomda devonxona doirasida tayyorlanishi kerak boʻlgan masalalar dastlab harbiy gubernatorga maʼruza shaklida taqdim etilishi va kollegial muhokamadan soʻng, oxirgi qaror shakliga keltirilishi qayd qilingan.

Devonxona boshligʻining vazifalari: imkoniyat darajasida mahalliy aholi boshqaruvini olib borayotgan barcha tashkilotlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga hamda mahalliy aholi ustidan ish olib borish uchun kerak boʻlgan statistik va boshqa maʼlumotlarga ega boʻlish; harbiy gubernator tomonidan berilgan buyruqlarning soʻzsiz bajarilishi ustidan nazorat oʻrnatish va yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni harbiy gubernatorga etkazish; zarur boʻlganida viloyat hududlarini, muassasa-tashkilotlarini tekshirish va yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar toʻgʻrisida harbiy gubernatorga maʼlumot taqdim etish.

II.2. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasining tarkibiy tuzilishi va faoliyati.

Devonxonaning tarkibiy tuzilishi. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi (kanselyariya) oʻz ish yuritish tartiblarini Turkiston viloyati maʼmuriy tashkilotlari tajribasiga tayangan holda olib bordi. Turkiston general-gubernatori oʻzining 1867 yilgi hisobotida devonxona boshliq, uchta ish yurituvchi va ularning uch yordamchilari, buxgalter va uning yordamchisidan iborat shtat birligida faoliyat olib borganligini maʼlumot sifatida keltiradi.

Devonxonaning tarkibiy qismlari toʻgʻrisidagi maʼlumotni general-gubernatorlik devonxonasi (kanselyariya)ni birinchi boshligʻi general-mayor Aleksandr Konstantinovich Geyns (1867 – 1869) 1868 yilning 9 yanvarida oʻlkani kolonial boshqaruvining yarim yillik tajribasidan kelib chiqib takliflar berish yuzasidan yigʻilishida Kanselyariyada ish yuritish mashgʻulotlarining taqsimoti

(kanselyariyaning tasdiqlangan tarkibiy loyihasi) mavzusida ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzada A.K.Geyns devonxona to'rtta: 1) qonuniy; 2) xo'jalik-statistika; 3) maxsus; 4) buxgalteriya bo'limlaridan tashkil etilishini taklif etadi. K.P. fon Kaufman shu kunning o'zida bu taklifga roziligini bildiradi va ijro uchun imzo rezolyusiyasini qo'yadi.³⁰

Mazkur ma'ruzada barcha bo'limlarning vazifalari belgilab beriladi. Unga binoan

I. Qonuniy yo'riqnomalar bo'limi: 1) Harbiy Xalq boshqaruvi tizimidagi barcha mansabdorlarni xizmatga qabul qilinganligi va xizmatdan ozod etilganligi, ta'tilga chiqqanligi (Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi mansabdor shaxslarining ta'til davri 2 oydan – 4 oygacha davom etgan, shu bois bu davrda qaysi xizmatchi uning vazifasini bajarishi muhim masala bo'lganligi sababli bo'limga bunga alohida e'tibor bergan); devonxona xizmatchilarining ro'yxatga binoan xizmat formulalarini qayd etib borish, xizmat mansablarini o'zgartirish (devonxona ayrim mutaxassislarning xizmat joylarini ehtiyojiga qarab o'zgartirib borish); davlat mukofotlariga taqdimotlar tuzish, xizmatchilarning ish haqlarini va pensiyalarini tasdiqlash, egallab turgan mansabdorlarning qonunga xilof ishlari va harakatlari uchun rus va mahalliy aholi vakillarini ma'muriy ogohlantirish va sudga topshirish ishlari; 2) ikki viloyatning ma'muriy va tashkiliy tuzilish ishlarini tasdiqlash (1869 yilda Turkiston general-gubernatorligi Ettisuv va Sirdaryo viloyatlaridan iborat bo'lgan); 3) Rossiya imperiyasi hukumat organlarining qonun va ko'rsatmalarida Turkiston general-gubernatori faoliyatiga oid bo'lgan qismlarini aniqlash va amaliyotga qo'llash choralarini ishlab chiqish; 4) ikkala viloyat hududidagi voqealar to'g'risida ma'lumotlar to'plash; 5) ikkala viloyat hududida

³⁰ Материалы, относящиеся к “Проекту положения об управлении Туркестонским краем”. Пояснительная записка к Проекту положения об управлении в областях Туркестонского генерал-губернатора. – Спб.: Военная типография (в здании Главного штаба), 1874. 24 с; Материалы, относящиеся к проекту Положения об управлении Туркестонской областью. – Т., 1866. 57 с.

shubhali kishilar ustidan nazorat; 6) viloyatlar boshqaruvi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish – ishlarini olib borgan.

II. Xo'jalik-statistika bo'limining vazifalari: 1) o'lkaning er tuzilishi makoni va sifati. O'rmon xo'jaligi, yaylov va suv zahiralari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash; 2) oziq-ovqat va xalq sog'liqni saqlash tizimi; 3) jamoa xo'jaligi, ya'ni turli soliq va to'lovlar miqdorini belgilash; 4) aloqa yo'llari, pochta-telegraf xizmatini joriy etish; 5) o'lkani boshqarish ishlarini moliyaviy ta'minlash, sanoat va savdoning xususiy tadbirkorlar tomonidan rivojlanishini yo'lga qo'yish.

III. Maxsus bo'lim: 1) Xalq ta'limi, umumiy masalalar; 2) chegara hududlarida bo'layotgan turli voqealar, qo'shni xonliklardagi vaziyat to'g'risida ma'lumotlar to'plash; 3) diniy ishlar devonxonasi; 4) general-gubernatorga yuborilgan ariza va shikoyatlar bo'yicha qarorlarni e'lon qilish; 5) general-gubernatorning shaxsiy yozishmalari kabi masalalar.

IV. Buxgalteriya bo'limi – devonxonani mablag' bilan ta'minlash va general-gubernatorning buyrug'iga asosan mablag'larning aylanishi to'g'risidagi hisobotlarni olib borish, o'lkani boshqarish bo'yicha daromad va xarajatlar smetasini tuzishdan iborat deb topiladi.

Ma'ruzaga binoan devonxona tarkibida jurnalist mansabi joriy etilib, uning asosiy vazifasi kirish va chiqish hujjatlari yozuvchi jurnali ishlarini olib borishdan iborat bo'lgan. Biroq shtat birligida bunday lavozim ko'rsatilmaganligi sababli devonxonaga safarbar etilgan devonxona mansabdoriga bu ishlarni yuritish yuklatilgan va u davlat mansabdori sifatida hujjat hamda turli yozma ma'lumotlarning jo'natilishi uchun javobgar shaxs hisoblangan.

A.K.Geynsning taklifiga binoan quyidagi shaxslar Turkiston general-gubernatori devonxonasi mansabdorlari sifatida tasdiqlangan. I bo'lim boshlig'i – ish yurituvchisi titulyar maslahatchi Lazarev, uning yordamchisi – ish yurituvchisi podryadchik Efremov; xo'jalik-statistika bo'limi boshlig'i – ish yurituvchisi bosh shtab poruchigi Komarov, uning yordamchisi – ish yurituvchisi kollej assessor Orfanov; III bo'lim boshlig'i – ish yurituvchisi

kollej sekretari Brodovskiy, uning yordamchisi – ish yurituvchisi Dmitrovskiy; buxgalteriya bo‘limining boshlig‘i – buxgalter-g‘aznachi, kollej sekretari Pinyagin va uning yordamchisi va arxivarius kollej regsitratori Xloponinlar tayinlangan.

Devonxonaning jurnal yuritish qismi rahbari sifatida general-gubernatorning buyrug‘i bilan uezd boshlig‘i titulyar maslahatchisi Malchikov tayinlanadi.

E’tibor berilgan bo‘lsa barcha mansabdor devonxonachi xizmatchilarning ismi-sharifi, ya’ni familiyalari berilgan, biroq otalarining ismlari, o‘zlarining ismlari keltirilmagan. Sababi devonxona xizmatchilari o‘zlari tomonidan tayyorlangan har qanday ish yuritish hujjatlariga imzo yoki familiyasini qo‘yishgan. Balki devonxonaning yashirin holatda olib borayotgan faoliyati doirasida shunday tartib joriy etilgan bo‘lishi mumkin. Biroq devonxonaning ichki buyruqlari, ish yuritish hujjatlariga kiritilgan tuzatish va takliflarda ish yurituvchining ismi-sharifi bilan murojat qilinishi kuzatiladi. Keyingi yillarda devonxona xizmatchilarining ismi-shariflari to‘liq keltirilmagan.

Birlamchi manba bo‘lmish arxiv ma’lumotlari (I-1 yig‘ma jildining 32- ro‘yxati hujjatlari) devonxonadagi 1-bo‘lim, ya’ni umumiy bo‘limdan boshlanib, u 1868 yildan 1895 yilgacha faoliyat olib borgan. Bu bo‘limda jami 10 ta hujjat ro‘yxatga olingan, 1-raqamli hujjat 1868 yilga, 6-raqamli hujjat 1883 yilga, 8,9,10 raqamli hujjatlar – 1885 yilga tegishli. Hujjatlar asosan devonxona orqali ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularda Turkistondagi harbiy-xalq boshqaruvi tizimidagi mas’ul shaxslarni safarga jo‘natish va diplomatiya ishlari kanselyariyasiga yuborilgan hujjatlardan iborat. Birinchi bo‘lim 1-stoli 1875 yildan 1917 yilga qadar faoliyat olib borgan, ro‘yxatda 11 dan 44 gacha bo‘lgan hujjatlar qayd etilgan, biroq ularning orasidan 12 ta hujjat yo‘q. Mavjud hujjatlarning aksariyat qismi Turkistonning birinchi jahon urushi davridagi ma’lumotlardan iborat. Birinchi bo‘lim 2-stoli 1886 yildan 1917 yilga qadar faoliyat olib borib, ro‘yxatda 48 dan 152 gacha bo‘lgan hujjatlar qayd etilgan.

Hujjatlar asosan devonxona tomonidan mablag‘larning taqsimlanishiga oiddir. Ularda o‘lka miqyosida devonxona darajasidagi ayrim tadbirlar,

mansabdor shaxslarni mablag' bilan ta'minlash to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanib, ularning ichida Turkistonda CHorizm ag'darilganidan keyin, Muvaqqat hukumatning o'rnatilishi bilan bog'liq hujjat ham mavjud. Bu hujjat 1917 yilning 21 aprelidan 1918 yilning 31 yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarni to'plagan va jami 217 betdan iborat.

Birinchi bo'lim 3-stoli 1873 yildan 1916 yilgacha faoliyat olib borgan bo'lib, bu stolga tegishli hujjatlar 159 dan 165 gacha qayd etilgan. Mavjud hujjatlar turli masalalarni o'z ichiga oladi. Masalan, tartib raqami 159 bo'lgan hujjat 3 betdan iborat bo'lib, unda 1873 yilning 24 iyunda haqiqiy maslahatchi Struvenning YAponiyaga, bosh konsul bo'lib saylanishi munosabati bilan uning YAponiyaga borishi uchun safar harajatlari to'g'risidagi bo'yruq devonxonada qayd etilgan. SHuningdek, tartib raqami 161 hujjat Rossiyaning Xitoy bilan chegara munosabatlari, xususan, Kulja hududi to'g'risida, Toshkentda bo'lgan Xitoy komissarlari to'g'risida ma'lumot beradi. SHu stolda viloyatlardagi politsiya-ma'muriy bo'limlarining shaxsiy tarkibi bilan bog'liq hujjatlar anchagina.

Birinchi bo'limning 4-stoli 1869 yildan 1917 yilga qadar faoliyat olib borib, unda 166 dan 330 gacha bo'lgan raqamli hujjatlar qayd etiladi. Mavjud hujjatlar devonxonada qayd etilgan bo'lib, ularda siyosiy jihatdan general-gubernatorlik uchun ma'qul bo'lmagan shaxslarni surgun qilish, 1898 yilda Farg'ona viloyatidagi voqealar to'g'risidagi viloyat harbiy gubernatorining raportlari va telegrammalari, shuningdek, Samarqand viloyatida Namoz boshchiligidagi qurolli chiqishlar, chet el fuqarolarining Turkiston fuqaroligiga o'tish to'g'risidagi iltimoslari, birinchi jahon urushiga oid ma'lumotlar, Turkiston Vaqtli hukumatining qarorlari mavjud.³¹

³¹ Тиллабоев. С. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан, 2008. 67 б.

Birinchi bo‘lim 5-stoli 1871 yildan 1917 yilga qadar faoliyat olib borgan. Bu stolda 331 dan 354 gacha bo‘lgan raqamli hujjatlar qayd etilib, ular orasida 5 ta hujjat yo‘q. Hujjatlarning asosiy qismi politsiya idoralariga tegishli hisoblanib, ular orasida Turkistondagi siyosiy partiyalar to‘g‘risida, 1907 yilda Farg‘onadagi vaziyatga oid, 1917 yilda so‘nggi general-gubernator Kuropatkinning o‘lkadagi vaziyatni tinchlantirish to‘g‘risidagi raportlari jamlangan.

Devonxonaning ikkinchi bo‘lim 1-stoliga tegishli bitta hujjat bo‘lib, bu stolning 1882 yilda faoliyat ko‘rsatganligini bildiradi. Biroq bu hujjatda Turkistonda 1916 – 1917 yillardagi voqealar to‘g‘risidagi yozishmalar qayd etilgan. Hujjat (tartib raqami 357) 2-bo‘limning 1-stoli to‘g‘risida aniq ma’lumot bera olmaydi. SHuning uchun qo‘shimcha ma’lumotlarni devonxonaga tegishli boshqa hujjatlardan izlab topish kerak bo‘ladi. CHunki, stolda bir hujjatning bo‘lishi odatdagi holat emas, masalan, ro‘yxatda 2-bo‘lim 1-stoli 1882 yildagi faoliyati to‘g‘risida yozilgan, mavjud hujjat esa 1916 – 1917 yillar bilan chegaralangan. Demak, bu stolga tegishli hujjatlar boshqa stollarga o‘tkazilgan yoki boshqa tashkilotlarga berilgan.

Ikkinchi bo‘lim 2-stoli 1904 – 1914 yillarda faoliyat yuritib, unda 358, 360 raqamli hujjatlar qayd etilgan. Mavjud hujjatlar politsiya idorasi va chet el fuqarosiga Turkistonda bo‘lgan vaqtda mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi raportlardan iborat.

Ikkinchi bo‘lim 3-stoli 1918 yilda faoliyat yurgizgan, unda 361-366 raqamli hujjatlar ro‘yxatga olinib, ulardan 365 raqamli hujjat yo‘q. Stol asosan “kanselyariya”ning vaqtli hukumat o‘z vakolatini tugatganidan keyingi sho‘rolar xokimiyatini boshlang‘ich davriga oid hujjatlardan iborat.

Devonxona bo‘linmalari orasida eng uzoq davr faoliyat yuritgan 3 bo‘lim hisoblanib, u 1852 yildan 1917 yilga qadar bo‘lgan hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

³²Umumiy bo‘limda 366 dan 389 raqamgacha bo‘lgan hujjatlar ro‘yxatga olingan. Hujjatlarning eng dastlabkisi 1852 yilning 6 marti bilan belgilanib, unda Xitoy bilan savdo munosabatlari, xususan, Kulja va CHuguchak bilan konsullik munosabatlari haqida, yana bir hujjat Rossiyaning O‘rta Osiyo bilan savdo munosabatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan iborat. Qolgan hujjatlar o‘lkani er osti xazinalarini o‘rganish bilan shug‘ullanishga oid ruxsatnomalar berish, Eron bilan munosabatlarga oid hujjatlar hisoblanadi.

Uchinchi bo‘limning 1-stoli 1871 yildan 1910 yilgacha faoliyat olib borgan, unda 390-395 raqamli 5 ta hujjat qayd etilgan. Ular asosan tashqi savdo munosabatlariga oid hujjatlar bo‘lib, ulardan birida o‘zaro savdoda kuzatilgan soxta oltin tangalar to‘g‘risida gapiriladi. 1898 yil 18 maydagi “Andijon voqealari” sababli Farg‘ona viloyati aholisining (hujjatlarda “aybdor” viloyat aholisi deyilgan) 300.000 rubl miqdoridagi kontributsiyasi to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Bu hujjat 496 betdan iborat. 394 hujjat ham (333 bet hajmda) “Andijon voqealari” to‘g‘risida ma‘lumot beradi.

Uchinchi bo‘limning 2-stoli 1882 yildan 1918 yilgacha faoliyat olib borgan, unda 396-403 raqamli hujjatlar qayd etilgan. Barcha hujjatlari to‘liq, joyida bo‘lgan stollardan biri. Ular orasida tartib raqami 396 bo‘lgan hujjatda Ettisuv viloyatining 1867 yildan 1882 yilgacha bo‘lgan kolonizatsiya etilishi to‘g‘risidagi xabarlar berilgan. 400-401 raqamli hujjatlarda Turkistonda 1916 yil mardikorlikka olish bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi.

Uchinchi bo‘lim 3 stoli 1881 yildan 1916 yilga qadar faoliyat olib borgan va unda 404-413 raqamli hujjatlar qayd etilgan. Ular orasida 405 raqamli hujjat Turkiston o‘lkasining istilo etilishiga sabab bo‘lgan omillar, xususan, o‘lka iqtisodiga oid bo‘lgan hujjatlar, qo‘lyozma maqolalardan iborat. Keyingi hujjat,

³² Тухтаметов Ф.Т. Правовое положение Туркестана в Российской империи (вторая половина XIX века). Монография. Уфа, БашГУ, 1999. 39 с.

“kolonizatsiya” so‘zininng tom ma’noda o‘lkada qanday davom etganligi haqida turli bildirish va xatlar jamlanmasidir. Qolgan hujjatlar Xiva xonligi bilan munosabatlarga tegishli.

Uchinchi bo‘lim 4-stoli 1917 – 1918 yillardagi voqealarni o‘zida aks ettirib, unda 414-418 raqamli hujjatlar qayd etilgan. Barcha hujjatlar davr og‘ir bo‘lsa-da, Turkistonda yashash ixtiyorini bildirgan chet el fuqarolari to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Devonxonaning vazifalari. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi (kanselyariya) ish yuritish tarixi, uning tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ish yuritish tartiblariga oid yozma xabarlar bilan to‘ldirish mumkin. Mazkur masalani yoritish uchun o‘lkani boshqarish bo‘yicha nizomlarning mazmun-mohiyatini o‘rganish muhim hisoblanadi. Arxiv materiallarida saqlanayotgan nizomlar, nizomlar loyihalari va ularni tayyorlash uchun asos bo‘lgan tarixiy yozma manbalarda ma’lum bir umumiylikni kuzatish mumkin. 1866 yildan – 1916 yilga qadar jami 20 dan ortiq nizomlar tayyorlangan. Manbalarga tayangan holda ular orasida asosan 1867 yil va 1886 yillardagi nizomlarga rioya etilgan deb xulosa chiqarish mumkin. Qolgan yillarda tayyorlangan nizomlar asosan Rossiya imperiyasi Harbiy vazirligi va ichki ishlar vazirligi, Davlat mulki va er ishlari vazirliklari o‘rtasida Turkiston boshqaruvi masalasidagi o‘zaro kelishmovchiliklar zahirida oxiriga etkazilmagan.

Amalda bo‘lgan nizomlarning deyarli barchasida 22 paragraf bilan quyidagi qoida qayd etiladi: o‘lka boshqaruvida o‘lka general-gubernatori qoshida 1) devonxona (kanselyariya) 2) maxsus topshiriqlar bo‘yicha mansabdorlar 3) tarjimon; “Turkistanskije vedomosti” gazetasining tahririyati, ximiya laboratoriyasi, Turkiston ommaviy kutubxonasi va muzeyi faoliyat olib boradi deb, rasmiylashtirilgan. Masalan, 1874 yildagi nizomga oid hujjatning 26 paragrafida “general-gubernatorning nomi bilan o‘lkani boshqarish bo‘yicha barcha yozishmalari uning devonxonasida olib boriladi” deb bayon etilgan bo‘lsa, shu hujjatning 27 paragrafida “devonxonada barcha ish yuritish tartibi devonxona

boshqaruvchisining taklifi va general-gubernator tasdig'i asosida olib boriladi", deb belgilangan.

1886 yildagi nizomda yuqoridagi qoidaga qisman o'zgartirish kiritiladi va unga binoan "Devonxona boshqaruvchisi: 1. Rossiya imperiyasi ichki ishlar vaziri va general-gubernatorning roziligi bilan guberniyalardagi vedomostlari uchun taqdim etilgan o'zgarishlari asosida faoliyat olib boradigan "Turkistanskie vedomosti" gazetasining tahririyati; 2. Turkiston muzeyi va ommaviy kutubxonasi faoliyatiga rahbarlik qiladi", deb qonunlashtiriladi. Bu qaydlar "Turkistanskie vedomosti" gazetasi imperiya ichki guberniyalaridagi gazetalari kabi ichki ishlar vazirligi nazoratiga olinganligini ko'rsatadi. Ximiya laboratoriyasi to'g'risidagi tushunchalar umuman tushurib qoldirilgan.

Devonxona (kanselyariya) tomonidan olib borilayotgan ishlarning asosiy mazmuni general-gubernator K.P. fon Kaufmannning 1867 – 1881 yillar faoliyatiga oid hisobotida yoritiladi. Unga binoan "general-gubernatorlik devonxonasining faoliyati yana uzoq yillar davomida kuchayib, sifati o'zgarib, foydalilik darajasi oshib boradi, chunki mavjud sharoitda devonxona o'lkada ijro etuvchi va general-gubernatorning o'lkaning umumiy boshqaruvidagi asosiy maslahatchisi bo'lib qoladi", – degan xulosasi keyingi yillarda o'zining tasdig'ini topdi.

Devonxona tarixiga oid manbalar yillar o'tishi bilan bajariladigan ishlar ko'lami ham oshib borganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatda devonxonaning faoliyat tarkibiga o'zgartirishlar kiritilib boradi. Masalan, devonxona (kanselyariya) boshlig'i A.I.Gomzin (1869 – 1975) 1871 yilning 12 aprelida "general-gubernatorlik devonxonasi shaxsiy tarkibini o'zgartirish" to'g'risidagi ma'ruzasida o'lkada shahar xo'jaligi, zemstvo (er egaligi), er egaligining qayta taqsimlanishi, savdo va sanoatning rivojlanishi oqibatida devonxonadagi ish yuritish ko'lami nihoyatda oshib borganligi sababli IV bo'lim ochishni taklif etadi. Unga binoan I bo'lim 1-stol: a) xizmatchilarning shaxsiy tarkib ishlarini boshqarish, ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, boshqa joyga safarbar etish, turli xil moddiy yordam, yorliqlar, qarzdorlik bo'yicha hayfsanlar; b) ma'muriy-

politsiya qismi bo'yicha itoatda bo'lgan shaxslar va joylar bo'yicha yo'riqnomalar; 2-stol bo'yicha: a) shtatlar loyihasini ishlab chiqish ularga boshliq va quyi xizmatchilarning munosabatlarini nazorat qilish; b) ma'muriy jazo belgilangan shaxslarning ustidan nazorat-ta'minot, moddiy yordam; v) general-gubernator tomonidan politsiya tadbirlarini qo'llash choralarini ishlab chiqish; g) Pasport berish; d) o'zga erlardan kelganlarga rus fuqaroligini berish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Shu tartibda qolgan bo'limlardagi stollarning vazifalari ham belgilandi.

YAngi joriy etilgan IV bo'lim 2 ta stoldan iborat bo'lib, uning 1-stoli: 1) tergov va sudlar ishi, ariza-istaklarni ko'rib chiqish va ijrosini nazorat qilish; 2) mansabdor shaxslarning nojo'ya harakatlari bo'yicha qaror va ularni sudlarga etkazish ishlari; 3) sodir bo'lgan voqealardan doim xabardor bo'lish, deb belgilangan. Bo'limning 2-stoli: 1) texnik va xo'jalik ta'lim beruvchi ta'lim dargohlari (uchilish); 2) barcha diniy masalalar va ruhoniylarga bo'lgan munosabatlar; 3) barcha ilmiy ekspeditsiyalar to'g'risida; 4) nikoh va oila masalalari; 5) chegaradagi hududlar bilan munosabatlar masalalarini boshqarib turishlari lozim deb, topildi. Tashkil etilgan 4-bo'limni sud-huquq bo'limi deb atash ham mumkin.

Devonxona xizmatchilarining oladigan maoshlari to'g'risidagi ma'lumotlar, bu dargoh to'g'risidagi bilimlarni yanada kengaytiradi. Masalan, 1871 yilda tasdiqlangan harajat smetasiga binoan: devonxona boshlig'i bir yilda 5000 rubl, devonxona boshlig'ining yordamchisi – 4000 rubl, ish yurituvchisi – 2000 rubldan (4 ta shtat birligi); katta yordamchilar – 1200 rubl (3 ta shtat birligi); kichik yordamchilar – 700 rubl (4ta shtat birligi); tarjimonlar – 1100 rubl (2 ta shtat birligi); jurnalist – 1000 rubl; yollanma yozuv ishlarini olib boruvchilar uchun 7400 rubl ajratilgan bo'lib, devonxona uchun bir yilda jami: 34 000 rubl sarf etilgan. Agarda devonxona yollanma yozuv ishlarini olib boradigan xizmatchilarining o'rtacha maoshi bir yilda 500 rublni tashkil etgan bo'lsa, yuqori devonxona mansabdorlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday yuqori

bo'lganligini va ular keyinchalik Turkiston general-gubernatorligi yuqori byurokratik qatlamini tashkil etganligi to'g'risidagi fikrni tasdiqlaydi. SHu sababli Turkiston general-gubernatorligi devonxonasini boshqargan xizmatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni berish juda o'rinli bo'lar edi, ular quyidagi tartibda faoliyat olib borishgan:

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi rahbarlari shaxsiy tarkib xizmatchilarining qonunda belgilab berilganidek aniq va tartib-qoida asosida ish yuritishgan, degan xulosani bermaydi, CHunki ular o'lkadagi barcha mustabid tuzum tashkilotlari kabi o'zlarining qonunlariga zid holatda ishlar olib borganligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, 1869 yilda devonxona buxgalteri bo'lgan Pinyagin turli aldov yo'llari bilan Toshkent shahrida ko'chmas mulklarga ega bo'ldi, (qonunga binoan devonxona xizmatchilari xizmat muddati davomida lavozimlarini su'iste'mol qilgan holda hech qanday mulk shakllariga ega bo'lmasligi, turli xildagi kompaniyalarning faoliyatida ishtirok etishi qat'iyman man etilgan) faqat o'lim uni muqarrar jazodan qutqarib qoladi.

Toshkent tarixini o'rgangan tadqiqotchi, asli mutaxassisligi veterinar bo'lgan A.M.Dobrosmylov o'zining "Tashkent v proshlom i nastoyaschem" nomli kitobida devonxona xizmatchilarining "Toshkent yarmarkasi" degan avantiyurada faol ishtiroki oqibatida ko'plab mablag'larni o'zlashtirib yuborganlari haqida ma'lumot berar ekan, devonxona xizmatchilari orasida maishiy-axloqiy harakatlarni sodir etganliklarini yozadi. Masalan, A.I.Gomzin 1867 – 1875 yilda Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi boshlig'i bo'lgan. Uning faoliyati to'g'risida keyinchalik shu lavozimda ishlagan G.P.Fyodorov "ma'muriyat faoliyati bilan kam tanish bo'lgan, o'z majburiyatlaridan bir yildan keyinroq ko'ngli sovugan kishi", – deb baho beradi.

Bu borada Turkiston o'lkasida senatorlik reviziyalarini olib borgan Girs va Palenlar ham devonxonadagi qator xato-kamchiliklarni eslatib o'tishgan.

1. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi imperiyaning birorta ham guberniyasida bo'lmagan vazifani, ya'ni o'lkada ijroiya hukumat vazifasini bajargan. Hattoki devonxona boshlig'i A.I.Gomzin – 1871 yilda general-gubernatorning safarga chiqqan paytida general-gubernator vazifasini bajaruvchi sifatida qoldirilgan. Bu mavjud Nizomlarni qo'pol ravishda buzish, deb baholangan.

2. Devonxonaning K.K.Palen reviziyasi XX asr boshidagi eng tajribali ish yurituvchisi B.N.Kaplun 1900 yilda tog' ishlari mutaxassisi P.S.Nazarovga kon ishlari bilan shug'ullanishga ruxsatnomani berish uchun undan 500 rubl miqdorda pora olganligi, shuningdek, har oyda 500 rubldan maosh to'lab borishini talab qilganligi tekshiruvlar natijasida aniqlangan. Qolaversa, B.N.Kaplun aynan reviziya natijasiga ko'ra, u boshqargan III bo'lim hujjatlarin yo'qotgan. Biroq o'sha davrdagi devonxona boshqaruvchisi – tajribali harbiy prokuror V.N.Mustafin reviziya materiallarida ko'rsatilgan xato va kamchiliklarning amal qilish muddati o'tib bo'lganligi sababli jinoiy ish qo'zg'atilmasligini reviziyadan iltimos qilgan. Bu orada B.N.Kaplun arizasiga ko'ra ishdan bo'shab ketadi, jinoyat jazosiz qoladi. Umuman, devonxona xizmatchilarining barcha kamchiliklari, huquqbuzarliklari doimo Turkiston oliy byurokratiyasi tomonidan jazodan olib qolingani yoki boshqa hududlarga xizmat burchini bajarish uchun jo'natib yuborilgan.³³

Turkiston tarixining XIX asr oxiri – XX asr boshi davri Rossiya imperiyasi tomonidan o'rnatilgan boshqaruv tizimi mahalliy aholini itoatda va qoloqlik darajasiga tushirish uchun xizmat qilgan. Bu davr yozma manbalari sifatida Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi rasmiy ish yuritish hujjatlarini o'rganish katta ilmiy ahamiyatga egadir. Ular asosida ma'lum xulosalarga kelish fikrlarini uyg'otadi. Xususan, devonxonaning ish yuritish tartibi Rossiya imperiyasi ma'murlari tomonidan Turkistonni ijroiya hokimiyat tuzish kabi vazifalardan ozod qildi. SHu sababli devonxonaning ish yuritish hujjatlarida uning

³³ Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида. – Т., 2014. 71 б.

asosiy vazifasi mahalliy aholini boshqarish deb, ko'rsatilsa-da, ularning mahalliy aholini imperiya ma'murlari tomonidan olib borgan nazorati, deb tushunilmog'i kerak. Chunki tub aholi boshqaruvi mahalliy mansabdorlari uchun eng quyi ovul va qishloq pog'onasidagi ichki masalalar doirasiga tushirib qo'yildi. Mahalliy aholining boshqaruv tizimiga umuman yaqin yo'naltirmaslik Rossiya imperiyasi, mustabid tuzumning asl maqsad-mohiyati ekanligiga general-gubernatorlik devonxonasining ish yuritish tarixi yaqqol dalil hisoblanadi. Devonxona ish yuritish tartiblarini o'rganish yurtimizning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshi tarixiga oid bo'lgan bilimlarni yanada kengayishiga imkon yaratadi.

III. BOB. Turkiston general-gubernatorligi moliya-xo‘jalik va sud tizimi muassasalari

III.1. Turkiston o‘lkasi Nazorat va G‘azna palatalarining faoliyati

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning tabiiy, iqtisodiy resurslari va daromad mablag‘larini o‘zlashtirishda moliya xo‘jalik idoralari muhim o‘rin egallagan. Metropoliya hukmron doiralari o‘lka ma‘muriyatiga moliya sohasida vakolatlarni imkon qadar cheklab, Turkistonda bevosita markaziy hukumat (ya‘ni Rossiya imperiyasi hukumati) moliya-xo‘jalik organlari tasarrufida bo‘lgan idoralarni tashkil etish va ular orqali mahalliy resurslarni o‘zlashtirish yo‘lidan bordi. Shu maqsadda mustamlakachilik siyosatining dastlabki yillaridan boshlab o‘lkada Rossiya imperiyasining moliya va boshqa vazirliklari tasarrufidagi muassasalari tarmog‘i shakllanib, yil kengayib borildi.

1868 yildayoq o‘lkadagi moliya xo‘jalik sohalarini nazorat qilish uchun Rossiya Davlat Nazorat kengashining tasarrufida ish yuritadigan Turkiston Nazorat palatasi tashkil etildi. Nazorat palatasining asosiy faoliyati kreditlar berish, davlat soliqlarini yig‘ish, Turkistondagi turli mustamlaka boshqaruv idoralari va g‘aznalarning moliyaviy hisobotini, pul muomalasiga oid hujjatlarini taftish qilish, ya‘ni mablag‘ sarf-xarajatlari ustidan nazoratni yo‘lga qo‘yishdan iborat edi.

Asosan taftish funksiyasiga ega bo‘lgan mazkur idora kredit berish va davlat yig‘imlarini to‘plash bilan shug‘ullanuvchi viloyat, uezd g‘azna va boshqaruvlarining hisob-kitob daftarlari hamda pul muomalasi hujjatlarini taftish qilar, narx-navo bilan bog‘liq moliya operatsiyalarining to‘g‘riligini tekshirar edi. Barcha davlat muassasalari Nazorat palatasiga hisobot taqdim etishlari shart edi.

Palataning byudjet vazifalari moliya smetalarini tekshirish, ularni tuzishda ko‘maklashish hamda butun Turkiston bo‘yicha olingan daromadlarning hisobotini tayyorlashdan iborat edi.

Davlat idoralarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilishdan maqsad – pul mablag‘lari hamda moddiy boyliklarning butligi, ushbu muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy amaliyotlar to‘g‘riligini aniqlashdan iborat bo‘lgan. Tekshirish jarayonida mansabdor shaxslarning g‘ayri qonuniy harakatlari tufayli etkazilgan zararlar “chiqimga” o‘tkazilib, aybdorlardan undirib olingan. Ayrim holatlarda Davlat Nazorat Kengashi barcha hujjatlarni ko‘rib chiqqanidan so‘ng bunday ishlar bo‘yicha jinoiy ishlar qo‘zg‘atilgan.

O‘lkadagi barcha davlat muassasalari o‘z moliya-xo‘jalik ishlari bo‘yicha muntazam ravishda palataga hisobot berib turgan. Turkiston Nazorat palatasi davlat muassasalari hisobotlarini tekshirish jarayonida, xo‘jalikning turli sohalari, er va o‘rmon boyliklari, minerallar, tabiiy boylik va suv havzalarining ahvoli hamda ulardan foydalanish holati haqida axborotlar tayyorlab, yuqori hokimiyatga taqdim etgan. Bu axborotlarda ma‘muriyat aybi bilan yuzaga kelgan muammolar, xususan, o‘lkaning tabiiy boyliklaridan tartibsiz foydalanilganligi, o‘rmonlar ayovsiz kesilishi qishloq xo‘jaligiga salbiy ta‘sir etib, tuproq va iqlim sharoitlari yomonlashishiga olib kelganligi, tog‘-kon sanoatchilari va neftchilar uchun ajratilgan erlarning ijara to‘lovlari bo‘yicha qarzlarning o‘sib ketganligi kabi ma‘lumotlar ham qayd etilgan. Turkiston Nazorat palatasi arxivida saqlangan materiallarda mansabdorlarning davlat mulkini noqonuniy tarzda o‘zlashtirganligi, jumladan, foydali qazilmalarni izlash va qazib olishga litsenziyalarni noqonuniy berish, ijara to‘lovlarini vaqtida to‘lamaslik xolatlari haqida juda ko‘plab faktlar saqlangan.³⁴

Turkiston Nazorat palatasi taftishchilarining faoliyati haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishish davlat idoralarining pul mablag‘i aylanmasi miqdorini aniqlash va ularning byudjet kirim-chiqimlari bo‘yicha muayyan tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Palataning birinchi bo‘limi hujjatlari

³⁴ Абдурахимова Н.А., Рустамова Г.К., Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – I четверти XX вв. – Т., 1999. 104 с.

orasida boshqarmaning er solig'i, uy solig'i, turli bojlar haqidagi ma'lumotlar, savdo, sanoat idoralarining hisobotlari, ikkinchi bo'limda muhandislik idoralari va omborlarning hisobotlari, uchinchi bo'limda Turkiston harbiy okrugi qo'shinlarining ta'minot ishlarini boshqaruvchi harbiy muassasa, idoralari, O'rta Osiyo temir yo'l politsiya boshqarmalarini ta'minlash uchun sarflanadigan pul mablag'lari haqida ma'lumotlar jamlangan. Mazkur ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, harbiy qo'shin uchun xarajatlar yil sayin ortib borgan. 1903 yilda harbiy qo'shin uchun xarajatlar 4 853 830 rublni tashkil qilgan bo'lsa, 1914 yilda 8 888 827 rublga etgan, ya'ni deyarli ikki barobarga oshgan. Bu mablag'larning katta qismi mahalliy soliq to'lovchilar hisobidan to'plangan.

Turkiston hududini qamrab olgan ma'muriy-politsiya mahkamalarini ta'minlash uchun ajratilgan pul va maxsus mablag'lar aylanmasi esa bundan ham yuqori edi. Shu tariqa, Turkiston Nazorat palatasi o'lkadagi moliyaviy nazoratni kuchaytirib, mablag' tushumining ko'payishi evaziga davlat xazinasini boyishiga xizmat qilgan.

1869 yilda Rossiya Davlat kengashining qarori bilan Toshkentda Moliya vazirligi tasarrufida ish yurituvchi Turkiston G'azna palatasi tashkil etilgan. Uning faoliyat doirasiga Turkistonda yagona kassa tizimini joriy qilish, aksiz yig'imlarini boshqarish hamda nazorat qilish vazifalari kirgan. Aksiz sohasida amalga oshirilgan ishlar tufayli g'aznaga tushgan foyda yil sayin ko'payib borgan. Chunonchi, Turkistonda bug'doydan olingan vino, tayyor pivo, meva va asaldan olingan aroq uchun aksiz soliqlari hamda banderol (xarid mollari ustiga yopishtiriladigan yorliq qog'ozi) va savdo-sotiq uchun beriladigan guvohnoma patenti yig'uvlaridan katta daromad mablag'i olingan.³⁵

³⁵ Абдурахимова Н.А., Исакова М., Сулейманова З. Давлат муассасалари тарихи. – Т., 2007 79 б.: Абдурахимова Н.А., Рустамова Г.К., Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – I четверти XX вв. – Т., 1999. 102 с.

Bundan tashqari, spirtli ichimliklar, tamaki, shakar va yoritish (fonus) yog'lariga solingan barcha aksiz soliqlari ham katta foyda keltirgan. Bu sohaning yildan-yilga kengayishi Rossiya sarmoyadorlariga katta daromad keltirgan. Mayxona va ichkilik do'konlarini ochishga ruxsat beradigan, ularning faoliyatini nazorat qiladigan ko'plab boshqaruv idoralarining amaldorlari ham bundan katta daromad ko'rgan. XX asr boshiga kelib o'lkada spirtli ichimliklarni ulgurji sotish jami 118 ta manzilda amalga oshirilgan, chakana sotish esa jami 1298 ta manzilda yo'lga qo'yilganligi bu boradagi daromad ko'lamini tasavvur qilish uchun etarli fakt bo'lib xizmat qiladi.

SHu tariqa Turkiston G'azna palatasi Aksiz nazoratini 1886 yilgacha amalga oshirib kelgan. 1886 yildan esa maxsus Aksiz boshqarmasi olib borgan. Keyinchalik tamaki, gugurt, shakar, neft ishlab chiqarish va sotishga ham aksiz soliqlari joriy qilingan. Aksiz boshqarmasining hisobotida qayd etilishcha, Turkistonda o'tkir ichimliklar savdosining keng yoyilishi Toshkent-Orenburg temir yo'li qurilishida rus ishchilari sonining keskin ortishi, umuman, o'lkada rus aholisining ko'payishi, o'lkada aroq-vino zavodlarining qurilishi hamda ichkilik sotiladigan muassasalar tarmog'ining kengayishi, harbiy qismlar, kazaklarning hamda imperiyaning ichki guberniyalaridan ko'chirib keltirilgan rus aholisining spirtli ichimliklarga talabi oshganligi bilan izohlangan.

Turkistonda 1897 yildan ish boshlagan Ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasiga ham katta vakolatlar berilgan. Ushbu qo'mita o'lkaning tabiiy zahiralarini nazorat qilib, sug'orish ishlari, o'rmon xo'jaligi bilan, shuningdek, paxtachilikda esa amaliy sinov va ilmiy tajribalar o'tkazish bilan shug'ullangan. Uning asosiy vazifalaridan biri sug'orish ishlarini tartibga solish va sug'oriladigan erlarni kengaytirish bo'lgan.

Boshqarma paxtachilik to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, paxta eqilgan umumiy maydonlarni hisobga olish, ekinlar holati, bo'lg'usi hosil, paxta tozalash va yog' zavodlarining holati, paxta tolasiga qo'yilgan narxlar haqida ma'lumotlarni to'plab, bir yilda uch marta muhokama qilgan. SHu bilan

birga, bu idora cheklangan miqyosda bo'lsada, o'lkaga qishloq xo'jalik mashina va uskunalarni olish hamda tarqatish, shuningdek, eng oddiy agronomlik bilimlarini targ'ib qilishga oid choralarni ham ko'rgan.

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi qaramog'ida qishloq xo'jalik tajriba stansiyasi, Mirzacho'ldagi tajriba er maydoni, qishloq xo'jalik mashina uskunalari va omborlari, Toshkent qishloq xo'jalik va gidrotexnika maktablari, bog'dorchilik maktabi, Samarqandda uzumchilik va vinochilik maktablari, Ettisuv viloyatida qishloq xo'jalik maktablari bo'lgan. 1910 yilda Boshqarmaga qarashli gidrometrik bo'lim tashkil qilinib, Orol dengizi, o'lkadagi yirik daryo va ko'llardagi baliqchilik sohasi ustidan nazorat ham o'rnatilgan.

Boshqarmaning eng muhim vazifalaridan biri o'lkaga metropoliyadan rus aholisini ko'chirish siyosatini amalga oshirish edi. Bu ish Turkistonni mustamlaka o'lkaga aylantirishda uzoqqa mo'ljallangan ruslashtirish rejasining tarkibiy qismi bo'lib, nafaqat metropoliyaning ichki guberniyalaridagi er tanqisligini kamaytirish, balki o'lkaga ko'chib kelgan rus aholisi qiyofasida o'ziga ishonchli ijtimoiy tayanch barpo qilish maqsadlariga qaratilgan.

Shuning uchun 1907 yildan 1911 yilgacha Ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi tarkibida o'lkani "ruslashtirish" rejasini ishlab chiquvchi maxsus ko'chirish bo'limi ish olib bordi. Mohiyatiga ko'ra, bu ishlar Turkiston mahalliy aholisi erlarini musodara qilish amaliyotini qonuniylashtirib, tortib olingan katta er maydonlarida rus qishloqlari, davlatga tegishli bahavo manzarali o'rmonlarda dam olish uylari, davlat chorvachilik uchastkalari tashkil qilishga sharoit yaratib berdi.

Ziroatchilik va davlat mulki vazirligi sa'y-harakati natijasida paxtachilik bilan shug'ullanuvchi rus savdogarlari hamda tijorat firmalarining plantatsiya xo'jaliklari tashkil etilgan. Boshqarmaning qishloq xo'jalik bo'limi paxtachilik, chorvachilik, qorako'lchilik, ipakchilik, bog'dorchilik va uzumchilik masalalari bilan shug'ullanar edi. Bundan tashqari, bo'lim qishloq xo'jalik maktablari va

bilim yurtlari, bog'dorchilik tashkilotlari va laboratoriyalarini boshqargan. SHuningdek, joylarga xizmat safariga yuborilgan agronomlar va qishloq xo'jaligi bo'yicha boshqa ko'plab mutaxassislariga rahbarlik qilgan hamda ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatgan.

Bo'limning paxtachilik masalalari bilan shug'ullanuvchi xizmatchilari viloyatlardagi paxtani ekish va uni terish, shuningdek, paxta tozalash zavodlari ishini nazorat qilib borgan. SHuningdek, ushbu bo'lim urug'chilik zahirasi yaratish va urug' almashlash bilan shug'ullangan, Rossiya to'qimachilik sanoatining arzon xom ashyoga bo'lgan talabini qondirish uchun mahalliy sharoitda amerika paxta navlarini etishtirishga bosh-qosh bo'lgan. Buning uchun Toshkent yaqinida maxsus paxta plantatsiyasi va tajriba maydoni tashkil etilgan.

Qishloq xo'jalik bo'limi yuqoridagi ishlardan tashqari chorvachilik bilan, go'sht va sut olish uchun so'qim qoramol va sigir boqiladigan erlarni, zotli qorako'l, otlar etishtiradigan joylarni tashkil qilish bilan shug'ullangan. Buning uchun umumiy maydoni 412 desyatina bo'lgan "Qoplonbek" xo'jaligida yirik zotli qoramol fermasi qurilgan.

Shuningdek, qishloq xo'jalik bo'limi pillachilik, bog'dorchilik, uzumchilik sohalari bilan ham shug'ullangan. Xususan, Turkistonga chetdan olib kelinadigan pilla qurti urug'i hamda mahalliy pilla qurti urug'i ishlab chiqarishni nazorat qilgan, ipak qurtini boqish tartibi va ularni parvarishlash borasida maxsus qoidalarini tarqatgan. Bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish maqsadida 1898 yilda Ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi Toshkent yaqinidan 66 desyatina er sotib olgan.

Ilgari viloyat va uezd boshliqlari ixtiyorida bo'lgan cho'l, tog' va to'qaydagi butazor hamda daraxtzorlar ham Ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi tasarrufiga o'tkazilgan. Tub aholida esa daraxtzorlarning faqat bevosita o'zlari foydalaniladigan qismigina qoldirilgan.

Boshqarmaning o'rmonchilik bo'limiga barcha o'rmon xo'jaliklari maydonlarini xaritaga tushirish, xo'jaliklardagi erlarning (ko'chmanchi aholi doimiy qishlaydigan va yozda foydalanadigan yaylov erlarni ajratib ko'rsatgan holda) ko'rinishini tuzish, xarita va ko'rinishlarni statistik ma'lumotlar bilan batafsil ta'minlash, Turkistondagi barcha bo'sh erlarni hisobga olish va izohlash vazifalarini bajargan.

Turkiston o'lkasini 1908 – 1910 yillarda taftish qilgan senator graf K.K.Palen komissiyasi Turkiston Ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi faoliyatida ko'plab tartibbuzarliklarni aniqlagan. Taftish hujjatlariga ko'ra, faqat davlat mablag'ini o'g'irlash natijasida kamomad 40 ming rubldan ko'proqni tashkil qilgan.

Turkiston Ziroatchilik va davlat mulk boshqarmasi zimmasiga tabiiy resurslar ustidan umumiy nazoratni olib borish ham yuklatilgan bo'lib, tog' ishlari va tog'-kon muassasalari uning tasarrufida bo'lgan. Boshqarmaning tog'-kon bo'limida qazib olingan xom ashyoning umumiy miqdori haqida ma'lumotlar to'plangan, ishlab chiqarish uchun er ajratib berish, ajratilgan erlarning savdosi haqidagi farmoyishlarni tayyorlagan.

Rossiya kon sanoatchilari Turkiston zaminidan asosan neft, toshko'mir va mis rudalarini qidirishgan. Senator K.K.Palening taftish komissiyasi ma'lumotlarida foydali qazilmalarni olishda oqilona yo'l tutilmaganligi, "Kon nizomi"ning oddiy qoidalariga rioya qilinmaganligi, kon idorasi yo'l-yo'riqlarida ko'zda tutilgan xavfsizlik me'yorlariga rioya qilmagani, kon qurilishida sifatsiz qurilish materiallari ishlatilganligi haqida ko'plab misollar keltirilgan. Bu kamchiliklar oxir-oqibat 1909 yilda Marg'ilon uездidagi SHota va Orsero-Xlapkov toshko'mir konlarida, SHo'roboddagi Aleksandrov konida, Ko'kinsoydagi Ovsyannikov koni va boshqa joylarda katta yong'inlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, ko'mir qazib olish texnologiyasi past darajada bo'lgan, qazib olingan xom ashyoning 30 foizi chiqindiga chiqarib

yuborilgan va ular konning yonginasiga to'qilgan. Bu chiqindilar past olovda doimo yonib turgani uchun ishchilar hayotiga xavf solgan.

Turkiston Ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi tomonidan 1901-1908 yillarda xususiy tadbirkorlarga qidiruv ishlari olib borish uchun ajratilgan erlarning deyarli yarmi (45 foizi) neft qazib olish uchun berilgan. SHu maqsadda ajratilgan 566 desyatina erining faqat 316 desyatina er ulushidan er osti boyliklarini olishda foydalanilgan.

Shu bilan birga, Turkistonning mahalliy aholisiga foydalanish uchun berilgan erlardan rus tadbirkorlari uchun er ajratib berish holatlari ham tez-tez uchrab turgan. Ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasidan ruxsat olgan neft bilan shug'ullanuvchi xususiy firma va kompaniyalar ishi yurishib ketgan taqdirda, boshqarma ular daromadining muayyan qismiga ega bo'lgan. Boshqarma ixtiyorida baliqchilik korxonalari ham bo'lgan.

Turkiston o'lkasida mustamlaka davrida yuzaga kelgan yangi moliya muassasalaridan biri banklar bo'lib, ularga ilk bor 1874 yil 23 dekabrda imperator Aleksandr II ning farmoni bilan ochilgan Davlat banki bo'limi asos bo'ldi. U 1893 yilga qadar Turkiston o'lkasining butun hududini o'z ichiga olgan edi. Davlat banki bo'limi bilan bir qatorda 1881 yili Toshkentda birinchi xususiy bank – O'rta Osiyo tijorat banki ishga tushirildi. Keyinchalik Davlat bankining bo'limlari va xususiy tijorat banklari Turkistondagi barcha yirik shaharlarda, xususan, Toshkent, Andijon, Samarqand, Qo'qon, Buxoroda ham keng faoliyat yurita boshladi.

Rossiya bilan savdo munosabatlarida imperiya savdo-sanoat doiralarining Turkistondan arzon xomashyo olib ketish va metropoliyada realizatsiya qilish jarayonida katta foydaga ega bo'lish maqsadlarini amalga oshirishda nafaqat banklar, balki rus sarmoyadorlari, savdo firmalari va uylari, savdo-sanoat va transport kontoralari, hamda kredit muassasalari ham katta rol o'ynagan.

Kredit tizimi o'lkaning iqtisodiy hayotida tobora keng o'rin tutib borgan. Rossiyada kredit tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni mamlakatda

sudxoʻrlik kapitali yuqori darajada rivojlanganligi, kredit muassasalari hukumat qoʻlida toʻplanganligi, davlat banklari esa yirik sarmoyadorlar va hukumatning moliyaviy ehtiyojlariga xizmat qilganligida namoyon boʻlib, bu tizim Turkistonda ham bir oz oʻzgartirilgan holda joriy qilingan.

Oʻlkadagi kredit tashkilotlarining nizomida bu muassasalar Turkiston “xalq xoʻjaligini rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash” hamda “savdo-sotiq aylanmasini jonlantirish va pul kredit tizimini mustahkamlash” uchun tashkil qilingani qayd etilgan boʻlsa-da, lekin amalda kredit muassasalari xizmatlaridan mahalliy aholi emas, balki turli darajadagi mustamlaka amaldorlari juda unumli foydalangan. Masalan, Taftish komissiyasi maʼlumotlariga koʻra, kredit hujjatlari mahalliy aholining ayrim vakillari nomiga rasmiylashtirilgan boʻlsa-da, amalda mustamlaka amaldorlari tomonidan olingan.

Mahalliy aholining kredit olishi uchun turli byurokratik toʻsiqlar qoʻyilgan. Masalan, mahalliy aholi vakillari uezd kredit muassasalaridan bir yilga 10 rubldan 50 rublgacha boʻlgan miqdorda kredit olishlari uchun uchta “ishonchli shaxslar”ning kafolati boʻlishi va yiliga 9 foiz toʻlashlari shart boʻlgan. SHahar kassalari dastlabki vaqtlarda 50 rubldan koʻp boʻlmagan kredit berganlar, soʻngra ularning tijorat va sanoat faoliyatini ragʻbatlantirish maqsadida beriladigan kreditlar miqdori sezilarli darajada koʻpaytirilgan.

XIX asrning 80-90 yillaridan boshlab mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga kredit berish tizimi shakllana boshladi. 1895 yil 1 iyunda “Mayda kredit toʻgʻrisidagi Nizom”ga koʻra, kichik kredit muassasalari tashkil qilindi. Bundan koʻzlangan maqsad qishloqdagi xoʻjalik egalariga, hunarmandlar, sanoatchilar va ularning uyushmalariga, artellar, shirkatlar va boshqalarga ssuda (qarz) berish edi. 1917 yilga kelib, 900 ta ana shunday shirkat

tashkil topib, a'zolari soni 200 ming kishi bo'lgan. Ularga ajratilgan kreditning umumiy qiymati 51 mln. rublni tashkil etgan.³⁶

Markaziy paxta qo'mitasining ma'lumotlarida qayd etilishicha, Turkiston dehqon xo'jaliklarining kreditga tobeligi kuchayib borgan. Qarz oluvchi dehqonlarning ahvoli Turkistonda shakllangan ko'p bosqichli mustamlaka kredit tizimi amaliyoti jarayonida yanada og'irlashgan. Kredit tizimining murakkabligidan ko'zlangan maqsad – banklar, firmalar va turli vositachilarning yuqori daromad olishini ta'minlash bo'lgan. Masalan, bir desyatina (1 desyatina –1,092 gektar) erga paxta ekish uchun oddiy dehqon 70-80 rubl sarflagan, agar u o'ziga yordam uchun mardikorlarni yollasa, sarf-xarajatlar o'rtacha 150 rublni tashkil qilgan. Tabiiyki, bunday mablag'ga ega bo'lmagan dehqon qarz beruvchiga, ya'ni kreditorga murojaat qilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Davlat banki xususiy bank va firmalarga bir yilga 5,5 foiz hisobida kredit bergan, ular o'z navbatida, vositachilarga kreditni 8-9 foizdan kelib chiqqan holda tarqatgan. Natijada bevosita paxta etishtiruvchilar – dehqonlar kreditni yillik 40-60 foiz hisobidan olgan.

Dehqonlar kreditdan daromadli aylanma uchun emas, balki eng zarur ehtiyojlarini qondirish uchun foydalangan. Xullas, kredit nafaqat dehqonlarni ezish vositasi bo'lgan, balki boy va o'ziga to'q xo'jaliklarni, qarzdorlarning erlarini sotib olishlari tufayli ularning qo'lida katta er maydonlari to'planishiga xizmat qiluvchi vosita hamda sarmoya to'plashning manbai ham bo'lgan. O'lkada kredit idoralarining tashkil topishi va faoliyati Turkistonda Rossiyaning moliya hamda kredit tizimini mustahkamlashga, ularni mustamlakachilik vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan edi.

³⁶ Зияева Д.Х. Мустамлака даврида Туркистонда “Зироатчилик ва давлат мулки бошқамаси” фаолияти // “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги масалалари: тарих ва тараққиёт”. – С – Т., 2016. ; Мусаев Н. XIX аср охири – XX аср бошида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши ва ривожланиши. – Т., 2002.

Turkistonda mustamlaka sharoitida eng ko‘p o‘zgarishlarga duch kelgan soha bojxona tizimi bo‘ldi. O‘lkadagi tashqi savdo aylanmalaridan kelib tushadigan mablag‘lar, boj to‘lovlari mustamlakachilar uchun katta daromad manbai bo‘lgan. Tashqi savdoda butkul imperiya manfaatlariga bo‘ysundirishda bojxona tizi katta rol o‘ynagan. Bojxona faoliyati orqali o‘lkaga kirib kelgan va olib ketilgan mahsulotlar to‘la nazoraga olingan. Bunda metropoliya uchun zarur xom ashyoning kirib kelishiga imtiyozlar berilib, chiqib ketishiga to‘siq qo‘yilgan. Ayni paytda Rossiya sanoat mahsulotlarini xorijga chiqarish uchun keng imkoniyat va imtiyozlar yaratilgan. Boj to‘lovlaridan tushgan daromadlar imperiya xazinasiga yo‘naltirilgan.

1890 yil 12 iyunda Moliya vazirligi qoshida Turkiston Bojxona okrugi tashkil etilgan va o‘lka hududi Rossiya imperiyasi boj tizimiga kiritilgan. 1894 yildan Buxoro va Xiva xonliklari ham umumimperiya bojxona hududiga kiritildi. Bu davrda Rossiya imperiyasida bojxona tizimi 12 ta yirik bojxona okruglariga bo‘lgan bo‘lib, shulardan 3 tasi - Turkiston, Semipalatinsk va Kaspiybo‘yi boj okruglari Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan edi.

“Turkiston o‘lkasida bojxona uchastkalari tashkil etish xaqida” (1886) qonuniga ko‘ra Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand va Farg‘onada bojxona uchastkalari, 1899 yilda Qo‘qon, Kerki, Ashxobod va Samarqand shaharlarida bojxona inspeksiyalari, Kaspiyorti viloyatida esa okrug bojxonasi tashkil etildi. 1901 – 1902 yillarda Qo‘qon va Samarqand bojxonalari tashkil qilindi. SHu tariqa Turkiston general gubernatorligi hududida bojxona ishlari to‘liq imperiya nazoratiga o‘tdi. 1912 yilda Rossiyada barcha bojxona muassasalari qayta tuzilishi munosabati bilan Turkiston bojxona okrugi o‘rniga Toshkent bojxona inspektorlik uchastkasi tuzildi. Bojxonalarning tashkil qilinishi, o‘z navbatida, Rossiyaning O‘rta Osiyo mintaqasi bozorlarida mustahkam o‘rnashishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Turkiston Bojxona okrugi o‘lkadagi tashqi savdoni o‘z nazoratiga oldi. Bojxona tariflari tizimi va tashqi savdoning nazorati avvalgidek o‘lka uchun

maxsus ishlab chiqilgan qarorlar va umumimperiyaning qonunlari bilan boshqarilar edi. Boj yig'uvlari egri soliqlarning muhim qismi bo'lib, 1908 – 1913 yillarda Turkistondan olingan daromadning 27-29,3 foizini tashkil qilgan. Boj daromadlari yildan-yilga o'sib borgan, jumladan, 1904 – 1907 yillar oralig'ida 25 foizga ko'paygan.

1889 yilda Turkistonda Rossiya imperiyasi moliya vazirligi tasarrufida soliq inspektorlari instituti ta'sis etildi. U aholini soliqqa tortish tartibini nazorat qilar edi. 1895 yilda tog'-kon sanoatidan imperiya g'aznasiga keladigan daromadlar hisob-kitobi bilan shug'ullanuvchi Turkiston tog'li okrugi tuzildi.

SHu tariqa, Turkiston general-gubernatorligida tashkil qilingan moliya xo'jalik idoralari o'lkaning moddiy boyliklari, tabiiy va iqtisodiy resurslari hamda ulardan keladigan daromatlarni metropoliya hamda rus sarmoyadorlari manfaati yo'lida o'zlashtirishda muhim rol o'ynadi.

III.2. Turkiston general-gubernatorligi sud tizimi

Turkiston general-gubernatorligida boshqaruv tizimining mustamlakachilik mohiyati sud tizimi, himoya va jazo institutlari faoliyatida yaqqol o'z aksini topgan. 1865 yilda qabul qilingan “Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom”da viloyat harbiy gubernatori zimmasiga an'anaviy musulmon sud muassasalarini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Ma'muriy va sudlov tizimini o'z qo'lida birlashtirgan harbiy gubernator huzurida harbiy-sud komissiyasi tuzilgan edi.

1865 yilgi “Nizom”ga asosan mahalliy aholi uchun an'anaviy sud tizimi – o'troq aholi uchun qozilik sudi va ko'chmanchi aholi uchun biylik sudi saqlab qolindi va ularga fuqarolik va jinoiy ishlarni avvalgidek shariat qoidalari asosida ko'rib chiqish vakolati berildi, ammo qozilarni tayinlash va bo'shatish harbiy-gubernator ixtiyoriga berildi.

Sud tizimidagi an'anaviy ierarxiya bekor etilib, qozikalon lavozimi tugatildi va barcha qozilar huquqi tenglashtirildi, qozilarni uch yilga saylash, da'vogarga o'zi ishonch bildirgan qoziga murojaat qilish huquqini berish kabi o'zgarishlar kiritildi.

Yangi tartibga ko'ra, mahalliy aholi vakillari rus fuqarolari manfaatlariga aloqador masalalarda imperiya sudlari tomonidan sud qilinadigan bo'ldi. O'lim jazosi va umrbod qamoq jazosiga aloqador fuqarolik va jinoiy sud hukmlarini chiqarish Turkiston viloyati harbiy gubernatori vakolatiga berildi. Savdo sohasidagi bahsli masalalarni ko'rish esa rus va mahalliy savdogarlar vakillaridan iborat tijorat sudlari hukmiga havola etilishi belgilandi.

Harbiy gubernatorga an'anaviy sudlarning hukmlarini rus harbiy-jinoyat sudlarining mos keluvchi muqobil hukmlari bilan almashtirish huquqi berildi. Bularning bari qozilar vakolati ma'lum darajada cheklaganligidan dalolat berar edi.

An'anaviy sud tizimiga ko'nikkan mahalliy aholi vakili uchun bu yangi tartiblarga majburan amal qilish og'ir kechdi. Garchi diniy ulamolar sud jarayonlariga o'zgartirishlar kiritish muhimligini e'tirof etsalar-da, amalda eski tartiblarning tiklanishini talab qila boshladilar.

Rossiya savdo-sanoat doiralari manfaatlarini himoya qiluvchi "Birjevie vedomosti" ("Birja xabarlari") gazetasida mustamlaka hukumatining sud tizimini isloh qilish harakatlari tanqidga uchradi. Unda rus hukumati musulmon ruhoniylarini o'ziga qarshi qo'yayotganligi, mahalliy aholining an'analari va qonunlariga aralashuv katta norozilik keltirib chiqarganligi alohida qayd etilgan edi.

1867 yilda qabul qilingan "Nizom"ga asosan an'anaviy qozilik sudlari "xalq sudlari" deb yuritiladigan bo'ldi.³⁷ Qozilar va biylarni volost saylovchi

³⁷ Каранг: Васильев Д.М. Организация управления в Русском Туркестане по проектам Положения об управлении 1870-х гг.//«НАУКОВЕДЕНИЕ» <http://naukovedenie.ru> Выпуск 5 (24), сентябрь – октябрь 2014

vakillarining s'ezdlarida uch yil muddatga saylash va viloyat harbiy gubernatorlari tomonidan tasdiqlash tartibi kiritildi. Ular uezd boshliqlarining va uchastka pristavlarining nazorati ostiga olindi.

YAngi tartiblarga ko'ra an'anaviy qozilik sudlari 3 bosqichda faoliyat yuritadigan bo'ldi:

➤ 1 bosqich - qozilar va biylar sudi (da'vosi 100 rubldan oshmagan jinoiy va fuqarolik ishlarini ko'rgan);

➤ 2-bosqich – qozilar va biylar kengashi: da'vosi 100 rubldan 1000 rublacha bo'lgan jinoiy va fuqarolik ishlarni ko'rgan va tomonidan huquqbuzarlikka yo'l qo'yilganda apellyasiya berish mumkin bo'lgan tashkilot hisoblangan;

➤ 3-bosqich – xalq sudyalari (qozi va biylar) ning Favqulodda qurultoyi. Volost va uezd aholisi o'rtasidagi bahsli masalalarni hal qilish bilan shug'ullangan.

Xonlik davrida qozilik lavozimiga tayinlash jarayonida eng layoqatli nomzod sinchkovlik bilan tanlab olinib, undan shariat va odat qonunlarini yaxshi bilish darajasini aniqlash uchun imtihon olingan, ya'ni nomzodlarning chuqur bilimga ega ekanligini hisobga olish mezonini mavjud bo'lgan. Ammo mustamlaka tuzum joriy qilgan tartiblarga ko'ra boshlang'ich saylanish huquqi va qozilik lavozimiga nomzodlarning ilmiy darajasiga hech qanday talab qo'yilmagan. Bunday siyosat natijasida "xalq" sud'yalari ya'ni, qozilar lavozimiga ko'pincha musulmon huquqidan etarli bilimga ega bo'lmagan, turli darajadagi suiste'mollarga va noqonuniyliklarga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan shaxslar tasdiqlanganlar. Ko'p hollarda qozilik kursisi pulga sotib olinganligi mahalliy tilda chop etilgan davriy nashrlarda qattiq tanqid qilingan. Qozilarni tayinlashda ularning bilimi hisobga olinmay, saylov natijalarini tasdiqlovchi

mustamlaka hukumatining nomzodlarga qanchalik xayrixohligi, ularning “naqadar ishonchga sazovorligi” bosh mezon bo‘lib xizmat qilgan.

Qozilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan suiste’molliklar xalqning haqqoniy noroziligiga, turli idoralarga shikoyatlar, iltimosnoma va xatlar bilan murojaat qilishiga sabab bo‘lgan, ammo bu murojaatlar yillab javobsiz qolib ketgan, zero hukumat o‘zi o‘rnatgan tartiblarni bekor qila olmagan. Sud’yalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan suiste’molliklar xalqning haqqoniy noroziligiga, turli idoralarga shikoyatlar, iltimosnoma va xatlar bilan murojaat qilishiga sabab bo‘lgan va u erda yillab javobsiz qoldirilgan. Hukumat o‘zi o‘rnatgan tartiblar, xususan, qozilarni tayinlashda ularning hukumatga “sadoqatli” bo‘lishini asosiy mezon sifatida baholash tartiblari saqlanib qoldi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – an’anaviy sud tizimidan mustamlaka tuzum manfaatlari yo‘lida foydalanish edi.

Yangi sud tizimining oliy instansiyasi Peterburgdagi Senat hisoblangan. Rossiyada Aleksandr II tomonidan 1864 yilda sud nizomlarining joriy etilishi munosabati bilan imperiya sud tizimida ma’lum o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. 1867 yil “Nizom”iga ko‘ra, an’anaviy sud tizimi bilan bir qatorda, quyidagi yangi sud mahkamalari tashkil qilinadi:

- uezd sudlari;
- muvaqqat harbiy-sud komissiyalari;
- viloyat boshqarmalarining sud bo‘limlari.

Muvaqqat harbiy-sud komissiyalari tomonidan aholi huquqlarining buzilishi, turli lavozimdagi amaldorlarning o‘ldirilishi, rus aholisi tomonidan sodir etilgan talonchilik, o‘g‘rilik va boshqa og‘ir jinoyatlar, hukumatga qarshi jinoiy harakatlar va tartibbuzarliklar ko‘rib chiqilgan.

Viloyat boshqarmalarida tashkil qilingan sud bo‘limlari viloyat harbiy gubernatori nazoratida amalga oshirilgan. Sud ishlari bo‘yicha hech qanday bilim va amaliy tajribaga ega bo‘lmagan harbiy gubernatorning bunday vakolatga ega bo‘lishi sud ishiga katta zarar etkazgan, juda ko‘p tushunmovchilik va chalkashliklarga olib kelgan. Bu anglashilmovchiliklarni

hal etish uchun murojaatlar qabul qiluvchi yuqori instansiya – Turkiston general gubernatori bo‘lib, u ham etarli bilim va amaliy tajribaga ega bo‘lmagan holda juda ko‘p masalalarni o‘z xolicha hal etgan. U xatto sud tizimidagi amaldorlarning huquq va burchlari haqidagi qoidalarini ham o‘zi istagancha o‘zgartirganligi taftish jarayonlarida aniqlangan.

Turkiston general gubernatori bu borada Rossiyadagi adliya vaziridan ham ko‘proq vakolatga ega edi. Sud tizimi va hokimiyatning qo‘shilib ketishiga olib kelgan. Bunday holat Rossiyaning o‘zida 1864 yilgi sud islohoti natijasida joriy etilgan sudlov tizimi rivojlanishining umumiy tamoyillari, ya’ni sudning ma’muriyatdan ajratilishi tamoyillariga mutlaqo zid edi. Turkistonda sudni ma’muriyatdan ajratish faqatgina uezd darajasida amalga oshgan, ammo bu ham juda cheklangan darajada bo‘lgan.

Boshqaruvning yuqori pog‘onalarida, masalan, viloyatda sud ishlari bilan harbiy gubernatorlarning viloyat boshqarmalari, markaziy apparatda esa general-gubernator devonxonasining sud bo‘limlari shug‘ullangan. Viloyat harbiy gubernatorlarining uezd sud‘yalariga xayfsanlar va tanbehlar berish huquqiga egaligi amalda sudning ma’muriyatdan ajratilmaganligining yaqqol namunasi edi.

Harbiy-byurokratik apparat qo‘lida sudlov va ma’muriy ishlar bevosita jamlanganligi bois sud Nizomlari ushbu apparat irodasiga to‘la bog‘liq bo‘lgan. Turkiston xalqlari bunday sudlar oldida o‘zlarini ishonchsiz va himoyasiz his qilganlar, ularning o‘zlari o‘rgangan an’anaviy urf-odat va an‘analari asosidagi me’yorlardan uzoq bo‘lgan bunday huquqiy tartiblarni “chigal va tushunarsiz” deb bilganlar.

Umuman olganda, Turkistonda sud tizimini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad islom dini va din peshvolarining aholiga ta’sirini kamaytirishdan iborat bo‘lsa-da, amalda bu kutilgan natijani bermadi. Ko‘p o‘tmasdan, yangi o‘rnatilgan tartiblarning talab darajasida emasligi ma’lum bo‘ldi. Birinchidan, ma’muriy boshqaruv bilan mashg‘ul amaldorlar sud ishlariga ko‘p vaqt ajrata

olmadilar va natijada ko‘p muammolar o‘z vaqtida echimini topa olmadi. Ikkinchi tomondan, maxsus huquqiy bilim va saviyaga ega bo‘lmagan viloyat, uezd darajasidagi amaldorlar sudlov tizimida qoniqarli darajada ish olib bora olmadilar.

1886 yilda o‘lkani boshqarishga oid yangi “Nizom” qabul qilinishi bilan sud tizimini qaytadan tashkil qilish harakatlari boshlandi. 1887 yil 1 yanvardan uezd sudlari tugatilib, ularning o‘rniga hududiy kelishtiruvchi (mirovoy) sudlar institutlari ta’sis etildi. Viloyat boshqarmalarining sud bo‘limlari o‘rniga viloyat sudlari tashkil qilindi.

Sud tizimining eng yuqori instansiyasi sifatida imperiyaning oliy sudlov tashkiloti – boshqaruvchi Senat departamenti belgilandi. Boshqaruvchi Senat departamentiga oliy apellyasiya instansiya vazifasini bajarar edi.

Sudlar ustidan nazorat olib borish maqsadida har bir viloyatda prokuror va ularning o‘rtoqlari mansablari ta’sis etilgan.

SHu davrdan boshlab Turkistonda sud tizimi amaldorlari avvalgidek saylanmay, balki yuqori instansiyalar orqali tayinlanadigan bo‘ldi. CHunonchi, viloyat sudlari raislari imperator tomonidan, quyi lavozimdagilar esa mutasaddi vazirlik tomonidan, general-gubernatorning roziligi asosida tayinlanishi belgilandi.

Turkistonda amalga oshirilgan 1886 yilgi sud islohotlari sudlov tizimini ma’muriy boshqaruv apparatidan ajratish maqsadini ko‘zlagan bo‘lsa-da, ammo bu faqat rasmiy ahamiyat kasb etgan edi, xolos. Keyinchalik imperiya hukumati o‘lkadagi sudlov tizimini umumrossiya tizimi bilan yaqinlashtirish maqsadida yana bir bor sud islohotlarini o‘tkazishni lozim topdi. SHu maqsadda 1898 yil 2 iyunda imperator yangi islohotlar loyihasini ma’qulladi. Unga ko‘ra, “Turkiston o‘lkasi viloyatlariga sud ustavlarini joriy etish to‘g‘risida tartib”ga muvofiq, viloyat sudlari o‘rniga okrug sudlari joriy etildi. SHuningdek, Toshkentda Sud palatasi tashkil etilib, unga butun Turkiston bosh sudlov tashkiloti maqomi berildi.

Okrug sudlari sud raisi, uning o‘rtog‘i va sud a‘zolaridan iborat bo‘lib, Turkistonning barcha beshta viloyatida joriy etilgan. Okrug sudlarining yig‘ilishlarida sudlanuvchining aybdor yoki aybdor emasligini belgilovchi maslahatchilar ishtirok etganlar. Jazo chorasini sud’yalar va sudning ikki a‘zosi belgilaganlar. Maslahatchilar qatnashganda qabul qilingan sud Nizomlari o‘zgarmas hisoblangan, maslahatchilar ishtirok etmagan taqdirlarida ular ustidan Toshkent Sud palatasiga arz qilish mumkin bo‘lgan. Maslahatchilar ishtirokida qabul qilingan, lekin okrug sudlari va Toshkent sud palatasida sud qilish qonuniy tartibi buzilgan ishlar boshqaruvchi Senatda ko‘rib chiqilgan.

YUqorida qayd etilgan sudlar bilan birgalikda Turkistonda harbiy sudlar faoliyat ko‘rsatishda davom etgan va muhim ahamiyat kasb etgan. Ularda nafaqat harbiy unvonga ega bo‘lgan kishilar, balki “mustasno tartibdagina” bu sudlarning vakolatiga berilgan oddiy fuqarolarning ham ishlari ko‘rib chiqilgan.

1892 yilda “harbiy vaziyatda deb e‘lon qilingan joylar to‘g‘risida” hukumatning Nizomiga ko‘ra “oliy hukumatga qarshi isyon ko‘targan”, “telefon, telegraf va boshqa “snaryad” ga ataylabdan zarar etkazgan, politsiya amaldorlari va harbiy soqchilarga hujum qilgan va qurolli qarshilik ko‘rsatgan”, xizmat vazifasini bajarishda mansabdor shaxslarga hujum qilgan va shu kabi ishlarni sodir etgan fuqarolik idoralariga qarashli shaxslarning ishini harbiy sudga oshirilishiga ruxsat bergan. Bu xolat sudlov jarayonlarida o‘zboshimchalik bilan ish tutishga katta imkon yaratdi va ayniqsa, xalq g‘alayonlarini bostirish ham ularning ishtirokchilarini jazolashda hurbiy sudlarga cheksiz vakolatlar bergan.

Shu tariqa Rossiyaning o‘zida 1864 yilgi sud islohoti natijasida joriy etilgan sudlov tizimi rivojlanishining umumiy tamoyillari va yangi huquqiy me‘yorlar Turkistonda 35 yildan keyin va asosan, evropalik aholining oliy va o‘rta tabaqasiga nisbatan tadbiiq qilingan.³⁸

³⁸ Брусина О.И. Брак и развод в народных судах Туркестана: взаимодействие адата и шариата при российском управлении // Этнографическое обозрение. 2012. № 1. 14 с.

Mahalliy xalqlarga nisbatan o'tkazilgan islohotlarda ularning konservativlik xususiyati har tomonlama qo'llab-quvvatlangan. Tub aholi asosan "saylov tizimi" natijasida qayta shakllantirilgan va butunlay ma'muriyatga bog'liq bo'lgan xalq sudlarining xizmatidan foydalangan.

Xalq va hukumat o'rtasida qarama-qarshiliklar kuchaygan davrlarda imperiya hukumati tomonidan tashkil etilgan va harbiy, harbiy-dala va maxsus sudlar bilan birga imperiya hukumati manfaatlarini himoya qiluvchi sudlar ishga tushganlar.

Imperiya sudlari va an'anaviy qozilik sudlari ayrim xolatlarda bir-birini to'ldirsa, ko'p xolatlarda bir-biriga zid edi.

Politsiya va jazolash organlari. Turkistonda Rossiya imperiyasi boshqaruvi joriy etilganidan boshlab, general-gubernatordan tortib to volost boshqaruvchisigacha bo'lgan amaldorlarning barchasiga politsiya (mirshablik) vakolati berilgan edi. Hukumat tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda bu boradagi vakolatlar yil sayin kuchaytirib borilgan. Xususan, o'kani boshqarish haqidagi 1886 yilgi "Nizom"da belgilangan tegishli moddalar, Rossiya hukumati tomonidan joylarda va markazda hukmron tizimga nisbatan qarshilik ko'rsatishning o'sib borishi tufayli "istisno tartib"da qabul qilingan qonuniy hujjatlar aynan shu maqsadlarga qaratilgan edi.

Davlat tartibini himoya qilish choralari to'g'risida 1881 yil avgustda qabul qilingan "Nizom" jazo organlari vakolatlari doirasini ancha kengaytirgan. Unga ko'ra, hukumat lozim deb hisoblagan paytda "kuchaytirilgan va favqulodda himoyalani choralari"ni joriy etishi mumkin bo'lgan.

"Kuchaytirilgan himoya choralari" "qaysidir biror hududda mavjud davlat tuzumiga yoki ma'lum bir shaxslarga va ularning mulklariga tajovuz qilinganda" tadbiq etilgan, shuningdek, ularni mavjud qonunlarning qo'llanishi tartibni ta'minlash uchun etarli bo'lmay qolgan holatlarda ham qo'llash mumkin bo'lgan.

Turkistonda “kuchaytirilgan himoya choralari” butun 1905 yil davomida, 1906 yilda “favqulodda himoya choralari” joriy etilgunicha amal qilgan. Ushbu holat Oʻrta Osiyo temir yoʻli tarmoqlarida, u oʻtgan shaharlarda tadbiq etilgan. “Istisno” Nizomlari amal qilayotgan paytda butun maʼmuriyatning politsiya va jazo berish sohasidagi faoliyati cheklanmagan xususiyatiga ega boʻlgan. General-gubernatorlarga “ijtimoiy tartibni va davlat xavfsizligini buzishi mumkin boʻlgan holatlarga nisbatan” majburiy Nizomlarni ishlab chiqish huquqi berilgan. Bu Nizomlarning buzilishi maʼmuriy tartibda koʻrib chiqilgan. General-gubernator aybdorlarga 500 rubl miqdorida jarima belgilash va ularni uch oygacha hibsda saqlash huquqiga ega boʻlgan.

Politsiya boshliqlari va jandarm boshqarmalarining rahbarlari uchun “davlat jinoyatlarini sodir etish va ularga aloqadorlikda, shuningdek gʻayriqonuniy tashkilotlar aloqadorligi bilan asosli gumon uygʻotuvchi barcha shaxslarni” ikki haftadan koʻp boʻlmagan muddatda hibs etish huquqi berilgan. Ularga, shuningdek, har qanday paytda muassasalar, fabrikalar va zavodlarda tintuv oʻtkazish va mulkning har qanday shaklini xatga tushirish huquqlari berilgan.

Hokimiyatning mustamlaka shakliga xos boʻlgan zoʻravonlik va qatagʻon siyosatida yuqorida qayd etilgan choralar bilan bir qatorda “tozalovlar” oʻtkazib turish alohida oʻrin egallagan.

Uezd boshliqlarining vakolatlari politsiya boshqarmalari boshliqlari vakolatlari darajasiga qadar keng vakolatlarga ega edilar. Uezd boshliqlari huzurida imperiya armiyasining xizmatdagi ofitserlari xizmat qiladigan hududiy nozirliklar (pristav) tashkil etilgan. Hududiy nozirlarga oʻlponlar yigʻishni boshqarish, majburiyatlarni bajarish, uezd boshliqlarining Nizom va buyruqlarini bajarish va oʻz hududlarida aholi ustidan kuchli nazorat oʻrnatish vakolati berilgan. Hududiy nozirliklar turli koʻrinishdagi ishlarni oldindan koʻrib chiqish, 3 kundan koʻp boʻlmagan muddatga maʼmuriy tartibda qamoqqa olish va 5 rubl atrofida jarimaga tortish huquqiga ega boʻlganlar.

“Siyosiy ishonchsiz” deb topilgan barcha shaxslar ro‘yxati Maxsus bo‘lim hisobida turgan va ular ustidan yashirin nazorat o‘rnatilgan. “Hukumatga qarshi” qaratilgan deb topilgan har qanday hatti-harakatlar tufayli tintuvlar o‘tkazilgan va qamoqqa olingan. Maxsus bo‘limning faoliyat doirasi Toshkent shahri va unga yaqin hududlar bilan chegaralangan. O‘lkada tobora avj olib borgan norozilik harakatlariga qarshi kurashish, ularning oldini olish uchun Maxsus bo‘limning faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida 1907 yil 15 dekabrda Ichki ishlar vazirligi Politsiya departamenti Maxsus bo‘limining buyrug‘i bilan Maxsus bo‘lim Turkiston hududiy (tuman) qo‘riqlash bo‘limiga (TXQB) aylantirilgan.

1911 yilda Turkiston general-gubernatori Turkiston qo‘riqlash bo‘limi huzurida “Buxoro va Xiva xonliklarida davlatga qarshi siyosiy harakatlarni qidirish va tadqiq etish vaqtinchalik bo‘limini” ta’sis etish haqidagi Nizom ishlab chiqildi. Biroq, Politsiya departamenti xonlikning ichki hayotiga dahl qiluvchi ushbu tashkilot xonliklar hukumatining noroziligiga olib kelishi va siyosiy agentlikka bo‘lgan ishonchning so‘nishiga sabab bo‘lishi mumkinligi tufayli uni rad etdi.

Biroq xonliklar nazorati amalda davom ettirilgan. Maxsus bo‘lim tomonidan Buxoro va Xiva xonliklarining maxfiy josuslari xizmatiga katta mablag‘ ajratilgan. Asosiy ishni “filer” (izquvar) lar amalga oshirgan. Ular “siyosiy ishonchsiz” deb topilgan shaxslarni nafaqat Turkiston, balki butun Rossiya hududi bo‘ylab ta’qib qilganlar. Turkistonda panislomchilik harakatlari haqida ma’lumot olish uchun filerlar Afg‘oniston va Eronga komandirovkaga jo‘natilgan. Izquvarlar kuzatilayotgan shaxsning har bir qadamini ta’qib qilganlar.

Maxsus bo‘limda maxfiy josuslar xizmati ayniqsa qadrlangan. Har bir tashkilotning o‘z agenti bo‘lib, ular maxsus bo‘limga josuslik xabarlarini etkazib turganlar. Xususan, inqilobiy tashkilotlarda josuslar ish olib borishi shart bo‘lgan. Maxfiy xizmatchilar o‘zlari ish olib borayotgan tashkilotlar

haqida aygʻoqchilik xabarlarini toʻplash bilan birga siyosiy partiyalar hayotida, inqilobchilarning qamalishida ham faol ishtirok etganlar. “Qoʻriqlash muassasalari haqidagi Maxsus Nizom” da belgilab berilishicha, ular “davlat jinoyati toʻgʻrisidagi ishlar boʻyicha maxfiy tergov oʻtkazish bilan shugʻullanganlar va har oyning beshinchi sanasida Rossiya Politsiya departamentiga natijalarni taqdim etganlar.”³⁹

Turkiston qoʻriqlash boʻlimi rasman Turkiston general-gubernatori devonxonasiga boʻysungan boʻlsa-da, amalda mustaqil muassasa maqomida, Ichki ishlar boʻlimi Politsiya departamentining farmonlari va buyruqlari asosida ish olib borgan. Rossiya imperiyasi ichki ishlar vazirligining politsiya departamenti organi boʻlgan.

Qoʻriqlash boʻlimlari haqidagi Nizomga muvofiq, Ashxobod va Verniy shaharlaridagi **qidiruv punktlari** boshliqlari, Toshkent va Oʻrta Osiyo **temir yoʻli jandarma boshqarmasi** boshliqlari har oyda filerlar va maxfiy agentlar tomonidan yigʻilgan maʼlumotlarni Turkiston Qoʻriqlash boʻlimi boshligʻiga etkazib turganlar.

Turkiston hududiy qoʻriqlash boʻlimi siyosiy qidiruv ishidan tashqari, Turkiston general-gubernatorining shaxsiy xavfsizligini ham nazorat qilib borgan. SHuningdek, Turkistonga kelgan chet el fuqarolari ustidan oshkora va yashirin kuzatuv oʻrnatgan.

Bu davrda jazolash organlari orasida **turmalar** alohida oʻrin tutgan. Barcha shahar va qishloqlarda fuqarolik va harbiy turmalar qurilgan va ularning taʼminoti uchun gʻaznadan yiliga 80 ming rublgacha mablagʻ ajratilgan.

Sirdaryo viloyatining Toshkent shahrida oʻlka darajasidagi, Petro-Aleksandrovsk, Avliyoota, Kazaalinsk kabi shaharlarda uezd darajasidagi turmalar qurilgan. Eng yirik hisoblangan Toshkent turmasining qurilishi 1872

³⁹ Абдурахимова Н.А., Рустамова Г.К., Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – I четверти XX вв. – Т., 1999. 71 с.

yilda tugallangan. Unda sudni kutayotgan sudlanuvchilar, hukm muddati o'qilgan yoki Sibirga og'ir mehnat sharoitlariga va qatag'onlikka surgun qilinganlar; kelishtiruvchi, viloyat va okrug sudlari hukmi bilan hibsi etilganlar saqlangan. Rossiyaning Evropa qismi va Sibir turmalariga jo'natiladigan mahbuslar ham u yer orqali o'tganlar. 1885 yildan boshlab, maxsus keyingi bosqich muassasalarini qurish boshlangan.

Samarqand viloyatida esa 5 ta turma qurib bitkazilgan. Samarqandda viloyat darajasidagi turma, Jizzax, Xo'jand, Kattaqo'rg'onda 3 ta uезд darajasidagi turmalari qurilgan. O'rta Osiyo temir yo'li qurilishi bilan Samarqand turmasi orqali ham boshqa joylarga mahbuslar jo'natila boshlagan. Avval mahbuslarni Toshkent turmasi orqali Orenburgga jo'natilgan bo'lsa, endi ularni Kaspiybo'yi temir yo'li orqali Krasnovodskka jo'natilgan. Farg'ona viloyatida to'rtta turma tashkil qilingan. Turmalardan tashqari, o'lkada hibsi uylari, harbiy avaxtalar va boshqa mayda qamoqxona turlarining keng tarmog'i faoliyat ko'rsatgan.

Qamoqxona tartibi asosini tutqunlikda saqlash to'g'risidagi Nizom, surgunlar to'g'risidagi Nizom, qamoqxona umumiy yo'riqnomasi va turli toifadagi mahbuslarning holatini belgilab beruvchi va yiliga yangilanib turadigan tartiblar va boshqa shu kabi hujjatlar belgilab bergan. Masalan, 1886 yil 29 fevralda "Guberniya, uезд qamoqxonalari va jo'natish turmalarida siyosiy mahbuslarni saqlash qoidolari" e'lon qilingan. Ularga ko'ra, siyosiy mahbuslar boshqa mahbuslardan ajratilganlar, jandarmeriya amaldorlari bunday mahbuslar saqlanadigan xonalarga kechasi va kunduzi xohlagan paytda kirishlari mumkin bo'lgan, "davlat jinoyatlari"da ayblangan shaxslar yakka holda xonalarda saqlanishlari shart bo'lgan.

Nafaqat turmalar ma'muriyati, balki ayrim quyi bo'g'inlardagilar ham tomonidan mahbuslar mehnatini suiiste'mol qilish holatlariga yo'l ochib berilgan. Aslida ish vaqti yoz oylari 11 soatdan, qishda esa 10 soatdan oshmasligi shart bo'lsa-da, amalda bunga doimo rioya etilavermagan.

Rossiyaning ko‘plab ichki guberniyalaridan farqli ravishda, Turkistonda hibsxonalar qo‘shinlar tomonidan muhofaza qilingan. Bu holat to birinchi jahon urushi boshlanguniga qadar saqlanib qolgan.

Qamoqxonalar ma‘muriyatining faoliyati hukumat tomonidan kam nazorat qilingan. Tergovdagilar va mahbuslarga nisbatan zo‘ravonlik ishlatish odatiy hodisa hisoblangan. Uchta “tub” viloyatlar – Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida “turmalar to‘g‘risida vasiylik qo‘mita”lari tuzilishi bilan bu boradagi holat yanada og‘irlashgan. Hibsxonalarning xo‘jalik va moliyaviy faoliyatini nazorat qilgan amaldorlar, harbiy xizmatchilar ishga olinganlar va mahbuslar huquqlarini himoya qilish haqida hattoki so‘z ham bormagan. Ular podsho jazolovchi siyosatini amalga oshiruvchi asosiy organ hisoblangan Turmalar bosh boshqarmasi ko‘rsatmalariga qat‘iy amal qilgan holda ish olib borganlar. Keyinchalik mustamlaka hukumatiga qarshi norozilikning kuchayib borishi natijasida turmalar qurilishini kengaytirishga ehtiyoj yuzaga kelgan. Turkiston hukumatining surgun qilinganlarga og‘ir sharoitli qamoqxonalarni qurish zaruriyati to‘g‘risidagi iltimosi muhokama qilingan, turma sharoitlarini borgan sari og‘irlashtirish to‘g‘risida borgan sari keng chora-tadbirlar qabul qilingan, barcha mavjud qonun-qoidalarini chetlab o‘tishga imkon beruvchi hukumatning “favqulodda” jazolash mexanizmlari kengaytirilgan.

SHu tariqa, imperiyaning Turkistondagi jazolash organlarining asosini tashkil qilgan turmalar hukumat siyosatidan norozi bo‘lgan turli ijtimoiy-siyosiy harakatlarga qarshi ayovsiz kurash vositalaridan biri bo‘lib xizmat qildi.

Turkiston harbiy Okrug (THO). Turkiston general-gubernatorligida joriy etilgan harbiylashtirilgan mustamlaka tizimida o‘lka, viloyat, uezd, bo‘lim, shahar boshliqlaridan iborat barcha lavozimlarni egallagan harbiylar o‘zi boshqargan hududdagi harbiy qismlar boshlig‘i ham bo‘lib, bu hol o‘lkani itoatda tutib turishda katta rol o‘ynar edi.

Rossiya imperiyasiga nafaqat Turkistonni, balki Buxoro va Xiva xonliklarini ham o'z ta'siri ostida saqlab turish uchun muntazam qo'shin zarur edi. Shu sababli 1867 yilda imperiyaning to'la hukmronligi ostida bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi bilan Turkiston harbiy okrugi (THO) vujudga keldi.

Rus zobitlari va soldatlaridan tashkil etilgan THO harbiy xizmat bilan bir qatorda Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro va Xiva xonliklarida imperiya hukmronligini ta'minlash va ularning chegaralarini qo'riqlash va harbiy-statistik tadqiqotlar olib borish asosida tabiiy iqlim, iqtisodiy salohiyat, ijtimoiy ahvol, siyosiy va harbiy vaziyat hamda xalq kayfiyatini chuqur o'rganish; hukumatga qarshi harakatlarni bostirish va xalqni to'la itoatda saqlash, qo'shni mamlakatlarda strategik maqsadlarda razvedka ishlarini olib borish va ulardagi ichki vaziyatni tahlil etish kabi muhim vazifalarni bajargan.

THO Rossiya imperiyasining o'lkadagi asosiy tayangan kuchi bo'lib, uning tarkibida jami 48 000 harbiylar xizmat qilgan. O'lkaga juda ko'p rus harbiy oilalari ko'chirib keltirilgan va ular uchun tegishli sharoitlar yaratilgan. Harbiy tayanchni kuchaytirish maqsadida Ettisuv viloyatiga Rossiyadan kazaklar ham ko'chirib keltirilib, ulardan maxsus harbiy qismlar tashkil qilingan.

Dastlabki kunlardan oq nafaqat Turkiston general-gubernatorligi, balki Xiva va Buxoro xonligi chegaralari ham imperiya qo'shinlari ixtiyoriga berilgan edi. Harbiy qismlar chegarani qo'riqlash bilan cheklanmay, balki qo'shni mamlakatlardagi ichki vaziyatni ham chuqur o'rganib borish uchun razvedka ishlari olib borilgan. Biron bir xorijiy yoki sharq tillarini yaxshi bilgan bunday harbiy razvedkachilar xizmati tufayli imperiya hukumati qo'shni mamlakatlardagi ichki vaziyat, Rossiyaga munosabat, aholining kayfiyati, savdo va boj masalalaridan doimo xabardor bo'lib turgan.

THO tarkibida nafaqat harbiylar, balki sharq va mahalliy tillarni yaxshi bilgan tadqiqotchilar ham ish olib borganlar. Xuddi Turkistonda ma'muriy-siyosiy boshqaruv harbiy boshqaruvga asoslangandek, THO faoliyatida ham harbiylar, razvedkachilar va tadqiqotchilar faoliyati uyg'unlashib ketgan edi. Ular

mamlakatning barcha hududlarida rekognitsiionirovka ishlari bilan birga strategik va amaliy maqsadlarda iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy, jugʻrofiy yoʻnalishlarda statistik maʼlumotlar toʻplash uchun juda katta tadqiqotlarni amalga oshiradilar.

Bunday tadqiqotlar natijasida oʻlkaning deyarli har bir hududi, hatto kichkina qishloqlardan tortib, to yirik markaz shaharlargacha olib boradigan yoʻllar va ularni turli fasllardagi holatlari, ichki va tashqi savdo yoʻllari, har bir aholi yashash punktida harbiylarni joylashtirish imkoniyati, harbiy toʻqnashuvlar paytidagi harakat imkoniyatlari haqida juda batafsil maʼlumotlar toʻplanadi. Bu maʼlumotlar rasmiy hukumatga oʻlkada imperiya manfaatlarini doimo taʼminlab, himoya qilib turishda juda zarur edi.

Boshqaruv tizimi harbiy asosda tashkil etilgan Turkistonda oʻlka, viloyat, uezd rahbarlari harbiylardan tayinlangan boʻlib, ular ayni paytda oʻzlari idora etgan hududlardagi harbiy qismlar boshliqlari ham edi. Mamlakat ichida Turkiston harbiy okrugi davlat ahamiyatga molik obʼektlar – hukumat idoralari, turmalarni qoʻriqlashdan tashqari muhim iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlgan temir yoʻllarni ham nazorat ostida tutib turganlar. Butun oʻlka ham ichki, ham tashqi jihatdan toʻliq harbiy nazorat ostiga olingan edi. Bunday nazorat va harbiylashtirilgan boshqaruv mahalliy aholining hukumatga qarshi har qanday qarshiliklarini juda keskin va qisqa fursatda bostirish imkonini bergan. 1898 yil Andijon qoʻzgʻoloni, 1916 yil umum Turkiston qoʻzgʻolonlarining shafqatsiz bostirilishi va ularning ishtirokchilarining harbiy sudlar orqali ogʻir jazolanishi bunga yaqqol misol edi.

Butun Turkistonni qamrab olgan 1916 yil qoʻzgʻoloni davomida oʻlkada harbiy holat joriy etilib, qoʻzgʻolonchilar harbiy sud tomonidan sud qilinib, shafqatsiz jazolandilar.⁴⁰ Garchi oʻlkada mahalliy sud tizimi – qozi va biy

⁴⁰ Васильев Д.М. Организация управления в Русском Туркестане по проектам Положения об управлении 1870-х гг.//«НАУКОВЕДЕНИЕ» <http://naukovedenie.ru> Выпуск 5 (24), сентябрь – октябрь 2014 publishing@naukovedenie.ru; Эшонов Ш. Правовые основы организации и деятельности судов казиев в Средней Азии. – Т., 2010.

sudlari hamda rus sudlari mavjud bo'lsa-da, qo'zg'olonchilar siyosiy jinoyatchi sifatida qaralib, ularni sud qilish va jazolash harbiy sudlar zimmasiga yuklatilgan. Bunday keng ko'lamdagi vazifalarni amalga oshirish uchun hukumatga katta kuch va mablag' zarur edi. Rasmiy hukumat bu sohaga mablag'ni ayamas edi. Turkistonga Rossiyadan oddiy askarlar, oliy unvon sohibi bo'lgan harbiylar, kazaklar, harbiy vrachlar, razvedkachilar jalb etilgan. THO uchun kazarmalar, cherkovlar, kasalxonalar, harbiylarning oilasi va farzandlari uchun maktablar, ko'ngil ochar joylar tashkil etiladi.

THO qo'shinlari ichida jinoyatchilik ham ko'p uchrab turgan, bunday holatlar ko'pincha ichkilikbozlik bilan bog'liq bo'lib, asosan o'zaro urushlar, o'g'rilik sifatida uchrab turgan. SHu sababli harbiy qismlar uchun maxsus sud tizimi tashkil etilgan.

THO tarkibida 25 ta batalon bo'lib, shundan 18 tasi chegarani qo'riqlagan. Bundan tashqari 8 ta kazak polklari xizmat qilgan. Qo'shinlarning umumiy soni 47 867 kishi bo'lib, shundan 1 402 kishi general, ofitser va boshqa harbiy unvonli kishilar, qolgan 46 465 kishi oddiy askarlardan iborat bo'lgan. Harbiylar tinch paytda asosan mirshablik, harbiy maqsadlar uchun yo'llar, ko'priklar qurish, yangi istehkomlar barpo etish, eskilarini ta'mirlash, harbiylar uchun uy, kazarma, boshqarmalar qurish ishlari bilan shug'ullanganlar. O'lkada 573 ta harbiy post bo'lib, doimiy ravishda ko'payib borgan.

THO tarkibida safarbarlik, harbiy yo'l, hisobot, xo'jalik, gospital, sud, mahkama, arxiv kabi o'nlab bo'limlar faoliyat ko'rsatardi. Bunday o'lgan hajmdagi qo'shin va uning boshqaruvi uchun hukumat har yili katta mablag' sarflagan. Turkiston aholisidan olingan daromadlarning katta qismi harbiy xarajatlarga yo'naltirilgan edi. O'lkadagi mahalliy aholi harbiy xizmat huquqidan va qurol saqlashdan mahrum etilgan bo'lib, bu ularni itoatda saqlab turish uchun atayin tashkil etilgan edi. Mahalliy aholi harbiy xizmatdan ozod qilinganligi uchun ularga maxsus soliq solingan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Turkistonda mustamlaka tuzumi sharoitida tashkil etilgan politsiya, jazo va harbiy tizim muassasalarining faoliyati o'lkaholisini imkon qadar nazoratda va itoatda saqlashga qaratilgan bo'lib, buning uchun mustabid hukumat mablag'ni ayamagan, aksincha, o'lkah byudjetining katta qismi ana shu xarajatlarga yo'naltirilgan. Mazkur tartiblar yil sayin kuchaytirilib, sarf-xarajatlar ham ortib borgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida hukmronlik qilgan Chorizm davrida zo'rovonlikka asoslangan ma'muriy buyruqbozlik tizimi totalitar markaz o'z qo'lidagi cheksiz hokimiyatni ishga solib respublikalarning mustaqilligini, fuqarolarning eng oddiy haq-huquqlarini ham kamsitish, ularni xo'rlash qul qilishdan iborat edi.

50-yillarning boshlaridan boshlab mustamlakachilik masalalari bilan shug'ullanayotgan tarixchilar "bo'ysundirish", "mustamlaka" kabi atamalardan voz kechib, ularga tuzatish kiritib, ularni o'rniga "kirgizish", "birlashtirish", "ixtiyoriy birlashtirishning progressiv ahamiyati" kabi siyosatni qullab yangicha mavzuga yondashib tadqiqotlar qiladilar. XX asr 50-60 yillarida Toshkent tarixi va uning boshqaruv sistemasi va adliya masalalariga bag'ishlangan ayrim asarlar orasida M.E.Masson, M.D.Vahobov, V.A.Shishkinlar asarlarida Toshkentning arxeologiyasi, o'tmish tarixiga oid faktlar keltirilgan.

XX asrning 60-yillarida yozilgan F.A. Ozodaev, A.M. Aminov, Yu.A.Sokolovlarning asarlarida Toshkentda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi, shaharning XIX asr o'rtalarigacha tarixiy o'tmishi, uning 1865 yilda Chorizm tomonidan bosib olinishi o'z aksini topgan.

Yana shuni alohida takidlashimiz kerakki, XIX asr 80 yillaridan XX asr boshlariga qadar mahalliy qozilar tomonidan Toshkent shahar boshqarmasiga

barcha qabul qilingan hukm va qarorlari junatilgani arxiv materiallarida o'z aksini topgan. Shu davr ichida sud mahkama ishidagi faqat Toshkent shahriga xos har bir yil uchun (yanvardan dekabr oxirigacha) ko'rib chiqilgan mahalliy sud idorasi chiqargan hukm va qaror ostida rus tilida ko'rilgan ishlarni qabul qilinganligi kuzatilgan.

Rossiya imperiyasiga nafaqat Turkistonni, balki Buxoro va Xiva xonliklarini ham o'z ta'siri ostida saqlab turish uchun muntazam qo'shin zarur edi. Shu sababli 1867 yilda imperiyaning to'la hukmronligi ostida bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi bilan Turkiston harbiy okrugi (THO) vujudga keldi.

Rus zobitlari va soldatlaridan tashkil etilgan THO harbiy xizmat bilan bir qatorda Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro va Xiva xonliklarida imperiya hukmronligini ta'minlash va ularning chegaralarini qo'riqlash va harbiy-statistik tadqiqotlar olib borish asosida tabiiy iqlim, iqtisodiy salohiyat, ijtimoiy ahvol, siyosiy va harbiy vaziyat hamda xalq kayfiyatini chuqur o'rganish; hukumatga qarshi harakatlarni bostirish va xalqni to'la itoatda saqlash, qo'shni mamlakatlarda strategik maqsadlarda razvedka ishlarini olib borish va ulardagi ichki vaziyatni tahlil etish kabi muhim vazifalarni bajargan.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida (1867–1917 yy.) Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, bunday o'zgarishlar ilm-fan va ta'lim sohasiga ham doir bo'lib, mustamlaka ma'muriyati ilm-fan va ta'lim sohasini o'z maqsadlariga bo'ysundirgan holda uning rivojlanishini ta'minlagan. Rossiya imperiyasining hukmron doiralari yangi bosib olingan erlardan ko'proq iqtisodiy foyda olish, mahalliy aholining tobeligini ta'minlash maqsadida o'lkani va bu erdagi shart-sharoitlarni tizimli o'rganishga harakat qiladi.

Rus hukmatining o'lkadagi ma'muriy boshqaruvi ham O'rta Osiyo haqida iloji boricha tezroq ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lishga qiziqardi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad uning er osti va usti boyliklari joylashgan manzillar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish va u erlarga harbiy harakatlarni boshlash

edi. Shu maqsadda Rossiya imperiyasining markaziy va o'lkadagi mahalliy amaldorlari Turkiston general-gubernatorligi tashkil topishi bilanoq bir qator boshqaruv organlari, ilmiy jamiyatlar va muassasalarni tashkil etadilar. Shuning uchun ham ushbu mavzuni tadqiq qilishda yuqorida keltirilgan boshqaruv organlari va ilmiy muassasalarning hujjatlari alohida o'rganildi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

I. Ўзбекистон Республикаси Президентлари асарлари

1. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2010.

2. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

3. Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. “Туркистон” газетаси мухбирининг саволларига жавоблар. // Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. – 7-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.

4. Каримов И.А. Бу буюк Ватанда инсон улуғ, хотира – муқаддас. 2011 йил 9 май // Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг бош мезонидир. – 19- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

5. Каримов И.А. Тарихдан сабоқ олиб, замон билан ҳамқадам бўлиб яшаш – бугунги ҳаётнинг ўткир талаби. Президент Ислам Каримовнинг интервьюсидан келиб чиқадиган хулосалар. 2012 йил 14 май// Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (ЎЗА)нинг веб-сайти – www.uza.uz.

6. Каримов И.А. Эл-юртга ҳалол, виждонан хизмат қилиш – ҳар бир раҳбарнинг муқаддас бурчи. “Халқ сўзи” газетаси, 2004 йил 26 май.

7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24-йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза // <http://www.press-service.uz/uz/news/5384/>

8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016. Б. 6.

9. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017.

II. Илмий адабиётлар

1. Абдуллаев Р.М. Из истории национального движения в Туркестане после февраля 1917 г.// “Общественные науки в Узбекистане”, 1993, №5.
2. Абдурахимова Н.А. Из истории Туркестанского чиновничества второй половине XIX - начале XX в. // сборн. “Вопросы социально-экономической истории дореволюционного Туркестана”. -Ташкент, 1985, С.32-47.
3. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система и власть в Туркестане во второй половине XIX -первой четверти XX вв.// - Ташкент, РНУ, 1999.
4. Абрамов И. Положение об управлении Туркестанская края. // - Ташкент, 1916.

5. Алимова Д. Мустабид тизимнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати. -Тошкент, Шарқ, 2000.
6. Аминов А.М. Торговые сношения Средней Азии с Россией в XVI-XIX вв. -Ташкент, 1952.
7. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (Колониальный период). -Ташкент, 1959.
8. Аминов А.М., Бабаходжаев А. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. -Ташкент, 1966.
9. Бартольд В.В. Об одном уйгурском документе. // Соч., т. VIII.- М., 1973.
- 10.Бейсембиев Т.К. “Таърих-и Шахрихи-как исторический источник.// Алма-Ата., Наука, 1987.
- 11.Вахабов М.Г. Ташкент в период трёх революций.-Ташкент., 1967.
- 12.Васильев Д.В. Становление и развитие системы управления Туркестанского края 1865 – 1886 гг. // Дисс. на соиск. уч. степ. кан. ист. наук. Москва, 1999.
- 13.Гаевский В.С. Историческая справка о городе Ташкенте.// - Ташкент., 1907.
- 14.Daniel Brower. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. New York, 2003.
- 15.Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Т., Электро-печатная А.О. Порцева, 1912.
- 16.Жумаев У. Хорижий тарихшуносликда Россия империясининг Туркистондаги Молиявий сиёсати таҳлили. Миллий университет тарихчиларининг Ўзбекистон илм-фан ривожига қўшган ҳиссаси. – Т.,2016. 244-252 б.

17. Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида. – Т., 2014.
18. Зияев Х. Ўзбекистон мустамлака зулм исканжасида. – Т., 2003.
19. Зияева Д. Ўрта Осиёда Россия империясининг бож сиёсати ва унинг савдо муносабатларига таъсири (XIX асрнинг охири – XX аср бошлари) // Божхона иши тарихи, – Т., 2016,
20. Зияева Д.Х. Мустамлака даврида Туркистонда “Зироатчилик ва давлат мулки бошқамаси” фаолияти // “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги масалалари: тарих ва тараққиёт”. – С – Т., 2016.
21. Кастельская З.Д. Из истории Туркистонского края (1865 – 1917). – М.: Наука, 1980.
22. Morrison A.S. Russian rule in Samarkand, 1868 – 1910: A Comparison with British India.– Oxford and New York: Oxford University Press, 2008.
23. Материалы, относящиеся к “Проекту положения об управлении Туркистонским краем”. Пояснительная записка к Проекту положения об управлении в областях Туркистонского генерал-губернатора. – Спб.: Военная типография (в здании Главного штаба), 1874.
24. Материалы, относящиеся к проекту Положения об управлении Туркистонской областью. – Т., 1866.
25. Мусаев Н. XIX аср охири – XX аср бошида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши ва ривожланиши. – Т., 2002.
26. Махкамова Н.Р. Периодическая печать 20–30–х годов XX века как источник по социально–экономической истории Узбекистана // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий–амалий анжумани материаллари 2008 йил 25 апрел – Тошкент.: 2008. – 306–309 бетлар.

27. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865–1990 йиллар)/ Лойиҳа раҳбари ва муҳаррир: Д.А. Алимова/ .– Т.: Шарқ. 2000.– 432 б.
28. Мяскова Л. История партийных архивов Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1984. –144 с.
29. Мўминов Ҳ. Туркистон АССР советларининг съездлари – Ўзбекистон тарихини ўрганишнинг муҳим манбаси. Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий–амалий анжумани материаллари 2008 йил 25 апрел // – Тошкент.: 2008–260–264 бетлар.
30. Мнухина Р.С. Источниковедение истории нового и новейшего времени. – М.: Высшая школа. 1970.– 328 с.
31. Ноль-де А.Э. Сперанский М.М. Биография. – М., 2004.
32. Назаров М. Туркистон Интервенция ва гражданлар уруши даврида (1918–1920 йй.). – Т.: Ўздавнашр. 1961. –299 б
33. Независимость и история: новые подходы к изучению истории Узбекистана. – Т.: Университет. 1997. –52 с.
34. Пантусов Н. О податях и повинностях, существовавших в бѣвшем Кокандском ханстве, в последнее время, правления Худаярхана. / Туркестанские Ведомости 1876. №16.
35. Пантусов Н. Сборы и пошлины в бѣвшем Кокандском ханстве. / Туркестанские Ведомости. 1876, №30.
36. Покровский Н. Н. О принципах издания документов XX в. // Вопросы истории. 1999, № 6.
37. Проект Всеподданнейшего отчёта Генерал-Адъютанта К.П. Кауфмана І. 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 г. Издание военно-учёного комитета Главного штаба. – Спб.: Военная типография (в здании Главного штаба), 1885.
38. Тиллабоев. С. Туркистон ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан, 2008.

- 39.Турсунова Р.Ю. Городское самоуправление в Туркистане (1877 – 1918).: Дисс. ... канд. ист. наук. – Т., 2000.
- 40.Тухтаметов Ф.Т. Правовое положение Туркестана в Российской империи (вторая половина XIX века). Монография. Уфа, БашГУ, 1999.
- 41.Федоров Г.П. Моя служба в Туркистане // Исторический Вестник. – 1913. – сентябрь-октябрь.
- 42.Эргашев Ф., Абдурахимова Н., Сугуралиева Ф. Туркистонда молия хўжалик идоралари тизими. – Т., 2008.
43. Эшонова Ш. Правовые основы организации и деятельности судов казиев в Средней Азии. – Т., 2010.
- 44.Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихи (энг қадимги даврлардан ҳозиргача) // Коллектив монография. Масъул муҳаррир: Д.Зияева. Тошкент, 2012.
- 45.Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Д.А.Алимова, Э.В.Ртвеладзе. – Т., 2001.

III. Диссертация ва авторефератлар

Авторефератлар

1. Аберкулов Д.Н. Дехканство Туркестана в 1917 –1921 г (на материалах Самаркандской, Сырдарьинской и Ферганской областей) Автореферат дисс. канд. Ист. Наук.–Т.: ИИ АН Республики Узбекистан. 2000. –31 с.
2. Камолов Д.П. История судебной системы в Туркестанской АССР Автореферат дисс. канд. Ист. Наук.–Т.: ИИ АН Республики Узбекистан. 2008. – 30 стр.
3. Куллиев Х. Складывание экономических и духовных основ тоталитарного строя в Туркестане (1917–1920 гг.). – Автореф. Дисс. ...канд. ист. наук. – Т.: 1998. 30 с.

IV. Даврий матбуот

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 декабря 1996 г. «О подготовке и издании «Новой истории Узбекистана». // Народное слово. 17 декабря, 1996 г.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси қошидаги Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 29 июль.
3. Ўзбекистон тарихи. ЎзР ФА илмий журнали 1998–2010 йй.